Türk Dil Kurumu Sözlükleri. (2025). Retrieved October 12, 2025, URL: <https://sozluk.gov.tr> (Erişim Tarihi: 13.10.2025).

Yazar hakkında:

İnce Dilara Gökçe — Ege Üniversitesi Türk Dünyası Araştırmaları Enstitüsü Türk Dünyası Edebiyatları Anabilim Dalı Bilim Uzmanı, dilaragokceince@gmail.com

PERSONAL NAMES IN THE STORIES OF KOSHKE KEMENGERULY

Dilara Gökçe İnce,
Ege University Institute of Turkish World Studies

Abstract: Since the earliest times, humankind has felt the need to interpret its existence, determine its status, and classify the beings around it. As a result of interaction with its surroundings, it also began to give names to living inanimate beings. The branch of onomastics (literary studies) also undertakes the task of studying these names. The branch of onomastics that studies and evaluates the personality-determining characteristics of personal names, as well as the beliefs and designs underlying the choice of names, is also called “anthroponymy”. The main goal of our research is to develop interpretations of the structure, origin, and semantics of the names of people mentioned in the stories of Koshke Kemengeruly, one of the Kazakh Alash intellectuals who fell victim to repression in 1937.

Keywords: Onomastics, Kazakh Literature, Kazakh Storytelling, Personal Names, Koshke Kemengeruly

About the author:

Ince Dilara Gökçe — Science Specialist at Ege University, Institute of Turkish World Studies, Department of Turkish World Literatures, dilaragokceince@gmail.com

MEDIAMATNLAR VA ULARDAGI NUTQ AKTLARINING JAMIYATGA KOMMUNIKATIV TA'SIRI

Hojarbibbi Ataboyeva, 
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda mediamatnlarda nutq aktlarining kommunikativ ta'siri elektron va bosma nashrlar materiallari asosida tadqiq qilinadi. Tahlil uchun O'zbekistonning yetakchi elektron axborot resurslari — “Oyina.uz”, “Qalampir.uz”, “Kun.uz”, hamda “Jadid” gazetasi tanlab olindi. Tadqiqotda J.L.Ostin va J.Searle nutq aktlari nazariyasi asosida lokutiv, illokutiv va perllokutiv aktlarning mediamatnlarda qanday ifodalanishi hamda ularning auditoriyaga kommunikativ ta'siri qiyosiy o'rganildi.

Kalit so'zlar: mediamatn, pragmatik yondashuv, nutq aktlari, multimodal tahlil, sarlavha

Zamonaviy jurnalistika tilshunoslik va kommunikatsiya fanining eng muhim tadqiqot maydoniga aylangan. Unda matn nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki ijtimoiy ong, tafakkur, tanlovga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli kommunikativ vosita sifatida shakllanmoqda. Mediamatnlarida matnning pragmatika bilan bog'liq jihati shundaki, pragmatika matnni yaratish va uning qabul qilinishi jarayonlarini samarali boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, yangiliklar, reklama yoki maqolalar turli xil pragmatik maqsadlarga ega bo'lishi mumkin: axborot yetkazish, o'rgatish, ishontirish yoki muayyan harakatga undash. Adabiy ta'limda mediamatnlarning o'rni va ahamiyatini quyidagicha belgilash mumkin: Global ta'lim tizimida mediamatn tushunchasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Mediamatn — bu matn, grafika, audio, video hamda raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan integrativ kommunikativ mahsulotdir. U adabiy ta'lim jarayonlarida nafaqat qo'shimcha resurs, balki ta'limiy jarayonni samarali tashkil etish va talabalarni shaxsiy tajribasini boyitish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Mediamatnlarning adabiy ta'limdagi vazifalari, asosan, interpretatsiya imkoniyatlari ya'ni mediamatnlar an'anaviy adabiy matnlarni zamonaviy vositalar orqali qayta talqin qilish imkonini yaratadi. Bu adabiy asarni yangi ma'no qatlamlari bilan boyitishga xizmat qiladi. Tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish.

Mediamatn bilan ishlash jarayonida talabalar adabiy asarning mazmun—mundariyasi, uslubiy xususiyatlari va ijtimoiy-pragmatik qirralarini chuqurroq anglaydilar. Ijodiy kompetensiyalarni chuqur va ilmiy tahlilini zamonaviy tarzda shakllantirish.

Mediamatnlar asosida amalga oshirilgan tahlil, muloqot va taqdimotlar talabalarining ijodiy fikrlash qobiliyati hamda multimedia orqali ifoda qilish mahoratlarini rivojlantiradi. Interaktiv va zamonaviy ilimga asoslangan muhit yaratish.

Raqamli texnologiyalar bilan uyg'un holda mediamatnlar adabiy ta'lim jarayonini faol, muloqotga yo'naltirilgan va samarali tashkil etish imkonini beradi. Eng so'nggi elektron mediamatnlarning tezkorlik, interaktivlik va baholovchanlik xususiyatlari bosma nashr matnlari bilan qiyoslanib, ularning pragmatik farqlari ochib beriladi. Maqola natijalari mediadiskursda kommunikativ strategiyalarni tahlil qilish, elektron va bosma OAV tilidagi nutq aktlarining funksional xususiyatlarini aniqlash hamda mediamatnlarning auditoriyaga ta'sir mexanizmlarini ko'rsatishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mediamatnlar adabiy ta'lim jarayonini faqat nazariy bilim berishdan iborat emas, balki muloqot, bahs-munozara va ijodiy faoliyat jarayoniga aylantiradi. Bu esa raqamli muhit sharoitida talabalarining adabiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi hamda interfaol kompetensiyalarini shakllantirishiga zamin yaratadi. Mediamatnlarning pragmatik xususiyatlari ularning kontekst bilan bog'liqligida yaqqol namoyon bo'ladi, shu sababli mediamatnlarning lingvopragmatik tahlili bugungi kunda jurnalistikaning nazariy va amaliy rivojida muhim o'rinni egallamoqda.

Bugungi kunda zamonaviy pragmatika faqat nutq aktlari bilan cheklanmay, balki diskursiv strategiyalar va interaktivlik masalalarini ham chuqur o'rganmoqda. So'nggi tadqiqotlarda raqamli kommunikatsiya (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, podkastlar) pragmatik tahlilning asosiy ob'ekti sifatida ko'rilmogda. Multimodal pragmatika til bilan bir qatorda tasvir, ovoz va grafik elementlarning ham kommunikativ niyatga ta'sirini tahlil qilmoqda. Korpus lingvistikasiga asoslangan pragmatika yondashuvlari keng rivojlanib, katta matnlar bazasi asosida real nutq

aktlari amaliy tahlil qilinmoqda. Austin va Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi media kommunikatsiyasida yashirin niyat, illokutiv kuch va perlokutiv ta'sirni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi (Austin, 1962). Chudinovning siyosiy metafora tahlili bo'yicha ishlari OAV tilida konseptual metaforalarning manipulyativ va baholovchi funksiyalarini ochishda keng qo'llanilmoqda (Чудинов, 2006). Kress va van Leeuwening multimodal tahlil modeli media matnining faqat lingvistik emas, balki vizual, grafik va kompozitsion elementlar orqali ham ma'no yaratishini ko'rsatadi (Kress, 2006). Zappavigna tomonidan ilgari surilgan sotsial media tilining affilyativ funksiyasi mediamatnlarda hashtaglar, indeksik birliklar va diskurs markerlarining yangi kommunikativ rolini yoritadi (Zappavigna, 2018). Dobrosklonskayaning medialingvistika bo'yicha ishlari zamonaviy OAV tilining tizimli xususiyatlari, janr dinamikasi va media diskursining pragmatik funksiyalarini tavsiflaydi (Austin, 1962) (Добросклонская, 2008).

Rus va G'arb olimlariga ko'ra, mediamatnlarning pragmatik xususiyatlari ko'pincha ijtimoiy kontekst, auditoriya ehtiyojlari va kommunikativ strategiyalar bilan belgilanadi.

Xulosa sifatida, mavjud adabiyotlar media diskursini o'rganishda multimodal, pragmatik va kognitiv yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishi eng samarali metodik yo'l ekanini ko'rsatadi.

Nazariy asoslar haqida ilm qilib, o'z ilmiy ishlari bilan pragmatikaga katta xissa qo'shgan, nutq aktlari va kommunikativ ta'sir masalalari haqida tadqiqot olib brogan olimlardan J. L. Austin (1962) — "How to Do Things with Words" (So'zlar orqali bajaraman) asrida (Austin, 1962). Nutq aktlari nazariyasining asoschisi bo'lib, "lokutsion", "illokutsion" va "perlokutsion" aktlarni farqlaydi. Media matnlarda aynan perlokutsion ta'sir o'quvchi-tinglovchiga ko'rsatiladigan psixologik va ijtimoiy ta'sir muhim.

J.R.Searle (1969) — nutq aktlarini klassifikatsiya qiladi: assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlar. Media matnida, masalan, yangilik xabari ko'pincha assertiv, reklama esa direktiv nutq aktlari orqali ishlaydi. Chudinov, A.P. (2006) (Чудинов, 2006) — siyosiy metafora va nutq aktlarining ta'sirchanlikdagi roli, ayniqsa publitsistik diskursda, keng yoritilgan.

Mediamatnlardagi kommunikativlik ta'sirni o'rgangan olimlardan van Dijk, T. A. (1988, 1997) (van Dijk, 1988) — media diskursida kuch va mafkura masalalarini tahlil qiladi. Uning "News as Discourse" (Yangiliklar — diskurs sifatida) asari matbuot materiallarida illokutsion niyat va perlokutsion ta'sirni ochishda muhim. Fairclough, N. (1995, 2010) — kritik diskurs tahlili asosida OAV nutqining ijtimoiy ta'sirini ko'rsatadi. Media orqali hokimiyat va auditoriya o'rtasidagi muloqot mexanizmlarini yoritadi. Kress, G., va van Leeuwen, T. (1996, 2006) (Kress, 2006) — multimodal tahlil: matn, tasvir va dizayn orqali yaratilgan nutq aktlari kuchaytirilishini tushuntiradi. Masalan, elektron nashrlar vizual komponentlar bilan perlokutsion ta'sirni kuchaytiradi. A. Bell (1991) bosma va elektron media tilining stilistik farqlarini o'rganib, nutq aktlari jurnalistikaning janr va formatiga qarab turlicha qo'llanilishini ko'rsatadi. O'zbek tadqiqotchilari: OAV tilida nutq madaniyati, reklama va publitsistika tilining kommunikativ ta'siri bo'yicha maqolalar mavjud (masalan, Sh.Safarov, N.Mahmudov, U.Tursunov ishlari). Ular ko'proq til madaniyati va stilistik xususiyatlarga urg'u berishadi, ammo nutq aktlari nazariyasi bilan integratsiya qilish imkoniyati keng.

Kam o'rganilgan jihatlar — o'zbek tilidagi bosma va elektron mediamatnlarni nutq aktlari asosida tizimli solishtirish, perlokutsion ta'sirning aniq mexanizmlarini empirik tahlil qilish. Tadqiqot imkoniyati — elektron va bosma OAV ni solishtirib, assertiv, direktiv, ekspressiv aktlarning qanday kommunikativ samaraga erishishini ko'rsatish mumkin.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, nutq aktlari nazariyasi tilshunoslik, falsafa va kommunikativ pragmatikaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu nazariya tilning nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki amal bajarish mexanizmi sifatida ham xizmat qilishini asoslaydi. Kross-madaniy pragmatika global muloqot jarayonlarida turli madaniyatlarda nutq aktlarining farqli ishlatilishini tadqiq etmoqda. Kognitiv pragmatika doirasida tilshunoslar nutqning pragmatik mazmunini inson ongidagi jarayonlar bilan bog'lashga intilmoqda. Siyosiy va mediamatnlarni tadqiq etishda pragmatik manipulyatsiya usullari (metafora, framing, presuppozitsiya) alohida e'tiborga olinmoqda. Sun'iy intellekt va pragmatika kesishgan nuqtada chat-botlar va nutqni tushunuvchi tizimlarda illokutsion va perlokutsion ma'nolarni model qilish ishlari olib borilmoqda. Pragmatik kompetensiya masalasi ta'lim sohasida ham dolzarb bo'lib, chet tillarini o'qitishda samarali kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Hozirgi pragmatika tadqiqotlari tilni faqat aloqa vositasi emas, balki ijtimoiy kuch, madaniy

kapital va psixologik ta'sir mexanizmi sifatida ko'rib chiqmoqda.

Umumiy (pragmatik) tahlil. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan "Jadid" gazetasi o'z kontenti orqali an'anaviy jadidchilik g'oyalarini zamonaviy media talqinida davom ettiradi va unda nutq aktlarining barcha asosiy turlari faol namoyon bo'ladi. Nashrning assertiv aktlari ma'rifiy maqolalar, tahliliy sharhlar va ilmiy—ommabop materiallarda kuzatilib, ular orqali mualliflar faktlar, tarixiy dalillar va ijtimoiy kuzatuvlarni ishonchli axborot sifatida taqdim etadilar. Direktiv aktlar ayniqsa yoshlarni o'qishga, fikrlashga, ijtimoiy hayotda faol bo'lishga undovchi materiallarda yaqqol seziladi; ular motivatsion sarlavhalar, chaqiriqlar va tavsiyalar orqali ifodalanadi. Ekspressiv aktlar madaniy meros, islohotlar yoki ijtimoiy muammolar yoritilgan materiallarda emotsional munosabat, baho va muallifning shaxsiy pozitsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Komissiv aktlar nashrning ma'rifiy yo'nalishga sodiqligini bildirish, jamiyatga manfaat keltirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surish orqali ko'zga tashlanadi. Ba'zi materiallarda deklarativ aktlar ham uchrab, ular ma'rifiy tashabbuslarni e'lon qilish, yangi loyihalar yoki jamiyatga oid tamoyillarni bayon etish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, "Jadid" gazetasi zamonaviy media muhiti talablari asosida nutq aktlarining turli shakllaridan kompleks foydalanib, o'quvchi auditoriyasida ongli va faol pozitsiya shakllantirishga xizmat qiladi.

"Oyina.uz" zamonaviy media platformasida nutq aktlari informatsion va tahliliy uslubning uyg'unligida qo'llanadi. Assertiv aktlar yangilik va reportajlarda faktlarni aniqlik, xolislik va manba asosida yetkazish orqali namoyon bo'ladi. Direktiv aktlar esa ko'proq ijtimoiy ogohlikka chaqiruvchi sarlavhalar, tavsiyalar va tahririyatning muayyan mavzu bo'yicha pozitsiyasida uchraydi. Ekspressiv aktlar madaniyat, ta'lim, tarbiya va jamiyatga oid maqolalarda muallifning baholovchi yoki hissiy munosabati sifatida seziladi. Kamroq darajada bo'lsa-da, komissiv aktlar tahririyatning ishonchli axborot berishga sodiqligi yoki ma'rifiy yo'nalishga intilishini bildiruvchi bayonotlarda uchraydi. Deklarativ aktlar esa nashr tomonidan e'lon qilinadigan yangi loyihalar, tanlovlar yoki ijtimoiy tashabbuslarda ko'zga tashlanadi. Umuman, "Oyina.uz" auditoriya uchun sodda, tushunarli va pragmatik jihatdan yo'naltirilgan nutq aktlari tizimidan foydalanadi.

Kun.uz elektron nashrida nutq aktlari ko'proq assertiv va direktiv shaklda namoyon bo'ladi. Yangiliklar, maqolalar va sharhlarda faktlar aniq, tekshirilgan va xolis tarzda taqdim etiladi (assertiv). Shuningdek, o'quvchini ijtimoiy faoliyatga, voqealarni kuzatishga chaqiruvchi sarlavhalar va tavsiyalar orqali direktiv aktlar keng qo'llanadi. Ekspressiv aktlar ham mavjud, lekin odatda ehtiyotkor va neytral ohangda ifodalanadi. Komissiv va deklarativ aktlar kamroq, asosan nashr loyihalari yoki rasmiy e'lonlarda uchraydi.

Qalampir.uz elektron nashri esa nutq aktlarini biroz dinamik va emotsionalroq uslubda qo'llaydi. Assertiv aktlar ham mavjud, lekin ko'proq tahliliy sharhlar va muallif fikri orqali namoyon bo'ladi. Direktiv aktlar, tavsiyalar va ogohlantirishlar auditoriyani faol harakatga chaqiradi, ba'zan sarkazm yoki baholovchi ohang bilan. Ekspressiv aktlar kuchliroq bo'lib, muallif hissiy munosabatini ochiq ifodalaydi. Komissiv va deklarativ aktlar, xususan, ijtimoiy tashabbuslar va loyihalarni e'lon qilishda ko'proq ishlatiladi.

Bu ikkita raqamli nashrning bir – biridan farqi shuki; Kun.uz — rasmiy, neytral, xolis, faktlarga asoslangan nutq aktlari; ekspressivlik kam. Qalampir.uz — emotsional, muallif fikri ko'proq, ekspressiv va baholovchi ohang kuchliroq; auditoriya bilan interaktiv aloqaga urg'u berilgan.

Zamonaviy O'zbekiston gazetolari va elektron nashrlari nutq aktlarini auditoriya bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish vositasi sifatida faol qo'llaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Jadid" gazetasi va Oyina.uz elektron nashri nutq aktlarini ixcham, tushunarli va pragmatik yo'naltirilgan tarzda ishlatadi; assertiv va direktiv aktlar asosiy vazifani bajarib, ekspressiv, komissiv va deklarativ aktlar cheklangan, lekin aniq maqsadli.

Kun.uz esa rasmiy va neytral ohangdagi assertiv aktlar bilan ajralib turadi, direktiv aktlar auditoriyani ijtimoiy faoliyatga chaqirishda ishlatiladi, ekspressiv aktlar esa kamroq qo'llanadi. Shu bilan birga, Qalampir.uz nashri nutq aktlarini yanada dinamik, emotsional va baholovchi ohangda ishlatadi; auditoriya bilan interaktiv aloqani kuchaytiruvchi direktiv va ekspressiv aktlar ko'proq namoyon bo'ladi, komissiv va deklarativ aktlar esa tashabbus va loyihalarni e'lon qilishda seziladi.

Umuman olganda, mavjud bosma va elektron nashrlar media diskursida nutq aktlarining turli shakllarini birgalikda qo'llash orqali o'quvchi auditoriyasida ongli pozitsiya va ijtimoiy

faollik shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, har bir nashrning kommunikativ strategiyasi ularning uslubi, auditoriya yo'nalishi va kontentning emotsional—hissiy rang—barangligi bilan belgilanadi.

Xulosa sifatida, nutq aktlari tahlili media diskursini o'rganishda zamonaviy OAVning kommunikativ mexanizmlarini ochib beruvchi samarali metod hisoblanadi va auditoriya bilan interaktiv muloqot hamda axborotning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika [Monografiya]. Toshkent: Fan.
URL: [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Pragmalingvistika%20\(Sh.Safarov\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Pragmalingvistika%20(Sh.Safarov).pdf) (Murojaat sanasi: 29.10.2025).
- Austin, J.L. (1962). How to do things with words. Oxford: Clarendon Press.
URL: <https://ru.scribd.com/doc/143769161/Austin-J-L-How-to-Do-Things-With-Words>
(Date of application: 29.10.2025).
- Searle, J.R. (1969). Speech acts. Cambridge: Cambridge University Press.
URL: https://books.google.co.uz/books/about/Speech_Acts.html?id=t3_WhfknvF0C&redir_esc=y (Date of application: 29.10.2025).
- Searle, J.R. (1976). A classification of illocutionary acts. Language in Society, 5(1), 1–23.
URL: https://books.google.co.uz/books/about/Speech_Acts.html?id=t3_WhfknvF0C&redir_esc=y (Date of application: 29.10.2025).
- Zappavigna, M. (2018). Searchable talk: Hashtags and social media metadiscourse. London: Bloomsbury. URL: https://www.researchgate.net/publication/326476427_Searchable_Talk_Hashtags_and_Social_Media_Metadiscourse (Date of application: 29.10.2025).
- van Dijk, T.A. (1988). News as discourse. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203062784>
- Fairclough, N. (1995). Media discourse. London: Edward Arnold.
URL: <https://ru.scribd.com/document/386703274/norman-fairclough-media-discourse>
(Date of application: 29.10.2025).
- Kress, G., & van Leeuwen, T. (1996). Reading images: The grammar of visual design. London: Routledge. (2nd ed., 2006). URL: https://books.google.co.uz/books/about/Reading_Images.html?id=wprZmJFXUXIC&redir_esc=y (Date of application: 29.10.2025).
- Bell, A. (1991). The language of news media. Oxford: Blackwell. URL: <https://www.semanticscholar.org/paper/The-language-of-news-media-Bell/a92b395dd27dba8ac4f7d17d08e0b8ce8b776b39> (Date of application: 29.10.2025).

Чудинов, А. П. (2006). Политическая метафора. Екатеринбург: УрГПУ. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37136996> (Дата обращения: 29.10.2025).

Добросклонская, Т.Г. (2008). Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. Москва: Флинта; Наука. URL: <http://www.ffl.msu.ru/research/publications/dobrosklonskaya/dobrosklonskaya-medialingvistika.pdf> (Дата обращения: 29.10.2025).

Muallif haqida:

Atabayeva Hojarbibi Yarash qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti birinchi bosqich tayanch doktoranti, atabayevahajarbibi@gmail.com

COMMUNICATIVE IMPACT OF MEDIA TEXTS AND THEIR SPEECH ACTS ON SOCIETY

Ataboyeva Hojarbibi,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis examines the communicative impact of speech acts in media texts based on materials from electronic and print publications. For the analysis, Uzbekistan's leading electronic information resources — "Oyina.uz," "Qalampir.uz," "Kun.uz," and the newspaper "Jadid" — were selected. The study comparatively investigates how locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts are expressed in media texts and their communicative impact on the audience, based on the speech act theory of J. L. Austin and J. Searle.

Keywords: media text, pragmatic approach, speech acts, multimodal analysis, headline

About the author:

Atabayeva Hojarbibi Yarash qizi — First-year doctoral student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, atabayevahajarbibi@gmail.com

PIRIMQUL QODIROVNING “TIL VA EL” RISOLASIDA MILLIY O‘ZLIK VA ESTETIK TAFAKKUR TALQINI

Barno Buranova, 

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Til va el” risolasi asosida milliy o‘zlik va estetik tafakkur talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda adibning til, millat va tarixiy xotira o‘rtasidagi uzviy aloqani qanday badiiy-estetik va ilmiy-nazariy asosda talqin etgani yoritiladi. Qodirovning adabiy-estetik qarashlari, xususan, Bobur va Navoiy tiliga berilgan baholari, turkiy adabiy til taraqqiyotidagi o‘rni hamda “til yo‘qolsa — el yo‘qoladi” degan g‘oyaviy xulosasining mazmuni ochib beriladi. Risolada til millatning ruhi, ma’naviy immuniteti va tarixiy xotirasi sifatida talqin qilinishi, Shekspir, Gyote, Balzak, Tolstoy kabi ijodkorlar misolida milliy tilning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati asoslanadi. Maqolada “Til va el” risolasi nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun, balki zamonaviy o‘zbek jamiyatida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy uyg‘onish va yosh jurnalistlar til madaniyatini yuksaltirish nuqtayi nazaridan ham muhim ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Pirimqul Qodirov, estetik tafakkur, til va millat, temuriylar davri, turkiy adabiy til

Jahon adabiyotshunosligida ijodkor yashagan davrning yetakchi tamoyillari, ijtimoiy hayot hamda adabiy jarayondagi yangilanish, o‘zgarishlar muallif dunyoqarashining shakllanishida, o‘z “men”ini namoyon etishi bevosita uning adabiy-estetik qarashlarini aks ettiradi. Ayni ma’noda, adabiy-estetik qarashlar – bu ijodkorning san’at va go‘zallik haqidagi tushunchalari, shuningdek, uning asarlarida estetik ideallarni shakllantirishdagi yondashuvlardir. Bunday qarashlar muallifning inson, jamiyat, tabiat va dunyo haqidagi fikrlarini badiiy ifodalaydi. Adabiy estetik qarashlar yozuvchining ichki dunyosini, uning axloqiy va estetik prinsiplarini, zamonasi bilan bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Bu qarashlar adibning asarlarida badiiy obrazlar, personajlar, til va uslubda namoyon bo‘ladi. Shu bois muayyan ijodkorning adabiy-estetik qarashlarini tahlil qilish — bu uning asarlarida aks etgan asosiy g‘oya, insonparvarlik, tarixga e’tibor, ma’naviy-ma’rifiy yuksalish, milliy kontent masalalariga chuqur nazar tashlash, uning individual uslubiy xususiyatlarini yoritishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor adabiy-estetik qarashlarni teran tahlil qilish uchun ularning ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekstdagi o‘rniga alohida ahamiyat beriladi. Ayonki, har bir adib o‘z asarlarida nafaqat shaxsiy tajriba va his-tuyg‘ularni, balki jamiyat ongi, madaniy xotirasi va tarixiy istiqbollarni aks ettiruvchi ko‘zgudir. Binobarin, adibning estetik qarashlari nafaqat uning shaxsiy tajribasi, balki zamona ruhi, jamiyatning intellektual va ma’naviy izlanishlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois adabiy-estetik qarashlarni tahlil qilishda badiiy matnni tushunishdan tashqari muallif shaxsini, uning zamonasi bilan dialogini, insoniyatning abadiy qadriyatlari bilan bog‘liq izlanishlarga ham e’tibor berish zarur. Demak, har bir muallifning estetik izlanishlari orqali biz nafaqat uning shaxsiy dunyosiga, balki butun insoniyatning ma’naviy evolyutsiyasiga yaqinlashamiz — ayni holat yangi tafakkur tarzi sifatida dunyo adabiyotshunosligini yangi bosqichga ko‘tarayotgan asosiy omildir.

Yangi O‘zbekiston adabiyotshunosligida ham muallif adabiy-estetik qarashlarini tadqiq qilishda badiiy ijodda interdisiplinar yondashuvlar kuchayganligi sababli, tarix, falsafa, lingvistika, sotsiologiya, psixolingvistika kabi fanlar metodologiyasidan keng foydalanilmoqda va ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Adabiyotimizda Amir Temur, Gavharshod begim, shoh va shoir Bobur Mirzo va uning o‘g‘illarining shonli tarixini ham tarixiy, ham badiiy usulda talqin qilib bitilgan qissa va romanlarning mahoratli muallifi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovdir. Ayniqsa, adib ijodida “dilbar shaxs”, “Uyg‘onish davrining tipik vakili” deb yuksak e’tirof qilingan Boburning hayoti va ijodiga, uning nurli siymosiga bag‘ishlab bitgan “Yulduzli tunlar” tarixiy romani alohida o‘rin tutadi. Shu ma’noda, Pirimqul Qodirovning adabiy-estetik qarashlari mavzusidagi izlanish nafaqat adibning shaxsiy ijodini, balki o‘zbek adabiyotining yangi bosqichdagi rivoji, milliy o‘zlik va tarixiy xotira masalalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mavzunung ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarb va asosli ekanini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot ishi adabiyotshunoslik ilmining adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va badiiy tahlil asoslari singari sohalarini yangi ma’lumot

hamda ilmiy-nazariy manbalar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlanganidek, "...o'zining durdona asarlari bilan adabiyotimiz xazinasiga bebaho hissa qo'shgan, xalqimizning ma'naviy olamini, milliy g'urur-iftixorini yuksaltirish yo'lida unutilmas xizmat qilgan bu ulkan ijodkorimizning xotirasini abadiylashtirish, ijodiy merosini o'rganish, yoshlarimizga yetkazish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir" (Mirziyoyev, 2017). Ushbu vazifalarni bajarishda tadqiqot mavzusining dolzarb ahamiyatga ega ekanligi yanada yaqqolroq ko'rinadi.

O'zbek zamonaviy adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan adiblardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi, mohir tarjimon, yetuk adabiyotshunos olim, davlat va jamoat arbobi Pirimqul Qodirovdir. Muallifning "Kaftdagi quyosh", "Jon shirin", "Kayf" nomli hikoyalari, "Qadrim", "Erk", "Meros", "Yayra institutga kirmoqchi", "Akramning sarguzashtlari" qissalari, "Uch ildiz", "Qora ko'zlar", "Olmos kamar", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" (Shohruh va Gavharshod), "Amir Temur siymosi" kabi betakror roman, ilmiy badiolari xalqimiz va adabiy jamoatchiligimizga ma'lum.

Pirimqul Qodirovning adabiy-estetik qarashlarida ijodkor yondashuvi va jamiyat o'rtasidagi munosabat alohida o'rinni egallaydi. Adibning fikricha, yozuvchi jamiyat og'rig'ini, xalq dardini, tarixiy haqiqatni o'z ijodida aks ettirishi, xalqni ruhlantiruvchi kuch bo'lishi zarur. Adib 2009-yil BBCga muxbiriga bergan intervyusida shunday deydi: "Yozuvchi odamlarni kamolotga yetaklashi kerak. Yozuvchi millatning og'riqli nuqtasini aytishdan cho'chimasligi kerak. Dunyo tarixida Bobur Mirozodek va uning avlodlari, ayniqsa, Akbardek ulug' siymolar tarixda o'zi juda kam. Fransuz adibi Renan, Erenst Renan aytadiki, 'mana shu uch kishi — Bobur Mirzo, Humoyun, Akbar tarixda hech betakror shaklda birining ishini biri juda yaxshi davom etkazib ketdilar', deydi. Haqiqatdan ham, ular Hindistondan katta mamlakatni obod qilib, yuksaltirib o'tdilar. Shuning uchun, men ular haqida asar yozishga nafaqat O'zbekiston, balki Sharq xalqlari uchun ham ibratli hodisa" (Atoqli adib..., 2009).

Ayni mulohazalarda Pirimqul Qodirov asarlarida ko'rinadigan ijtimoiy mas'uliyat, milliy o'zlik va g'urur, tarixiy haqiqatga sadoqat tamoyillari aks etadi. Bitiruv loyiha ishimizning mazkur faslida biz aynan jurnalistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun adibning "Til va el" (2005) nomli risolasi haqida ma'lumot berishni joiz deb bildik. Temuriylar davri adabiy tilimiz muammolariga bag'ishlangan mazkur ilmiy badiya o'quvchiga mumtoz shoirlarimizning asarlaridagi teran ma'nolarini tushunishda yordam beradi. Tom ma'noda asarni madaniyat va milliy ruhning badiiy in'ikosi sifatida e'tirof qilish mumkin. Risolada tilimiz tarixi el tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligi teran tahlil va tadqiqatlar asosida isbotlangan. E'tirofisi, Pirimqul Qodirovning "Til va el" (2005) nomli risolasi — bu nafaqat lingvistik masalalarni muhokama qiluvchi asar, balki unda til orqali milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'naviyat va madaniyatning uzviy bog'liqligi chuqur tahlil qilinadi. Risolada Bobur Mirzo tiliga xos xususiyatlarni tahlil qilganda, uning adabiy uslubi va til tanlovi o'z davrining ijtimoiy-madaniy muhitidan, yashagan hududlarining dialektologik xususiyatlaridan va shaxsiy dunyoqarashidan kelib chiqib shakllanganini tahlil qiladi. Xususan, Navoiyning uslubida "erdi", "erdim" kabi o'sha davr kitobiy tiliga xos, grammatik jihatdan to'liq shakllar qo'llanilgan bo'lsa, Bobur bu kabi so'zlarni og'zaki nutqqa yaqin shaklda — "edi", "edim" tarzida ifodalagan. Bu esa uning tili hayotiy bo'lganini, xalqning kundalik so'zlashuv uslubiga yaqin turishini ko'rsatadi. Bobur ijodidagi bu soddalik uning kitobxon bilan bevosita va samimiy muloqotga kirishgani, Bobur tilining o'qiluvchanligi, ta'sirchanligi va tarixiy hujjat sifatida ahamiyatini oshirganidan dalolat beradi. Shuningdek, Boburning o'z tarixini, hayotini, his-tuyg'ularini soddaligi bilan yetkazishga bo'lgan intilishi uni o'ziga xos tarixnavis, shoir va adib sifatida ko'rsatadi. U tilni bezash, sun'iy murakkablashtirishdan emas, balki uni iloji boricha hayotga moslashtirish, xalqona ohangda ifoda etishga harakat qiladi. Ayni holatni risolada quyidagicha izohlaydi: "Boburning tili Navoiy tiliga nisbatan soddaroq, jonli so'zlashuv tiliga yaqin. Shuning uchun kitobiy tilda "erdi", "erdim" deb yoziladigan so'zlar qisqaroq tarzda "edi", "edim" deb yoziladi. Bu hammasi Bobur Mirzoning adabiy tilimiz sarchashmalariga vatan bo'lgan Andijonda tug'ilib o'sganligi, Toshkent va Samarqandlarda yashaganligi bilan ham bog'liq" (Qodirov, 2017).

Darhaqiqat, Farg'ona vodiysi (Andijon), shuningdek, Bobur yashagan Toshkent va Samarqand kabi turkiy tilli xalqlar yashaydigan shaharlarning lahjaviy xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Bu hududlarda xalq tili kitobiy tildan nisbatan soddaroq va jonli bo'lib, so'zlashuvda qisqa, ravon shakllar keng tarqalgan edi. Bobur aynan shu muhitda ulg'aygani bois, uning tili ham shu ruhda shakllangan. Risolada shu tariqa, Boburning adabiy tili Navoiydan farqli o'laroq soddaroq, xalq tiliga yaqinroq bo'lsa-da, u ham turkiy adabiy til taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri

ekanligi isbotlanadi. Bu ikki siymoning tildagi yondashuvi bir-birini to'ldiradi: biri tilning ilmiy-nazariy, falsafiy asoslarini chuqurlashtirgan bo'lsa, ikkinchisi esa uni hayotiy, tarixiy va xalq tiliga yaqinlashtirgan. Asarda muallif tilni millatning tirik tanasi, uning hayoti va davomiyligining asosi sifatida qaraydi. Shuning uchun quyidagicha xulosaga keladi: "Til yo'qolsa — el yo'qoladi. El yo'qolsa — til ham".

Mazkur iqtibos — risolaning markaziy g'oyasi, ya'ni til va el orasidagi dialektik bog'liqlikning o'zagi hisoblanadi. Sir emaski, elning mavjudligi bevosita uning tilining mavjudligiga bogliq. Agar millat tili yo'qolsa, elning ma'naviy markazi parchalanadi, uning ijtimoiy-tarixiy davomiyligi buziladi Adibning fikricha, til nafaqat xalqni birlashtiruvchi omil, balki u orqali xalq o'z tarixini, qadriyatlarini, iymon-e'tiqodini, dunyoqarashini saqlab qoladi. Shuning uchun yozuvchi tilga nisbatan beparvolikni, ayniqsa ziyolilar orasida, xalqparvarlikka zid holat deb hisoblaydi. Risolada adib ayniqsa o'zbek tilining mustaqillik davridagi ijtimoiy mavqei, rasmiy maqomi, hamda zamonaviy taraqqiyotda tutgan o'rni borasida jiddiy fikrlar bildiradi. Masalan:

"Til — xalqning ruhi, uni yo'qotish — butun millatni ma'naviy o'ldirish demakdir."

Adib tilni faqat o'tmish merosi emas, balki bugunning ham, kelajakning ham asosiy boyligi deb biladi. Pirmqul Qodirov fikricha, har bir ziyoli va ijodkor o'z asarlari orqali o'zbek tilining go'zalligini, ifoda imkoniyatlarini, uning betakrorligini ko'rsatishi, uni rivojlantirishi kerakligi haqida qayg'uradi: "Yozuvchi milliy tilni qo'llab-quvvatlasa, uni sevib yozsa, o'quvchi ham tilga mehr qo'yadi." Shuningdek, risolada adib adabiyot va til o'rtasidagi uzviy aloqani ham ta'kidlab, "... yuksak badiiy asarlar yuksak til madaniyatida yozilishini" tahlil qiladi. Demak, tilning ifoda qudrati kuchaysa — adabiyot, fan, ilm-fikr ham taraqqiy etadi. Ayni ma'noda, Pirmqul Qodirov til va adabiyotni milliy mafkuraning asosiy ustunlaridan biri sifatida e'tirof etadi.

Masalan, o'zbek tilidagi "vatan" so'zi faqat geografik makonni emas, balki "ona til", "xotira", "sharaf" kabi ma'nolarning sintezini anglatadi (Qodirov, 2005). Olimning fikricha, bu so'zning semantikasi o'zbek millatning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi. Asarda berilgan tahlil va yondashuvlar bevosita Pirmqul Qodirov ijodiy olamining keng ilmiy salohiyati, serqiqqa iste'dodi hamda millat taqdiri borasidagi adabiy-estetik qarashlarini aks ettiradi. Shuningdek, adib tilni millat madaniyatining yodgorlik mezon sifatida e'tirof etadi. Masalan, xalq maqollari, ertaklar, badiiy asarlar til orqali avlodlarning xotirasiga ko'chib, millatning tarixiy qiyofasini ta'minlashini Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn", Aligeri Dantening "Ilohiy komediya", Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarlariga murojaat qilish orqali izohlaydi (Qodirov, 2005). Ayni ma'noda, Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn"da turkiy tilning boyligini, unda latif g'azaliyotlaru, "Xamsa"dek muhtasham asarlar yozish mumkin ekanligini ilmiy va adabiy dalillar bilan isbotlagan bo'lsa, Dante "Ilohiy komediya"si orqali italyan adabiy tilining mustaqil taraqqiyotini boshlab berganligini, Pushkin esa "Yevgeniy Onegin" orqali rus tilining badiiy imkoniyatlarini, fransuz tilining soyasida qolishi mumkin emasligini asardagi maktub syujeti orqali tahlil qilgan. Adib bu xildagi ma'lumotlarni keltirar ekan, o'zbek tilining ham ulug' adabiyot yaratishga layoqatli, xalq ruhiyatini, tarixini va or-nomusini ifodalashda yetuk vosita ekanini ta'kidlaydi.

Mazkur fikrlarning uzviy davomi sifatida adib zamonaviy dunyoda globallashuv tahdidi ostida qolgan millat tilning o'ziga xosligini saqlash — millatning ma'naviy immunitetini mustahkamlashdan iborat ekanligi xususida to'xtaladi: "Dunyo tarixiga nazar tashlasangiz, qaysi mamlakatda milliy til davlat tiliga aylangan bo'lsa va shu tilda haqqoniy tarixiy asarlar yaratilsa, o'sha joyda taraqqiyot tezlashib borganini ko'rasiz. O'tgan asrlarda Angliya taraqqiyotini tezlashtirgan eng muhim omillar orasida ingliz adabiy tilining davlat tiliga aylangani va bu tilda Shekspir, Valter Skott kabi yozuvchilar yorqin tarixiy asarlar yozib, o'z xalqini dunyoga tanitgani alohida ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu fikrni Balzakning vatani Fransiya, Gyotening vatani Germaniya, Lev Tolstoyning vatani Rossiya haqida ham aytish mumkin" (Qodirov, 2017). Iqtibosdan ayonki, Pirmqul Qodirov milliy til — bu oddiy aloqa vositasi emas, balki tarixiy ongni saqlab qolish, xalqni yagona ruhiy-axloqiy maydonga birlashtirishda muhim vosita ekanligini nazarda tutadi. Shekspir, Gyote, Balzak, Tolstoy kabi mualliflarning o'z milliy tillarida yaratilgan asarlari orqali xalqini jahon tamadduniga tanitgani misolida, adib o'zbek adabiy tilining ham shu darajada qudratli bo'lishi zarurligini anglatadi. Ayni ma'noda, Til va el" risolasi Pirmqul Qodirovning chuqur milliy ong va tarixiy mas'uliyat asosida yozilgan ilmiy-nazariy qarashlarini mujassam etgan asaridir. Unda til — milliy tafakkur, madaniyat, tarix va g'ururning birlashgan

shakli sifatida qaraladi. Bu asar orqali Qodirov faqat yozuvchi, tilshunos olim emas, balki millat fidoyisi, ma'naviyat posboni sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa shuki, adib nafaqat tarixiy mavzuda yozilgan badiiy bitiklarida, balki ijtimoiy-siyosiy mavzuda yozilgan ilmiy-ommabop maqola, risola va badialarida ham hamisha bir nuqtani ilgari suradi — millatning qaddini tiklaydigan, uni ma'naviy jihatdan yuksaltiradigan kuch — bu adabiyot, til va tarixiy xotira birlikda harakat qilganidagina ijobiy natija yuzaga chiqadi. Ayniqsa, Boburning soddaligi, xalq tiliga yaqinligi orqali adabiy tilda tarixiy haqiqat va samimiyatni birlashtirganini isbotlaydi. Shu ma'noda, qadim Turon, Turkiston tarixini, temuriylar davrini haqqoniy aks ettirishda til va adabiyot ravnaqiga munosib hissa qo'shgan Pirmqul Qodirovning "Til va el" risolasi nafaqat badiiy-estetik, balki g'oyaviy-ma'naviy, falsafiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqning madaniy xotirasini, o'zligini va ruhiyatini asrab qolish vositasi sifatida milliy tilga e'tiborni kuchaytirishga chorlaydi. Shu asosda, adibning qarashlari nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Tom ma'noda asarni madaniyat va milliy ruhning badiiy in'ikosi sifatida baholash mumkin. "Til va el" risolasi Pirmqul Qodirovning nafaqat tarixiy manbalarga tayangan ilmiy izlanish mahsuli, balki o'zbek milliy o'zligini anglashga, ma'naviy uyg'onish g'oyalarini mustahkamlashga qaratilgan estetik-axloqiy qarashlar majmuasidir. Asarda muallif temuriylar davrida shakllangan adabiy til, uning ijtimoiy-madaniy hayotdagi roli, mumtoz ijodkorlarning tilga bo'lgan yuksak munosabati, millat taqdiridagi tilning qadr-qimmatini masalalarini teran tahlil qiladi.

Pirmqul Qodirov risolada tilning nafaqat aloqa vositasi, balki millatning ruhi, tarixiy xotirasi va ma'naviy tamal toshi ekanini qat'iy ta'kidlaydi. Uning fikricha, tilning boyligi — xalqning boyligi, tilning pokligi — xalqning ma'naviy pokligi, tilning qudrati esa millatning uyg'oq tafakkuri bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois muallif o'z asarida o'zbek tilining qadimgi ildizlari, mumtoz adabiyotda qo'llangan nozik ma'nolar, so'zning ruhiy-estetik yukini ochib berishga alohida e'tibor qaratadi. Risolada temuriylar davri adabiy tili o'zining yuksak taraqqiyoti, badiiy ma'nolarning chuqurligi, ruhiy-estetik qudrati bilan ajralib turishi qayd etiladi. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro, Gulbadanbegim kabi ijodkorlar asarlari misolida tilning jamiyatni birlashtiruvchi, milliy g'oyani shakllantiruvchi kuch ekanligi ochib beriladi. Muallif bu jarayonni "millat qalbining uyg'onishi" sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan "Til va el" risolasi faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik doirasidagi tadqiqot emas, balki ma'naviy-ma'rifiy manifest, millatning o'zligini anglashga da'vat sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Pirmqul Qodirovning mazkur risoladagi yana bir muhim jihati shundaki, u tilni tarixiy kontekstda tahlil qilar ekan, o'quvchini o'z milliy merosiga hurmat bilan qarashga, tilning teran qatlamlarini anglashga, mumtoz matnlarni asl ruhida his etishga chorlaydi. Asar ayniqsa, jurnalistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki jurnalistning nutqi — jamiyat madaniyatining ko'zgusi, tilning pokligini saqlash, ma'no aniqligi, ifoda ravonligi esa jurnalistning asosiy mas'uliyatlaridan biridir. "Til va el" risolasi yosh ijodkorlarda badiiy fikrni teran anglash, milliy tildan ongli foydalanish, adabiy merosdan samarali ilhomlanish kabilarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Atoqli adib Pirmqul Qodirov Bi-bi—bi-si mehmoni. (2009). URL: https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2009/01/090105_talking_point_pirmqul_qodirov (Murojaat sanasi: 17.09.2025).

Mirziyoyev Sh.M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston. B. 46. URL: <https://e-library.sammu.uz/ru/book/976> (Murojaat sanasi: 17.10.2025).

Qodirov, P. Til va el. Ilmiy badia. —T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005-y. — 248-b URL: <https://n.ziyouz.com/books/publitsistika/Pirmqul%20Qodirov.%20Til%20va%20el.pdf> (Murojaat sanasi: 17.10.2025).

Qodirov, P. (2017). Xalq tilining qudrati. URL: <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/pirmqul-qodirov-xalq-tilining-qudrati/> (Murojaat sanasi: 17.10.2025).

Muallif haqida:

Buranova Barno Menglibayevna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, buranovabarno17180915@gmail.ru

INTERPRETATION OF NATIONAL IDENTITY AND AESTHETIC THINKING IN PIRIMQUL QODIROV'S TREATISE "LANGUAGE AND PEOPLE"

Barno Buranova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the interpretation of national identity and aesthetic thinking based on the treatise "Language and People" by People's Writer of Uzbekistan Pirimqul Qodirov. The study highlights how the writer interprets the organic connection between language, nation, and historical memory on artistic-aesthetic and scientific-theoretical grounds. Qodirov's literary and aesthetic views are explored, particularly his evaluations of Babur's and Navoi's language, his role in the development of the Turkic literary language, and the content of his ideological conclusion that "if the language is lost, the people will be lost." The treatise interprets language as the spirit, spiritual immunity, and historical memory of a nation, and substantiates the strategic importance of national language in the development of state and society, using examples of creators such as Shakespeare, Goethe, Balzac, and Tolstoy. The article assesses «Language and People» as an important spiritual and educational resource not only for linguistics and literary studies but also for fostering national self-awareness, spiritual awakening, and enhancing the language culture of young journalists in modern Uzbek society.

Keywords: Pirimqul Qodirov, aesthetic thinking, language and nation, Timurid era, Turkic literary language

About the author:

Buranova Barno Menglibayevna — Associate Professor at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, buranovabarno17180915@gmail.ru

SIYARNOMALARDAGI NAZM NAMUNALARI BADIYYATI

Tozagul Dusanova
Renessans ta'lim universiteti

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm ham g'oyaviy, ham badiiy, ham uslubiy jihatdan uzviy bog'liq holatda qo'llanishi, kichik she'riy janrlar nasriy bayonda ma'lum maqsadlarda fikrni dalillash va ta'kidlash uchun xizmat qilganligi ta'kidlangan. "Tarixi anbiyo va hukamo" va "Tarixi muluki Ajam" asarlaridagi nasriy matnlar tarkibida kelgan nazmiy matnlar tahlil qilingan. She'riy parchalarning qofiya tizimi, badiiyati va asardagi o'rni haqidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, she'r, nasr va nazm, ruboiy, she'riy san'at

Navoiy ijodida nasr va nazm ham g'oyaviy, ham badiiy, ham uslubiy jihatdan uzviy bog'liq holatda qo'llanadi. Kichik she'riy janrlar nasriy bayonda ma'lum maqsadlarda fikrni dalillash va ta'kidlash uchun xizmat qilgan.

Navoiyning siyarnomalarida she'riy parchalar nasriy bayonda ifodalangan fikrni xulosalash, yakunlash, muallifning mazkur asarlaridagi g'oyaviy niyatini yanada bo'rttirib, emotsional ta'sirchanlikni oshirish uchun qo'llangan. Masalan, "Tarixi anbiyo va hukamo"da "As'hobi kahf" voqeasi genezisi quyidagicha gavdalanadi: "As'hobi kahf va ba'zi mutafarriq axbor. As'hobi kahf bobida ixtilof ko'ptur. Muxtasari budurkim, Yunon mulkida Afsus shahrida Daqyonus otlig' maliki jabbor bor ermishkim, ba'zi debdurlarkim, butparast ermish, ba'zi debdurlarkim, uluhiyyat da'vosi qilur ermish. Va bu as'hobi kahf, ba'zi rivoyat bila aning mulkning buzrugzodalari va ba'zi rivoyat bila, navvob va mulozimlari ermishlar va musulmon ekandurlar. Va yoshurun Tengri taolo ibodatini qilur ermishlar. Daqyonus bu holdin voqif bo'lub, alarning qatli fikrida bo'lmish. Alar bu holni ma'lum qilib, ittifoq bila shahrlaridin qochib, el yo'luqur vahmidin yo'lsiz biyobong'a tushub, bir qo'ychig'a uchrab, qo'ychi dag'i alarg'a qo'shulub, qo'ychining iti ham erishib, Raqim otlig' g'org'a kirmishlar. Va alarning adadida taraddud bor, nachukkim "Kalomi majid" xabar berurkim, "Sayaquluna salosatun robium kalbuhum va yaquluna xamsatun sodisuhum kalbuho'm rajman bilg'aybi va yaquluna sab'atun va sominuhum kalbuhum" ("Al-Kahf" surasi, 22-oyat) l. Har taqdir bila g'org'a kirib, Haq taolo uyquni alarg'a mustavliy qilib, alar uch yuz to'quz yil uyumishlar. "Salosa miatin siniyna vazdodu tis'an". Bu muddatda Daqyonus jahannamg'a borib, necha podshoh gardish bo'lub, bir xudoparast odil podshohg'a saltanat yetkondakim, as'hobi kahf Tengri taolo amri bila uyg'onmishlar ..." (Navoiy, 2011).

Ruboiy:

Kahf ahlig'a yuzlandi adu qayg'usi,

Bo'ldilar agarchi g'orning mahbusi.

Chun ko'zlari erdi uyquning mamlusi,

Ham oqibat etti adam ul uyqusi (Navoiy, 2011).

Navoiy voqea xususida nasriy matnda Qur'on oyatlaridan iqtiboslar keltirib, ruboiyda esa "Kahf", "Yunus" va "Maryam" suralarida keltirilgan bashariyatning dinsizlikka qarshi kurash g'amini Daqyonus uqubati hamda yahudiy va nasroniy qavmi Iso xususida ixtilof qilganliklari haqidagi ma'lumotlar mohiyatini xalqona sodda tilda ifodalaydi.

"Arab ilohiyotshunosligida "Ilm us-siyar" degan atama bor. Payg'ambarlar, avliyolar va shu kabi ulug' siymolar hayot yo'liga doir asarlar ana shu ilm orqali o'rganiladi. Buyuk mutafakkirning 1485–1489 yillar orasida yozib tugallangan "Tarixi anbiyo va hukamo" asari siyarnomalar ichida alohida ajralib turadi. Asarning payg'ambarlarga doir qismining asosiy o'ziga xosligi har bir nabiy qissasidan keyin nazmiy xulosa berib borilganida ko'rinadi. Bu xulosa kim bo'lmasin, hatto payg'ambarlik darajasiga yetsa-da, inson hayotining o'tkinchiligi bilan bog'liq falsafiy fikrning yuksak badiiyat bilan ifodalangani jihatidan xarakterlanadi" (Jabborov, 2021).

Alisher Navoiy rejalashtirgan "Zubdat ut-tavorix" nomli umumiy tarix qo'llanmasining tarkibiy qismlari bo'lgan "Tarixi anbiyo va hukamo" hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlari Navoiy ilmiy-badiiy nasrining yorqin namunalaridir. Bu asarlar yaxlit yozilishi mo'ljallanganligi uchun ular tarkibidagi she'riy parchalar ham bir qator umumiy xususiyatlarga ega.

Xullas, "Tarixi anbiyo va hukamo"ning anbiyolar zikri qismida bayt, ruboiy va to'rt

misralik qit'alar u yoki bu syujet – qissaning yakunida berilgan. Masalan, Sulaymon payg'ambar hamda Luqmoni hakim haqidagi qissadan so'ng quyidagi ruboiylar keltirilgan:

1) *Olamni Sulaymong'a Haq etmish ma'mur,*

Hukmi soldi jinu bashar xaylig'a sho'r,

Oxir chu ajal anga maqom ayladi go'r,

Tufroq ichida qildi vatan uylaki mo'r.

2) *Luqmonniki, ba'zi dedilar payg'ambar,*

Ba'zi dedilar hakimi pokiza siyar.

Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar,

Ming muncha ham o'lsa, qilg'uluqdur bu saqar (Navoiy, 2011).

Bu ruboiylarda so'z yuritilayotgan payg'ambar (hakim)larning xislat va fazilatlarini muhtasir shaklda bayon etilgach, o'limning haqiqatdan ham mavjudligi eslatilib, har bir inson oxiratinini o'ylab yashashi, umrni besamar o'tkazmasligi kerak degan g'oya ta'kidlanadi.

Asarning uchinchi qismi hakimlar haqida bo'lib, bu qismda Luqmoni hakim, Jomosh, Buqrot, Suqrot, Jolinus va boshqa donishmandlarning turli masalaga oid hikmatlari keltiriladi va ularning mazmuni baytlarda ta'sirchan tarzda ifodalanadi. Jumladan, Balinosga nisbatan beriladigan quyidagi hikmat: "Podshoh kerakkim, borchha eldin nima olg'ay, ammo e'tidol bila, to mulk barqaror bo'lg'ay. Yo'qki, borchag'a nima bergay bee'tidolliq bila, to mulk buzulg'ay" keltiriladi va uning ma'nosi quyidagi baytda nazmiy yo'lda ochib beriladi:

Chu shah oz olsa bo'lg'ay mulk obod,

Chu ko'b berdi, bo'lur yuz mulk barbod, (Navoiy, 2011).

Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarini No'shiravoni odilning vaziri Buzurjmehr hakimning zikri bilan yakunlaydi va quyidagi hikmatni keltirgan: "Ustodimdin so'rdimkim, yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig'da ne qilmoq yaxshi? Dedikim, -yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig'da ani amalga kelturmak yaxshidir". Hikmatning mazmuni quyidagi baytda she'riy yo'lda xulosalanadi:

Yigitlig'da yig'ilmning maxzani,

Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani (Navoiy, 2011).

"Tarixi anbiyo va hukamo"dagi nazmiy parchalar Navoiyning hayotiy xulosalari, donishmandlar hikmati asosida yuzaga kelgan falsafiy-axloqiy va didaktik mazmundagi ruboiy va qit'a, masnaviy, bayt, nazm va she'rlardan iboratdir. Shu bilan birga, ularning ayrimlari bevosita Alisher Navoiy ijodiga mansub bo'lsa, ayrimlari mashhur hikmatning Navoiy tomonidan nazmlantirilgan she'riy bayonidir. "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida jami 160 misra nazmiy matn keltirilgan. Asarda keltirilgan 53 ta nazmiy matndan 19 tasi ruboiy, 1 tasi masnaviy, 2 tasi she'r deb nomlansa-da, qit'a kabi juft misralari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan, qolgan 29 tasi she'r, 1 tasi bayt va 1 tasi nazm deb nomlangan.

1488-yilda "Tarixi muluki Ajam" ("Ajam shohlari tarixi") asari yaratilgan. Bu asar tarkibida ellikdan ortiq she'riy matnlar mavjud. Jumladan, Iskandar ta'rifidagi sakkiz baytlik masnaviy nasriy matndagi fikrlarga hamohang tarzda bitilgan va mazmunni yanada boyitgan. Masnaviydagi misralar o'zaro qofiyalangan va talmih san'ati bilan ziynatlangan:

Skandarki fath ayladi bahru bar,

Kirib taxti farmonig'a xushku tar.

Yetishti Zuhul avjig'a rif'ati,

Chalindi falak toqig'a navbati.

Valoyat bila hikmatu shohlig',

Nubuvvat ishidan ham ogohlig'.

Gahi Saddi Ya'juj qism aylabon,

Gahi yuz ajoyib tilsim aylabon.... (Navoiy, 2011).

Asar so'ngida keltirilgan Husayn Boyqaro madhidagi masnaviy yana ham diqqatga sazovordir. 100 misralik masnaviyning boshlanishi va oxiri quyidagicha:

Agar Yazdijird o'lsun ar Shahriyor,

Vagar Bahman o'lsun, gar Isfandiyor...

Qiyomatqacha hashmating mustadom,

Saloming qilib shohlar vassalom (Navoiy, 2011).

Masnaviyda Navoiyning Sulton Husayn va uning ajdodlari tarixini bitish niyati borligi o'z ifodasini topgan.

"Tarixi muluki Ajam"da jami 51 ta nazmiy matn keltirilgan. Shulardan 2 tasi masnaviy, 49

tasi she'r deb berilgan. She'rlarning aksariyati 4 misralik, ayrimlari 2 misradan iborat.

Navoiyning nasriy asarlaridagi she'riy matnlarning badiiyatini tadqiq qilishda dastavval uning mazmuni va g'oyasiga e'tibor qaratish lozimdir, negaki ijodkorning qalbidagi og'riq va tashvishlar, orzu va maqsadlar she'riy matnlarda badiiy shaklda o'z ifodasini topadi. "Tarixi muluki Ajam" tarkibidagi nazmiy matnlarning eng muhim badiiy qimmati shundaki, Navoiy zamona hukmdori Sulton Husayn Boyqaro, uning farzandlari hamda davlat rahbarlariga pand-nasihatlarini she'riy yo'lda aks ettirgan. Donishmand shoir payg'ambarlar, shohlar qismati va taqdirini namuna sifatida keltirib, zamondoshlarini ogohlikka chorlaydi.

Navoiyga xos badiiy mahoratni nasriy asarlardagi nazmiy matnlarda qo'llanilgan mumtoz badiiy san'atlarning mohirona ishlatilganligida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, asarda peshdodiylar tabaqasidan Zahhok binni Marodis haqidagi ma'lumotlardan so'ng quyidagi 4 misralik she'r keltiriladi:

*Falak to erur zulm qilmoqqa xos,
Emas zolimu odil andin xalos.
Qilib qatl Zahhokni to'ymadi,
Faridunni dag'i quruq qo'ymadi* (Navoiy, 2011).

She'r a-a, b-b tarzida qo'fiyalangan. Birinchi baytda zulm, zolim so'zlari asosdosh bo'lib ishtiyoq san'atini, zulm va odil so'zlari tazod san'atini, Falak, zulm, zolim, qatl so'zlari bir-birini taqozo qilgani uchun tanosib san'atini, Zahhok va Faridun nomlari keltirilib talmih san'atini yuzaga keltirgan.

Shoirning nasriy asarlarida badiiy xulosa sifatida kelgan nazmiy matnlar muallif g'oyaviy maqsadini yanada ta'sirchanroq, yanada yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan. She'riy parchalarning ko'pchiligi to'rtlik shaklida bo'lib, go'zal badiiy san'atlar uyg'unligida asarlarning o'ziga xos jozibadorligini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Ayniqsa, asarlarning g'oyaviy mazmuni ulardagi she'riy parchalarda qofiya san'atlari, unsurlarining ishlatishi natijasida yanada ta'sirchan ifodalangan. Qofiya misralarning musiqiylikini, ohangdoshligini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Navoiy, A. (2011). Tarixi anbiyo va hukamo (Jild 8). Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi NMIU. 593 b. URL: https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Tarixi%20anbiyo%20va%20hukamo.pdf (Murojaat sanasi: 16.10.2025).

Navoiy, A. (2011). Tarixi muluki Ajam (Jild 8). Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi NMIU. 619-b. URL: <https://books.yandex.uz/books/cGL4jCM4> (Murojaat sanasi: 16.10.2025).

Mansur, A. A. (2021). Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent: Munir nashriyoti. 412-b. URL: <https://munir.uz/books/quroni-karim-manolarining-tarjima-va-tafsiri-1> (Murojaat sanasi: 16.10.2025).

Jabborov, N. (2021). Maoniy ahlining sohibqironi. Toshkent: Adabiyot. 34-bet

Muallif haqida:

Dusanova Tozagul — Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD),
tozagul.dusanova@gmail.com

ARTISTRY OF POETIC EXAMPLES IN BIOGRAPHICAL WORKS

Tozagul Dusanova,
Renaissance Education University

Abstract: The article emphasizes that in Alisher Navoi's works, prose and poetry are used in an inseparable connection, both ideologically, artistically, and stylistically, and that small poetic genres serve to substantiate and emphasize ideas in prose narration for specific purposes. The poetic texts incorporated within the prose texts of the works "Tarixi anbiyo va hukamo" (History of Prophets and Sages) and "Tarixi muluki Ajam" (History of Persian Kings) have been analyzed. Reflections on the rhyme system, artistry, and role of poetic fragments in these works are provided.

Keywords: Alisher Navoi, poetry, prose and verse, rubai, poetic art

About the author:

Dusanova Tozagul — Associate Professor at Renaissance Education University, Ph.D. in Philology, tozagul.dusanova@gmail.com

Z AVLODNING MEDIADAGI XULQ-ATVORI VA MAZKUR AVLODGA YONDASHUV

Feruza Ergasheva, 
Tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli texnologiyalar zamonida ulgʻaygan va koʻp vaqtini internet, ijtimoiy tarmoqlar hamda virtual olamda oʻtkazayotgan yoshlar—Z avlod vakillari haqida soʻz yuritiladi. Ularning mediadagi xulq-atvori va ommaviy axborot vositalarining bu auditoriyaga axborot yetkazishidagi kamchiliklari tahlil qilinadi. Z avlodning mediadagi faoliyatini ilmiy nuqtai nazardan oʻrganish muhimligi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: Z avlod, axborot isteʼmoli, raqamli texnologiyalar, OAV

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning keng qoʻllanilishi va axborot oqimining tezlashuvi yoshlarning media xulq-atvorini tubdan oʻzgartirdi. Ayni vaqtda medianing eng faol foydalanuvchilari boʻlmish Z avlod vakillari informatsion ehtiyojlar, kontent tanlovi va kommunikatsiya uslublariga koʻra boshqa (X va Y) avlodlardan sezilarli farq qiladi. Shu bois Z avlodning mediadagi faolligini ilmiy nuqtai nazardan oʻrganish darkor.

Z avlod (1997-yildan 2012-yilgacha tugʻilgan yoshlar) ayni vaqtda dunyo aholisining 25 foizini tashkil etmoqda. Bu avlod “Z” yoki “Gen-Z” baʼzi manbalarda “zummerlar” yoki “raqamli avlod” deb ham ataladi (Lopez & Abadiano, 2023). Bu yoshlar auditoriyasi uchun asosiy axborot manbalari sifatida ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar – xususan, YouTube, TikTok, Instagram, WhatsApp, Telegram kabi manbalar koʻriladi. Z avlod vakillari tezkor, qisqa, vizual va interaktiv kontentlarni afzal koʻrishadi. Ularning axborot isteʼmoli koʻpincha individual qiziqishlarga asoslangan boʻladi. Ular oʻz fikrlarini texnologiya va internet orqali jahon miqyosida tez va oson yetkaza oladi. Yoshlar internetda kontent yaratish, video bloglar (vlog) yoki ijtimoiy tarmoqda media mahsulotlarini ishlab chiqarishda faol va buning natijasi oʻlaroq ular yaratgan kontentlar ommalashib, global miqyosda tengdoshlariga tez va oson yetib bormoqda. Oqibatda bu faollik Z avlodga nisbatan turlicha yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Ayrimlar ularning raqamli savodxonligi va kreativ fikrlashini ijobiy baholasa, boshqalar “virtual hayotga haddan ortiq berilib ketganlar” yoki “qadriyatlarini mensimaydiganlar” deb tanqid qilishadi. Shunga qaramay, 2020 yilda oʻtkazilgan tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda barcha isteʼmolchilarning 40 foizini toʻlov qobiliyatiga ega boʻlib borayotgan Z avlod vakillari tashkil etishi isbotlangan (Global..., 2020). Bu esa barcha ommaviy axborot vositalari hozirdanoq “zummerlar” kimligi, ular qanday kontentni isteʼmol qilishlari, qaysi platformalarda faol ekanliklari, nimalar ularning eʼtiborini tortishi va qanday media-odatlarga ega ekanliklarini chuqur oʻrganishlari lozimligidan darak bermoqda. Quyida bu borada D.Vyuginaning (2017) tadqiqotidagi ayrim bandlariga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Z avlod uchun smartfon asosiy qurilma hisoblanadi, chunki kishi uni doim oʻzi bilan birga olib yurishi mumkin, yaʼni qulay va ixcham, qolaversa, boshqa mediakanallardan foydalanishda makon va vaqt tanlamaydi. Doimo aloqada boʻlish va boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyati Z avlod uchun muhim omil. Bir vaqtning oʻzida bir nechta vazifani bajara oladigan smartfonlar Z avlodagi oʻziga xos jihat — koʻp vazifalilik xususiyatini (multitasking) taʼminlaydi. Darvoqe, koʻp vazifalilik Z avlod tafakkuriga bogʻliq yangi hislat boʻlib, smartfon yordamida ular bir nechta manbadan parallel axborot ololadi. D.Vyugina (2017) tadqiqotiga koʻra, yosh avlod koʻp ekranli axborot isteʼmoli (multi-screen consumption) hodisasini yorqin namoyon etmoqda. Bu avlod uchun axborotni taqdim etish uslubi nihoyatda muhim: u qisqa, loʻnda, yorqin va ayni vaqtda vizual materiallar bilan boyitilgan boʻlishi kerak. Eʼtibor masalasida zummerlarda qator kamchiliklar mavjud. Kontent oʻziga tortuvchi, diqqatni ushlab turuvchi boʻlmasa, ular boshqa kanallardan kelayotgan uzluksiz va chalgʻituvchi axborot oqimiga oson chalgʻib ketadi. Axborotni qisqa formatlarda qabul qiishni yoqtiradigan Z avlod vakillari tez va “yengil hazm” boʻladigan kontentlarni afzal koʻradi. Masalan, TikTok videolari (15–50 soniyali kulgili, trend yoki oʻrgatuvchi roliklar) yoki Instagramdagi Reels (30–80 soniyali videolar), Instagram Stories, Snapchat stories (24 soatdan keyin oʻchib ketadigan qisqa videolar yoki suratlar), YouTube Shorts (1 daqiqagacha boʻlgan tezkor, qiziqarli kliplar)ning rivojlanib borayotgani ham bu avlodning qisqa axborotga moyilligidan darak. Podkastlar yoki ovoqli klip va filmlarning tobora tezlashib, soniyalik koʻrinish kasb etayotgani ham yuqoridagi talabga javoban yuzaga

kelayotgan taklif deyish mumkin. Shunga qaramay, Z avlodda X yoki Y avlodga nisbatan ijtimoiy masalalar, ayniqsa, ekologik muammolarga nisbatan o'z pozitsiyasini bildirishda yakdillik bor, yoshlar bunda ancha dadil. Misoli uchun Greta Thunberg va uning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishdagi faoliyatini olaylik. Yoshlarni ekologik muammolarni bartaraf etish yo'lida birlashtira olgan Greta Thunberg bir qancha namoyishlar tashkil etib, o'z fikrlari va maqsadlarini keng auditoriyaga yetkaza oldi (Thunberg, 2019). Bu esa Z avlod hayotning barcha sohalarda (ishda, yashash joyida hatto o'zini ifoda etishda ham) erkinlik va xilma-xillik izlashining yana bir tasdig'idir. Shu bilan bir vaqtda zummerlar ish va kar'era masalasida yuzaki munosabatda. Deylik, yangi mashg'ulotdan charchagan yoki unga qiziqishi yo'qolgan paytda hozirgi yoshlar katta avlod vakilari kabi sadoqatli bo'la olishmaydi. Zamonaviy o'smirlar ish joyi yoki kasbini, hatto sevimli mashg'ulotini ham oson almashtiradi va bunda muvaffaqiyatsizlikdan cho'chishmaydi. Ya'ni Z avlod muayyan masalalarda o'z ustuvorliklarini to'g'ri baholay oladi va yangi bilimlarni o'zlashtirish masalasida doim ochiq. Demak, Z avlodning mediadagi xulq-atvorini tahlil qilish va axborotga bo'lgan talablarini o'rganishda ularning ijtimoiy xususiyatlari bilan bir qatorda, media iste'molchi sifatidagi xohishlarini ham ko'rib chiqish muhim. Quyida ularni umumlashtirgan holda bayon etamiz.

Birinchidan, Z avlod qisqa va tezkor axborotni afzal ko'rgani sabab aksariyat yoshlar yangiliklarni o'qish o'rniga TikTok'dagi videolar yoki Instagram Reels orqali 30-40 soniyalik media mahsulotlardan foydalanishadi. Ular uchun axborotning qisqa va jozibador ekani muhim.

Ikkinchidan, bugungi yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar asosiy axborot manbai hisoblanadi. Televideniye yoki radiokanal yoki gazeta-jurnallar o'rniga Telegram kanallarini kuzatishadi. O'zbekistonda "Daryo.uz", "Kun.uz", "Gazeta.uz", "Pressa.uz", "Bugun.uz" kabi bir necha platformalar axborot tarqatuvchi manbalarga aylangan.

Uchinchidan, Z avlod vakillari media sohasida interfaollikni tanlaydi. Masalan, biror voqea-hodisa yoki yangilikka nisbatan o'z fikrini yozish, layk bosish yoki "challenge"larda ishtirok etish... Avvalgiday faqat OAV tomonidan bir taraflama axborot berish yoki munosabat bildirish yoshlarni umuman qoniqtirmaydi.

To'rtinchidan, Z avlod ijtimoiy mas'uliyat va qadriyatlarga e'tibor bermoqda. Masalan, agar biror korxona yoki shaxs davlat tilini mensimasa yohud ayollar huquqini toptasa, balki atrof-muhitga qandaydir zarar yetkazsa, yoshlar uni ijtimoiy tarmoqlarda tanqid qilib, boykot e'lon qilishi mumkin. (Aktivist va "Bon" o'rtasidagi mojaro misolida) Bu holat global miqyosda ham ko'p kuzatiladi.

Beshinchidan, yoshlarda shaxsiylashtirilgan kontentga ehtiyoj nihoyatda yuqori. Bunda YouTube, Netflix yoki Google kabi platformalarning tavsiya algoritmlari asosida har bir shaxs qiziqishiga mos video, film yoki musiqa taklif qilishini misol keltirish mumkin. Bunday shaxsiylashtirilgan axborot vaqtini tejagani bois yoshlarga ko'proq ma'qul keladi.

Kanadalik olim D. Tapskott fikriga ko'ra (2009), ushbu talab va xohishlar Z avlodning shaxsiy hayotida, o'zaro muloqotida, turmush tarzida, hatto qiziqishlarida ham o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy OAV Z avlod haqidagi yondashuvni qayta ko'rib chiqishi, ularning o'ziga xosligi, erkin fikrlashi va ijtimoiy faolligini hisobga olishi hamda madaniy qadriyatlarini chuqurroq yoritishga intilishi lozim. Ayni vaqtda ayrim OAVda Z avlodning o'ziga xosligini tan olmaslik yoki ularning talablariga befarq bo'lish ko'zga tashlanadi. Quyida O'zbekiston misolida mahalliy OAVda kuzatilayotgan bir necha holatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, Raqamli texnologiyalar davrida axborot iste'moli odatlari ancha o'zgardi. Ayniqsa, Z avlod yangiliklarni gazeta yoki televideniya orqali emas, balki internet va ijtimoiy tarmoqlardan oladi. Shu sababli OAV axborotni shu kanallarda tezkor, qisqa va vizual shaklda taqdim etishi zarur.

Ikkinchidan, bugungi media iste'molchida e'tiborning davomiyligi qisqarib bormoqda. Ayniqsa, Z avlod uzun matnlarga sabr qilmaydi, ular "headline", "short video" va "infografika"lar orqali ma'lumot olishni yoqtiradi. Jurnalistlar shu formatlarga moslashmasa, ularning kontenti e'tiborsiz qoladi.

Uchinchidan, yoshlar faqat tomoshabin bo'lishni xohlamaydi, balki fikr bildiruvchi, kontent yaratuvchi va bahsda qatnashuvchi bo'lishni istaydi. Shuning uchun jurnalistika endi bir yoqlama axborot berishdan ko'ra, interaktiv muloqotga asoslanishi lozim.

To'rtinchidan, ijtimoiy mas'uliyat va qadriyatlarga e'tibor ortdi. Jamiyatda adolat, ekologiya, inson huquqlari, gender tengligi kabi masalalarda jurnalist faol bo'lishi kerak.

Beshinchidan, sun'iy intellekt, algoritmlar, AR/VR, podkastlar — bular Z avlod uchun

odatiy bo‘lib aslo yangilik emas. Jurnalistlar esa shu texnologiyalarni o‘z ishida qo‘llab, interaktiv, raqamli va shaxsiylashtirilgan axborot yetkazish tuzumini yaratishi kerak.

Z avlod — bu raqamli dunyoda ulg‘aygan, tezkor va tanqidiy fikrlovchi auditoriyadir. Agar jurnalistika bu avlodning tilida gapirmasa, u o‘z auditoriyasini yo‘qotadi. Shu bois, zamonaviy OAV yoshlarning media odatlari, qadriyatlari va texnologik ehtiyojlariga moslashishi zarurat, aslo tanlov emas. “Raqamli avlod” ning mediadagi xulq-atvorini ilmiy tahlil qilish, ularning media ehtiyojlari va madaniyatini o‘rganish bugunning dolzarb masaladir. Z avlodga shunchaki auditoriya sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning faol subyekti sifatida qarash har qaysi OAV faoliyati uchun manfaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Global Consumer Insights Survey 2020. (2020). PwC Spain. URL: <https://www.pwc.es/es/retail-consumo/assets/informe-pwc-consumer-insights-survey-2020.pdf> (Date of Application: 18.10.2025).

Lopez, E. N. B., Lopez, B., & Abadiano, M. (2023). Understanding Generation Z: The new generation of learners – A technological-motivational-learning theory. Journal of Harbin Engineering University, 44(10). URL: <https://bit.ly/4oZjKTV> (Date of Application: 18.10.2025).

Tapscott, D. (2009). Grown up digital: How the net generation is changing your world. McGraw-Hill. URL: [http://socium.ge/downloads/komunikaciisteoria/eng/Grown_Up_Digital_-_How_the_Net_Generation_Is_Changing_Your_World_\(Don_Tapscott\).pdf](http://socium.ge/downloads/komunikaciisteoria/eng/Grown_Up_Digital_-_How_the_Net_Generation_Is_Changing_Your_World_(Don_Tapscott).pdf) (Date of Application: 18.10.2025).

Thunberg, G. (2019, September 23). You are failing us: Greta Thunberg tells world leaders about climate crisis at UN summit [Speech]. United Nations Climate Action Summit. URL: <https://time.com/5684216/greta-thunberg-un-climate-action-summit-climate-speech/> (Date of Application: 18.10.2025).

Вьюгина, Д. М. (2017). Особенности медиапотребления цифрового поколения России. Медиаскоп, (4). URL: <http://www.mediascope.ru/2386> (Дата обращения: 26.10.2025).

Muallif haqida:

Ergasheva Feruza Raimjon qizi — tadqiqotchi, feruza.raimjonovna86@gmail.com

MEDIA BEHAVIOR OF GENERATION Z AND APPROACHES TO THIS GENERATION

Feruza Ergasheva,
Researcher

Abstract: This thesis discusses representatives of Generation Z — young people who have grown up in the era of digital technologies and spend much of their time on the Internet, social networks, and in the virtual world. Their behavior in media and the shortcomings of mass media in conveying information to this audience are analyzed. The importance of studying Generation Z’s media activities from a scientific perspective is substantiated.

Keywords: Generation Z, information consumption, digital technologies, mass media

About the author:

Ergasheva Feruza Raimjonovna — researcher, feruza.raimjonovna86@gmail.com

SAYDI UMIROV FENOMENI: ADABIY TANQID, PUBLITSISTIKA VA MILLIY TAFAKKUR UYG'UNLIGI

Zulfiya Fayzullaeva,^{ID}

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saydi Umirovning ijodiy merosi adabiy tanqid va publitsistika oralig'idagi noyob hodisa sifatida tahlil qilinadi. Olimning o'zbek adabiyoti, ayniqsa Chingiz Aytmatov, Abdulla Qahhor, Ozod Sharafiddinov kabi ijodkorlar haqidagi kuzatishlari, ularning estetik olamini tahlil etish uslubi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Umirovning jadidchilik va ma'naviy uyg'onish g'oyalari bilan bog'liq ilmiy ishlari ham tahlil qilinadi. Muallifning asarlarida adabiyot, inson va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqa estetik va falsafiy nuqtai nazardan talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Saydi Umirov, publitsistika, tanqid, milliy tafakkur, adabiy meros

Saydi Umirov o'zbek madaniy hayotida nafaqat jurnalist va publitsist, balki adabiyotshunos olim sifatida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning tanqidchilik faoliyati o'zbek adabiyotidagi yirik namoyandalar ijodini tahlil etish, zamonaviy ijodkorlar haqida ilmiy-estetik fikr bildirish hamda Chingiz Aytmatov asarlari asosida milliy va umuminsoniy g'oyalarni sharhlash yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Umirovning adabiy qarashlari ijtimoiy-axloqiy masalalar va estetik prinsiplarga tayangan holda shakllangan. Olim uchun adabiy tanqid — bu nafaqat tahlil vositasi, balki jamiyat, shaxs va davr o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashning muhim shaklidir. U haqiqiy tanqid ijodkor bilan o'quvchi o'rtasida ma'naviy ko'priklarni bo'lib xizmat qilishi, asarning badiiy va estetik mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishi lozim, deb hisoblaydi. Shuningdek, yozuvchi shaxsiyatini ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'lab, adabiyotni ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuch sifatida talqin etadi.

Umirovning ilk tadqiqotlari Abdulla Qahhor ijodi bilan bog'liq bo'lib, unda u “detal” masalasini adabiy tahlilning markaziy unsuri sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, har bir badiiy asar o'ziga xos “hujayralar”dan — mayda detallar va tafsilotlardan tarkib topadi. Ana shu detallar orqali yozuvchi asarning asosiy g'oyasini ifodalaydi va ijtimoiy ruhiyatni yoritadi. Qahhor realizmining kuchi aynan shu nozik ifoda vositalarida — bolakayning kiyimi, ayol nigohidagi xavotir yoki eshik oldidagi oddiy supurgi kabi belgilar orqali jamiyat ruhini aks ettirishda ko'rinadi.

2004 yilda Moskvada nashr etilgan “Chingiz Aytmatovning najot kemasi” (Xamroyev, 2004) to'plamidagi Umirov maqolasi o'zbek tanqidchilik maktabi uchun muhim ilmiy yutuq bo'ldi. U Chingiz Aytmatov ijodini Sharq va G'arb tafakkuri sintezida tahlil qilib, yozuvchini “sayyoraviy tafakkur adibi” sifatida baholaydi. Umirovning fikricha, Aytmatov inson va tabiat, milliylik va umuminsoniylik, tarix va zamonaviylikni uyg'un badiiy konsepsiyada yoritgan ijodkor sifatida ajralib turadi.

Tadqiqotchi Aytmatovning publitsistik merosini ham tizimli o'rgangan. U yozuvchining publitsistik faoliyatini davriy bosqichlarga ajratib, har bir davrda ko'tarilgan mavzularni tahlil qiladi. Aytmatov asarlaridagi ijobiy obrazlar, insonparvar g'oyalar, axloqiy poklik motivlari Umirov uchun yozuvchining hayotiy pozitsiyasini ifodalaydi. Olim yozuvchining keskin hajviy janrlardan uzoq turib, felyeton o'rnida mantiqiy isbot va og'irlik bilan fikr yuritganini e'tirof etadi.

Saydi Umirov o'z izlanishlarida adabiyotshunoslikni milliy o'zlikni anglash bilan bog'laydi. U Ozod Sharafiddinov, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ijodkorlar haqida yozgan maqolalarida adabiy portret janrini ijtimoiy-axloqiy g'oyalar bilan uyg'unlashtiradi (Umirov, 2017). Bu portretlarda ijodkor shaxsining ma'naviy qiyofasi, davr ruhiyati va milliy o'zlik bir butun estetik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Umirovning jadidchilik va ma'rifatparvarlikka oid izlanishlari ham alohida ahamiyatga ega. U Solih Qosimov, Begali Qosimov, Boybo'ta Do'stqoraev, Said Rizo Alizoda kabi tadqiqotchilar va jadid namoyandalarning merosini tahlil qilib, ularning ma'rifiy faoliyatini milliy uyg'onishning ilmiy asoslari bilan bog'laydi. Ayniqsa, “Samarqandlik mutafakkir” maqolasida u Said Rizo Alizodaning “Turkiston — bizning vatanimiz” asaridan iqtibos keltirib, ma'rifatparvarning vatanparvarlik ruhini hozirgi kun uchun ham dolzarb deb baholaydi (Umirov, 2011).

Umuman olganda, Saydi Umirovning adabiy-tanqidiy qarashlari chuqur bilim, teran fikr, tahliliy tafakkur va insonparvarlik ruhiga tayangan. U har qanday asardan goʻzallik va hayotsevarlikni izlaydi, biografik tahlil orqali ijodkor shaxsiyatining ichki dunyosini ochadi. Uning tanqidiy merosi oʻzbek adabiyotshunosligida integrativ yondashuv — estetika, falsafa va ijtimoiy masʼuliyat birligining yorqin namunasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Umirov, S. (2017). Sehrli va mehrli soʻz. Toshkent, Bodomzor Invest. URL: http://irbis.tsuull.uz/cgi-bin/irbis64r_plus/cgiirbis_64_ft.exe (Murojaat sanasi: 18.10.2025).

Umirov, S. (2011). Adabiyot fidoiylari bilan barhayot. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/saydi-umirov-adabiyot-fidoiylari-bilan-barhayot-2011> (Murojaat sanasi: 18.10.2025).

Хамраев Ф. (2004). Ковчег Чингиза Айтматова: проза и публицистика, библиографические материалы, документы, фотографии, исследования. Москва, Воскресенье. – 687 с. URL: <https://bit.ly/4ier4s2> (Дата обращения: 18.09.2025).

Muallif haqida:

Fayzullayeva Zulfiya Saidovna — Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Inson huquqlari va media kafedrasi katta oʻqituvchisi, zulyaa7277@gmail.com

THE PHENOMENON OF SAYDI UMIROV: THE UNITY OF LITERARY CRITICISM, PUBLICISM, AND NATIONAL THINKING

Zulfiya Fayzullaeva,
Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Abstract: This article analyzes Saydi Umirov's creative legacy as a unique phenomenon at the intersection of literary criticism and publicism. The study explores the scholar's approach to interpreting the aesthetic world of prominent figures of Uzbek literature such as Chingiz Aitmatov, Abdulla Qahhor, and Ozod Sharafiddinov. Special attention is given to Umirov's research on Jadidism and the ideas of spiritual revival, which reflect his commitment to linking literature with moral and intellectual awakening. His works are interpreted as an aesthetic and philosophical synthesis that reveals the interconnection between literature, the human being, and society.

Keywords: Saydi Umirov, publicism, literary criticism, national thinking, literary heritage

About the author:

Fayzullayeva Zulfiya Saidovna — Senior Lecturer at the Department of Human Rights and Media, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan.

Email: zulyaa7277@gmail.com

JURNALISTIK FAOLIYATDA AXLOQIY DILEMMALAR: MOHIYATI, TURLARI VA QAROR QABUL QILISHDAGI MURAKKABLIK

Xilola Fayzullaeva,^{ID}

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Tezis jurnalistika sohasida uchraydigan axloqiy dilemmalarning mohiyati, turlari hamda qaror qabul qilish jarayonidagi murakkabliklarni tahlil qiladi. Tadqiqotda absolyut, relyativ va qarorsizlik dilemmalari ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning jurnalistning professional mas'uliyati, shaxsiy e'tiqodi va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli media sharoitida axloqiy qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar, redaksiya siyosat va auditoriya talablariga moslashish muammolari misollar orqali yoritilgan. Maqola axloqiy nazariyalar, case-study va amaliy misollar asosida jurnalistlarning etik ongini rivojlantirish hamda institutsional qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: axloqiy dilemma, jurnalistika, absolyut dilemma, relyativ dilemma, qarorsizlik dilemma

Axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida ko'pincha shaxsni ikki yoki undan ortiq noqulay variant o'rtasida tanlov qilishga majbur etuvchi murakkab holatlar uchraydi. Bunday vaziyatlar ilmiy adabiyotda "dilemma" tushunchasi orqali izohlanadi.

Dilemma — bu barcha mavjud tanlovlar noqulay, noma'qul yoki kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan, shuning uchun shaxsdan aniq qaror qabul qilishni talab etuvchi murakkab vaziyatdir. Ko'pincha dilemmalar axloqiy masalalar bilan bog'liq bo'lib, ular insonlar o'rtasida adolatli, izchil va asosli qaror chiqarishni yanada qiyinlashtiradi (Cambridge, 2015).

"Dilemma" atamasi XVI asrda ritorika sohasida qo'llanila boshlagan bo'lib, u lotincha dilemma so'zidan, uning ildizi esa yunoncha di- ("ikki") va lemma ("asos", "qabul qilingan fikr") so'zlaridan tarkib topgan. Mazkur atama "ikki noqulay variant o'rtasida tanlov qilish zarurati" mazmunini anglatadi (Choi & Han, 2022).

Dilemma tushunchasining falsafiy ildizlari qadimgi Yunoniston tafakkuriga borib taqaladi. Yunon mutafakkirlari, ayniqsa Suqrot va Aflotun, axloqiy tanlovlar mohiyatini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, Suqrot suhbatdoshlariga berilgan savollar orqali ularning ma'naviy qarorlar oqibatini anglashiga yordam bergan, shu orqali tanlov jarayonidagi axloqiy mas'uliyatni chuqurroq tushuntirgan.

Dilemmalarning umumiy xususiyatlari

Jurnalistik faoliyatda uchraydigan dilemmalar bir qator umumiy belgilari bilan ajralib turadi. Avvalo, bunday holatlar qadriyatlar to'qnashuvi bilan xarakterlanadi. Jurnalist ko'pincha professional burch, axborot berish vazifasi, shaxsiy qarashlar, axborot manbalari manfaatlar hamda jamoatchilikning axloqiy kutuvlari o'rtasida ziddiyatli tanlovlar oldida qoladi.

Ikkinchidan, dilemmalarda har bir tanlovning muqarrar salbiy oqibati mavjud bo'ladi. Qaysi variant tanlanmasin, u muayyan darajada zarar, etik cheklov yoki vaziyatning to'liq yechilmasligiga olib kelishi mumkin. Shu bois dilemmadan chiqish mutlaq "to'g'ri" javobni emas, eng maqbul, kontekstga mos qarorni topishni talab etadi.

Uchinchidan, bunday vaziyatlar jurnalist zimmasiga psixologik va professional bosim yuklaydi. Qaror qabul qilish jarayonida me'yoriy-huquqiy talablar, kontekst, shaxsiy e'tiqod, redaksiya siyosat, auditoriya talablari va institutsional bosim bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi.

Natijada, dilemmalar nafaqat voqeani yoritish sifati va jurnalistik jarayonning obyektivligiga, balki jurnalistning professional identiteti, mas'uliyati va vijdon sofligiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Axloqiy dilemmalar inson faoliyatidagi eng murakkab ma'naviy tanlov jarayonlaridan biri sifatida qaraladi. Bunday vaziyatlar shaxs yoki institut bir vaqtning o'zida turli qadriyatlar, manfaatlar va majburiyatlar to'qnashuvi bilan yuzlashganda vujudga keladi. Shu bois axloqiy dilemma nafaqat muayyan qarorni tanlash zarurati, balki qaror qabul qiluvchi subyektning shaxsiy, ijtimoiy va professional qadriyatlarini muvozanatlashtirish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Dilemmalarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning tarkibiy xususiyatlarini aniqlash va ularni samarali boshqarish uchun ularni turli toifalarga ajratish muhimdir. Bu yondashuv tanlovning murakkabligini yaxshiroq tushunishga, har bir vaziyatni kontekstual ravishda baholashga imkon beradi.

Absolyut dilemma — jurnalistikada bir vaqtning o'zida bir nechta etik prinsiplar o'rtasida to'liq va bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyat yuzaga keladigan holatdir (Gunarathne, 2025). Bunday vaziyatlarda qaysi prinsip ustun qo'yilishi qat'iy qoidalar orqali belgilanmaydi; qarorning mazmuni kontekst, jurnalistning shaxsiy qarashlari va kasbiy tajribasiga bog'liq bo'ladi. Absolyut dilemmalarning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, jurnalist bir vaqtning o'zida barcha etik me'yorlarni to'liq amalga oshiro olmaydi. Ikkinchidan, qaysi prinsipning ustuvorligi vaziyatning o'ziga xos sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Uchinchidan, institutsional etik me'yorlar ko'pincha yetarli bo'lmay, shaxsiy mas'uliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. G. R. Niromi (2025) tomonidan yozilgan "Jurnalistikadagi axloqiy dilemmalarning tahlili: haqiqatni yoritish, shaxsiy hayotni himoya qilish va jamoat manfaatlarini muvozanatlashning raqamli davrdagi masalalari" (Gunarathne, 2025) nomli maqola jurnalistlik faoliyatidagi axloqiy dilemmalarni chuqur tahlil qiladi va zamonaviy raqamli media sharoitida jurnalistlarning qaror qabul qilish jarayonidagi murakkabliklarga e'tibor qaratadi. Muallif asosan haqiqatni yoritish, shaxsiy hayotni himoya qilish va jamoat manfaatlarini muvozanatlashdagi qarama-qarshiliklarga e'tibor qaratadi hamda "absolyut dilemma" tushunchasini markaziy mavzu sifatida ilgari suradi. Maqola raqamli media sharoitida axloqiy qaror qabul qilish jarayonlaridagi murakkabliklarni yoritish, case-study va etik nazariyalar orqali misollarni asoslash, shuningdek, jurnalistlarning etik ongini shakllantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash zaruratini ta'kidlash orqali ahamiyatli ilmiy hissa qo'shadi. Shunday qilib, absolyut dilemmalar jurnalistning axloqiy qarorlarini qabul qilish jarayonida bir nechta prinsiplar o'rtasidagi ziddiyatni boshqarish zaruratini oshiradi va bu jarayonda shaxsiy mas'uliyat, kasbiy tajriba hamda kontekstual omillar muhim rol o'ynaydi.

Amaliyotda bunday dilemmalar asosan haqiqatni ochiq yoritish, shaxsiy hayot daxlsizligini saqlash va jamoatchilik manfaatini himoya qilish o'rtasidagi murakkab tanlovlarda namoyon bo'ladi. Masalan, tibbiy yoki ijtimoiy jurnalistikada bemor haqida ma'lumot e'lon qilinishi jamoatchilikning xabardorlik darajasini oshirishi mumkin, biroq bu shaxsiy hayotning buzilishi xavfini ham kuchaytiradi. Aksincha, ma'lumotni yashirish jamoatchilik manfaatlarini cheklashi mumkin.

Shu bois absolyut dilemmada jurnalist qaror qabul etayotganda zararlarni imkon qadar kamaytirish, shaxsiy mas'uliyat, axloqiy poklik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanishi zarur bo'ladi. Har bir tanlovning muqarrar salbiy oqibatga ega bo'lishi mazkur dilemmaning murakkabligini yanada oshiradi.

Relyativ dilemmalar turli madaniy an'ana, ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarning farqlanishi natijasida yuzaga keladi (Newman, 1972). Bir jamiyatda axloqan maqbul sanaladigan amaliyot boshqa jamiyatda qabul qilinmasligi mumkin. Masalan, ayrim G'arb davlatlarida davlat amaldorining shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni jamoatchilik manfaatidan kelib chiqib yoritish odatiy hol bo'lsa, Sharq jamiyatlarida bu harakat shaxsiy hayotga aralashish deb baholanishi mumkin.

Raqamli media makonida relyativ dilemmalar yanada dolzarbdir, chunki kontent bir vaqtning o'zida turli madaniy guruhlar tomonidan iste'mol qilinadi va turlicha talqin qilinadi. Bu esa jurnalistning madaniyatlararo sezgirlik va axloqiy moslashuvchanlik qobiliyatini talab qiladi. Jay Newmanning "Axloqiy relativizm" (1972) maqolasida etik relativizm dilemmasi shunday izohlanadi: axloqiy tamoyillarni universal asosda tushuntirish imkonsiz, chunki har bir tamoyilni boshqa tamoyillar bilan cheksiz zanjir orqali asoslash "infinet regress" muammosiga olib keladi. Shu bois kamida bitta asosiy axloqiy tamoyil mavjud bo'lishi zarur, va ushbu tamoyillar shaxslar, jamiyatlar hamda madaniyatlar o'rtasida farqlanishi sababli axloqiy tamoyillar nisbiy tabiatga ega bo'ladi. Newman etik relativizmni nazariy jihatdan himoya qilib, uni axloqiy ziddiyatlar, madaniy va ijtimoiy farqlarni tushuntirish vositasi sifatida ko'rsatadi, shuningdek, universal axloqiy me'yorlarning yo'qligi sharoitida turli shaxslar turlicha axloqiy qarorlar qabul qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Demak, relyativ dilemmalar zamonaviy raqamli media sharoitida jurnalistning axloqiy qarorlarini qabul qilishda madaniy va ijtimoiy farqliliklarni hisobga olish zaruratini yanada oshiradi.

Qarorsizlik dilemmasi — bir nechta muqobil qarorlar orasida ustuvor variantni aniqlash mushkul bo'lgan vaziyatdir (Körner, 2023). Bu holatda har bir tanlov ijobiy va salbiy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, qaror qabul qiluvchi tomonning ikkilanishiga sabab bo'ladi. Masalan, mahalliy onlayn nashrda yuz bergan mojaro haqida xabar e'lon qilish jurnalistning axborot berish vazifasiga mos keladi, biroq materialda tilga olingan shaxslarning obro'siga zarar yetkazish ehtimoli mavjud. Körner A., Deutsch R. "Real Hayotda Deontologiya va Utilitarizm: Tarixiy Voqealarga

Asoslangan Axloqiy Dilemmalar Majmuasi" (2023) maqolasida qarorsizlik dilemmalari tarixiy voqealarga asoslangan real hayotiy axloqiy vaziyatlar kontekstida tahlil qilinadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, bunday dilemmada shaxs bir vaqtning o'zida bir nechta muqobil variantlar orasida tanlov qilishga majbur bo'ladi, va har bir variant ijobiy hamda salbiy oqibatlariga ega bo'ladi. Natijada qaror qabul qiluvchi shaxs ikkilanish va noaniqlik holatiga tushadi, chunki ustuvor variantni aniqlash imkoniyati mavjud emas. Maqolada bu dilemma deontologik va utilitar yondashuvlar asosida tahlil qilinib, shaxsiy qadriyatlar, jamiyat manfaatlar va tarixiy kontekst qaror qabul qilish jarayoniga qanday ta'sir qilishi misollar bilan ko'rsatiladi. Shu bilan, qarorsizlik dilemmalari murakkab axloqiy tanlovlarni va ularning oqibatlarini baholashdagi noaniqliklarni chuqurroq tushunishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida ifodalanadi. Demak, qarorsizlik dilemmalari jurnalistning axloqiy qaror qabul qilish jarayonida turli variantlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda eng maqbul tanlovni aniqlashdagi murakkabliklarni tushunishga yordam beradi. Raqamli jurnalistikada bunday dilemmalar ko'pincha xabarni tez yetkazish talabi bilan ma'lumotni tekshirishga zarur vaqt o'rtasida muvozanatni topish zarurati bilan bog'liq. "Xalqni xabardor qilish" va "zarar yetkazmaslik" tamoyillari o'rtasidagi ziddiyat qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Axloqiy dilemmani tushunish faqat voqea yoki holatni tasvirlash bilan cheklanmaydi. Uni izohlashda axloqiy tamoyillar, nazariy yondashuvlar va me'yoriy talablar asos qilib olinishi lozim. Axloqiy nazariyalar inson faoliyatida to'g'ri va noto'g'ri ajratish, qarorlarni asoslash, oqibatlarni baholash hamda ma'naviy javobgarlik mezonlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois, axloqiy dilemmalarni baholash jarayonida nazariy asoslardan foydalanish nafaqat amaliy ahamiyatga, balki ilmiy tadqiqot ehtiyojiga ham javob beradi. Xulosa qilib aytganda, jurnalistikada uchraydigan axloqiy dilemmalar – absolyut, relyativ va qarorsizlik turlaridagi murakkab tanlovlarni o'z ichiga oladi. Ular jurnalistning professional burchi, shaxsiy e'tiqodlari, auditoriya kutuvlari va institutsional talablar o'rtasidagi ziddiyatni boshqarishni talab qiladi. Absolyut dilemmalarda bir nechta etik prinsiplar bir vaqtning o'zida ziddiyatga kiradi va qaror qabul qilish shaxsiy mas'uliyat hamda kontekstual omillarga bog'liq bo'ladi. Relyativ dilemmalar madaniy va ijtimoiy farqlar natijasida yuzaga keladi, bu esa jurnalistdan madaniyatlararo sezgirlik va axloqiy moslashuvchanlikni talab qiladi. Qarorsizlik dilemmalari esa turli muqobil variantlar orasida ustuvor qarorni aniqlashni murakkablashtiradi. Shu bois, axloqiy dilemmalarni tushunish va baholash jarayonida nazariy yondashuvlar, etik tamoyillar va me'yoriy talablar asos qilib olinishi zarur bo'lib, bu nafaqat amaliy jurnalistik faoliyatda, balki ilmiy tadqiqotlarda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Gunarathne G. R. N. (2025). An Analytical Study of Ethical Dilemmas in Journalism: Negotiating Truth, Privacy and the Public Interest in the Digital Era, *International Journal of Research in Social Sciences*. №9 (13). P. 45–60. — DOI: <https://dx.doi.org/10.47772/IJRISS.2025.913COM0024>.

Cambridge Academic Content Dictionary (2015). Cambridge, Cambridge University Press. URL: <https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/dilemma> (Date of Application: 05.10.2025)

Choi, Y. H., & Han, S. (2022). The Moral Dilemma in Fashion: Using the Prisoner's Dilemma Game on Animals and the Environment. *Fashion Theory*, №27 (3), 443–472. <https://doi.org/10.1080/1362704X.2022.2118671>

Körner A., Deutsch R. (2023). Deontology and Utilitarianism in Real Life: A Set of Moral Dilemmas Based on Historic Events, *Personality and Social Psychology Bulletin*. №10(49). P. 1511–1528. DOI: 10.1177/01461672221103058. — URL: <https://doi.org/10.1177/01461672221103058>.

Newman, J. (1972). Ethical Relativism, *Laval théologique et philosophique*. №1 (28). P. 63–74. DOI: 10.7202/1020276ar.

Muallif haqida:

Fayzullayeva Xilola — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, hilola08051982@gmail.com

ETHICAL DILEMMAS IN JOURNALISTIC PRACTICE: NATURE, TYPES, AND CHALLENGES IN DECISION-MAKING

Khilola Fayzullaeva,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes the nature, types, and complexities in the decision-making process regarding ethical dilemmas encountered in journalism. The study examines absolute, relative, and indecision dilemmas, emphasizing their connection with a journalist's professional responsibility, personal beliefs, and principles of social justice. Additionally, it highlights the challenges of making ethical decisions in the context of modern digital media, issues of editorial policy, and adapting to audience demands through examples. Based on ethical theories, case studies, and practical examples, the article demonstrates the importance of developing journalists' ethical awareness and providing institutional support.

Keywords: ethical dilemma, journalism, absolute dilemma, relative dilemma, indecision dilemma

About the author:

Fayzullayeva Khilola — Senior Lecturer at the Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications, hilola08051982@gmail.com

GLOBALASHUV KONTEKSTIDA MEDIA TILI VA USLUBI

Mukaddas Israil, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Til va media muammosi faqat hayotimizga kirib kelayotgan hozirgi axborot bilan chegaralanib qolmaydi. Media tilini madaniy, ijtimoiy o'zaro ta'sir vositasi va keng auditoriya ongida ijtimoiy voqelikning konseptual modeli sifatida o'rganish uzoq tarixga ega va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Medialar ko'payib borgani sari adabiy tilda ham ma'lum o'zgarishlar, aniqrog'i, tilda media tili va uslubi hamda so'zlashuv uslubi ta'siri ustunlik qilayotgani kuzatilmoqda. Mazkur tezisda media tili ta'sirida adabiy tilda yuzaga kelayotgan bunday o'zgarishlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: gazeta-publitsistik uslubi, globalashuv konteksti, mediamatn, media tili va uslubi, jamoatchilik fikri

Media tili va uslubi har bir insonning vaqti, madaniyati va ongining turli jihatlarini qamrab oladi, shuningdek, ijtimoiy kontekstga, kommunikativ vaziyatga va foydalaniladigan mediatexnologiyalarga bog'liq. U tajriba, bilim va qadriyatlarni, intellektual va hissiy resurslarni to'playdi, shuningdek, insonlarning o'zi va jamiyat tomonidan belgilanadigan va talqin qilinadigan ijtimoiy hayotning ijtimoiy jihatlarini aks ettiradi. O'z navbatida, media tili dunyoqarashni belgilovchi madaniy me'yor va tamoyillarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Bu inson uchun madaniyatning ham yuqori, ham quyi darajasi yo'lini yaratadi. Mazkur kontekstda "til" termini media mutaxassislari g'oyalar, axborot va bilimlarni yetkazishi uchun ishlatadigan texnik komponentlar, ramzlar va kodlarni anglatadi.

Media tilining tadqiqi quyidagi savollarni inobatga olish zaruratini paydo qiladi:

- til media auditoriyasi uchun qanchalik tushunarli?
- zamonaviy media sohasida qanday asosiy kodlar va ramzlar qo'llaniladi?
- turli insonlarning bir xil matn yoki axboriy fragmentdan turli ma'nolarni talqin qilish qobiliyati qanday?

Publitsistik uslubning asosiy g'oyaviy vazifalari nimalardan iborat?

V.Y. Kojanovanning "Рецептивный аспект создания медиатекста" nomli maqolasida media tili mediamatnlarda axborotni uzatish va ma'lum bir hissiy muhitni yaratish uchun ishlatiladigan belgilar va ramzlar tizimi sifatida talqin etiladi. Media tili mediamatnning retsiptiyentlarning retsepsiyasiga ta'siri nuqtayi nazaridan belgilanadi. Maqolada media tilining turli xil unsurlari (masalan, rang, shakl, kompozitsiya, shrift va boshqalar) mediamatnni auditoriya tomonidan idrok etilishiga ta'sir qiladi. Media tilining unsurlari auditoriyaning hissiy holatiga ta'sir qilishi, ma'lum o'xshatishlarni keltirib chiqarishi, ma'lum bir kontekstni shakllantirishi va axborotni uzatishi mumkin. Mediamatnni yaratishning retseptiv aspekti nafaqat media tilining auditoriyaga ta'sirini, balki auditoriyaning mediamatn bilan o'zaro ta'sirini, uning idrok etilishi va talqin qilinishini ham o'z ichiga oladi (Кожанова, 2011). V.Y. Kojanova media tilini mediamatnlarda axborotni uzatish va hissiy muhitni yaratish uchun ishlatiladigan belgilar va ramzlar tizimi sifatida talqin etadi. Muallif mediakommunikatsiyalarni tushunish va ulardan samarali qo'llash uchun mediamatnni yaratish va auditoriyaning media tili bilan o'zaro ta'sirining retseptiv aspekti muhimligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, "Bugungi kunda mediamatnlarning o'ziga xos xususiyatlari: tili, uslubi va janriy xususiyatlari, tarkibiy qismlari, mediamatn yaratish va tahrir etish masalalari bo'yicha izlanishlarga jurnalistika ilmida ehtiyoj katta. Inson ongi, tafakkurining o'zgarishi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar mediamatnlarning mohiyatiga, shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli har bir yangi davrdagi media tili va uslubi o'sha davr o'zgarishlarini o'zida aks ettiradi va alohida tadqiq etishga ehtiyoj tug'diradi" (Shamaqsudova, 2023).

A.V. Mixaleva media tilini ommaviy kommunikatsiyada, shu jumladan, bosma nashrlarda, televideniye, radio va internetda ishlatiladigan professional diskursning turi sifatida ta'riflaydi. Bu ommaviy kommunikatsiyada axborotni yaratish va uzatish uchun ishlatiladigan o'ziga xos tildir (Михаџчева, 2020). Shuni ta'kidlash lozimki, media tilining ta'rifi uni o'rganish aspekti va yo'nalishiga bog'liq. Har bir tadqiqot sohasida media tili turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Masalan, funksional-pragmatik yondashuv doirasida mediadiskurs va media tili axborot

uzatish va auditoriyaga ta'sir qilish bilan bog'liq kommunikativ vazifalarni amalga oshirish vositasi sifatida ko'riladi. Kognitiv yondashuv doirasida mediadiskurs va media tili ommaviy kommunikatsiyada axborotni tushunish va talqin qilish asosidagi kognitiv jarayonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi (Михалчева, 2020).

Media tili ommaviy kommunikatsiyada axborot yaratish va uzatish uchun ishlatiladigan o'ziga xos til sifatida ko'riladi va mediadiskursni o'rganishga turli yondashuvlar doirasida turli nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Media tili – turli xil media (matn, tasvirlar, tovush, video va boshqalar) orqali axborotni uzatish uchun ishlatiladigan belgilar tizimi. Media tili zamonaviy dunyoda ma'noni yaratishning va tushunishning asosiy vositasidir. Mediada ishlatiladigan til cheklangan va o'ziga xos bo'lishi mumkin va u kundalik hayotda ishlatiladigan tildan farq qilishi mumkin.

Uslubiy nuqtayi nazaridan media tili bu mediamakonda tilning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan til faoliyatining o'ziga xos turi. Til faoliyatining mazkur turi mediamatnlarda, shu jumladan, ommaviy nutqda, teleko'rsatuvlarga va radioeshittirishlarda, jurnalistika, reklama, PR va hokazolarda tildan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Mediauslubiyat mediamatnlarning lingvistik xususiyatlarini, leksika, grammatika, uslubiyat, ritorika va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, u mediamakonda til faoliyatining ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy aspektlarini tadqiq etadi (Клушина, 2014).

Media uslubiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki u turli shakl va janrlarda lisoniy matnlarni yaratish hamda tarqatish imkonini beradi. Zamonaviy media texnologiyalari ovoz, video, grafika va boshqalar kabi turli xil multimedia unsurlaridan foydalangan holda matnlarni yaratish va tarqatish imkonini beradi.

I.V.Chelisheva media tilini o'rganishni mediamatnlarni tanqidiy tahlil qilish kontekstida ko'rib chiqadi. Muallifning ta'kidlashicha, mediamatnlar tahlilning muhim obyekti hisoblanadi, chunki ular jamoatchilik fikri, madaniyati va qadriyatlarini shakllantirishga ta'sir qiladi. U mediamatnlarni muloqot vositasi deb biladi va ularni tahlil qilish uchun tilshunoslik, uslubiyat, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqa fanlarning nazariyalari va usullaridan foydalanadi (Челышева, 2007).

Til orqali muloqot qilish muayyan modellar asosida o'ziga xos til haqidagi ma'lumotni talab qiladi va ular hamsuhbatlar ongida o'zgacha ma'no kasb etishi mumkin. Kommunikatsiya ta'sirchanligini ta'minlash va bilimlarni qayta tahlil qilish vazifasini bajarish uchun til belgilarini bilish jarayonida ular evristik (ijodiy) ahamiyat kasb etishi lozim. Ya'ni bilim shakli mazmunga ega shakl sifatida boshqa mazmundor obyekt bilan aloqaga kirishib, o'z qonunlariga ko'ra rivojlanish va taraqqiy etish jarayonida oldin mavjud bo'lgan belgilardan o'zib ketish xususiyatiga ega (Тешабаева, 2012).

Bizningcha, media tili — o'quvchilar, foydalanuvchilar yoki tomoshabinlar bilan turli og'zaki, tasviriy yoki audiovizual tillarda o'zaro ta'sir qilishga qodir mediamatnlarni yaratish uchun ishlatiladigan til bo'lib, u o'quvchilar, foydalanuvchilar yoki tomoshabinlar bilan turli og'zaki, tasviriy yoki audiovizual tillarda o'zaro ta'sir qilishga qodir mediamatnlarni yaratish uchun ishlatiladigan til hisoblanadi. Til zamonaviy kommunikatsiya va madaniyatning muhim aspektidir. U axborotni uzatishda, ijtimoiy fikrni shakllantirishda va auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

D.M.Teshabayeva, G.X.Bakiyeva, M.I.Israil mediakommunikatsiyaga tilning funksional yaxlitlik sifatidagi o'z salohiyatini imkon qadar ko'p darajada amalga oshiradigan sohasi sifatida qarar ekan, bunda axborot iste'molchilarining qarashlari, qadriyatlari va madaniyatlarini shakllantirish masalalarini o'quvchi, ko'ruvchi va tinglovchi ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etishini (Тешабаева, Бакиева, Израил, Тошмухамедова, Нуритдинова, 2019) ta'kidlaydilar.

Medialingvistika yaratish va tarqatish usullarining lingvistik-format xususiyatlariga, funksional-janriy tasnifiga, fonologik, sintagmatik va uslubiy tavsiflariga, talqin xususiyatlariga, madaniy o'ziga xos xususiyatlariga, mafkuraviy modallikka va pragmalingvistik qiymatga ta'sirini o'z ichiga oluvchi mediamatnlarning ko'p bosqichli butun tuzilmasini o'rganadi (Добросклонская, 2005).

A.X.Xamidova o'zining “Медиалингвистика: новая парадигма в изучении языка СМИ” nomli maqolasida medialingvistikani ommaviy muloqot vositalari tomonidan yaratiladigan va tarqatiladigan matnlarning tili va boshqa aspektlarini o'rganadigan lingvistik tadqiqotlarning

yangi sohasi sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada medialingvistika bilan bog'liq asosiy muammolar, shu jumladan, mediamatnlarni yaratish va tarqatish usullarining ularning lingvistik-format xususiyatlari, funksional-janriy tasnifi, fonologik, sintagmatik va uslubiy, talqin, madaniy xususiyatlari, mafkuraviy modallik, pragmalingvistik qimmatini va boshqalarga ta'siri yuzasidan ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muallif medialingvistikaning ijtimoiy ahamiyatini va uning zamonaviy axboriy jamiyatda tilning qo'llanilishiga ta'sirini o'rganadi (Хамидова, 2018).

Uslubiy nuqtayi nazardan media tili bu mediamakonda tilning qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan til faoliyatining o'ziga xos turi. Mazkur tur mediamatnlarda, shu jumladan, ommaviy nutqda, teleko'rsatuvlarda va radioeshittirishlarda, jurnalistika, reklama, PR va hokazolarda tildan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Mediauslubiyat mediamatnlarning lingvistik xususiyatlarini, xususan, leksika, grammatika, uslubiyat, ritorika va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, u mediamakonda til faoliyatining ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy aspektlarini tadqiq etadi (Клушина, 2017).

Globallashuv sharoitida gazeta-publitsistik uslubi jamoatchilik fikrini shakllantirish va voqealarni yoritishda muhim vosita bo'lib qolmoqda hamda yangi voqeliklarni yoritishda publitsistika sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Zero, gazeta tili ijtimoiy voqelikni, jamiyatning tuzilishini, qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. O'zbek gazetasi tilida yuz berayotgan ushbu o'zgarishlarda biz tilning demokratlashuvini, rasmiyatchilikdan voz kechishni, yanada tabiiy va erkin nutqqa intilishini ko'ryapmiz.

Lisoniy vositalarning salbiy va ijobiyga keskin bo'linishi yumshatilmoqda va ko'plab so'zlar baholovchi tusni o'zgartirmoqda yoki neytrallashmoqda. Buning o'rniga metaforalar, evfemizmlar, iqtiboslar, okkazonalizmlar va kontekstual ko'rsatkichlar kabi bilvosita baholash vositalari keng tarqalmoqda. Globallashuvning siyosiy va iqtisodiy jihatlari ham media tiliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlatlararo va xalqaro munosabatlar media tiliga yangi termin va tushunchalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar media tiliga katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek mediasida ko'proq ochiqlik va tanqidiy yondashuvlar kuzatilib, jamiyatdagi muhim mavzular xalq bilan bahslashuv tarzida muhokama qilinmoqda. Davlat tomonidan o'zbek tilining taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar o'zbek tilini axborot va ilm-fan tili sifatida mustahkamlashga qaratilgan.

Media tili mediadagi kommunikatsiya shakllari va uslubiga ham ta'sir qiladi, axborotni taqdim etish usullarini va til vositalarining tanlovini belgilab beradi. Media o'z o'rnida, keng qamrovli hodisa bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarga ta'siri keng qamrovli hisoblanadi. Bu o'z o'rnida doimiy izlanishlar, empirik faktlarning to'liq manzarasini ko'rish qobiliyatini va hozirgi hayot hamda sharoitlarga mos ongli tahliliy, tanqidiy yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Shamaqsudova, S. (2023). Mediamatnlarning tili, uslubi va janriy xususiyatlari: F.f.f.d. (PhD) diss., 7. URL: <https://journals.nuu.uz/index.php/index/login?source=%2Findex.php%2F1%2Farticle%2Fview%2F4469> (Murojaat sanasi: 21.10.2025).

Teshaboyeva, D. M. (2012). Ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida) (PhD dissertatsiyasi, UzDJTU). pp. 15–36. URL: https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0,5&cluster=14978251599551251837 (Murojaat sanasi: 21.10.2025).

Teshabayeva, D., Bakiyeva, G. Israil, M. Toshmuhamedova, L., Nuritdinova, M. (2019). Jurnalistika. III jild. Medialingvistika va tahrir, 6. URL: https://t.me/Uzjoku_online_library/4996 (Murojaat sanasi: 21.10.2025)

Добросклонская, Т. (2005). Вопросы изучения медиатекстов: опыт исследования современной английской медиаречи. URL: <https://linguistics-online.narod.ru/index/0-81> (Дата обращения: 21.10.2025).

Клушина, Н. (2014). Медиастилистика, Экология языка и коммуникативная практика. № 2. С. 69–77. URL: <http://ecoling.sfu-kras.ru/wp-content/uploads/2014/09/Klushina-N.I..pdf> (Дата обращения: 21.10.2025).

Клушина, Н. (2019). Медиастилистика и ее место в современной филологической науке, Журнал Белорусского государственного университета. Журналистика, № 1, С. 35-

38. URL: <https://journals.bsu.by/index.php/journalism/article/view/2333>. (Дата обращения: 21.10.2025).

Кожанова, В. (2011) Рецептивный аспект создания медиатекста, Вестник Адыгейского государственного университета. Филология и искусствоведение. № 2. С. 42-46. URL: <https://e.lanbook.com/journal/issue/291489> (Дата обращения: 21.10.2025).

Михалчева, А. (2020). О некоторых направлениях изучения медиадискурса в современной отечественной лингвистике, Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология, № 26 (3). С. 67-73. DOI: <http://doi.org/10.18287/2542-0445-2020-26-3-67-73>

Хамидова, А. (2018). Медиалингвистика: новая парадигма в изучении языка СМИ, Вестник МГЛУ, Гуманитарные науки, № 1(789), С. 293. URL: http://www.vestnik-mslu.ru/Vest/1_789.pdf (Дата обращения: 21.10.2025).

Челышева, И. (2007). Критический анализ медиатекста: теоретические аспекты проблемы, Медиаобразование. № 4, С. 9-17. URL: <https://oaji.net/articles/2015/2113-1435058572.pdf>

Muallif haqida:

Israil Mukaddas Irgashevna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d. (DSc), israil19mukaddas@gmail.com

LANGUAGE AND STYLE OF MEDIA IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Mukaddas Israil,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: The problem of language and media is not limited to modern information entering our lives. The study of media language as a means of cultural, social interaction and a conceptual model of social reality in the consciousness of a wide audience has a long history and has not lost its relevance even today. As the number of media increases, certain changes are observed in the literary language, more precisely, the influence of the language and style of the media, as well as colloquial style, prevails. This thesis analyzes such changes occurring in literary language under the influence of media language.

Keywords: newspaper-journalistic style, globalization context, media text, media language and style, public opinion.

About the author:

Israil Mukaddas Irgashevna — Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Doctor of Philological Sciences (DSc), israil19mukaddas@gmail.com

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI

Rahimboy Jumaniyozov, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta'lim sifatini oshirishga daxldor masalalar, xususan, pedagog mahoratining muhim qirrasini bo'lgan kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati, ma'naviy tarbiya va notiqlik san'ati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ta'limning kaliti nutq, tarbiyaning kaliti xulq ekani asoslangan.

Kalit so'zlar: ritorika, voz, nutq mahorati, til taktikasi, va'z

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxona, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutassadilar bilan uchrashmasin, albatta uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular — sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak Prezident o'zlari qayta-qayta e'tirof etgani kabi "Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmida" (Mirziyoyev, 2022). Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li — yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" (Mirziyoyev, 2022) — deganlari bejiz emas.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tgan yili (2023) yangi o'quv yili arafasida maktab ta'limidagi masalalarni muhokama qilish va ustuvor vazifalarni belgilab olish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi ham mohiyat e'tibori bilan ahamiyatli bo'lgan edi.

Shuni e'tirof etish kerakki, "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", degan ezgu g'oya asosida katta ishlar amalga oshirilganidan, qisqa muddat mobaynida yuzlab zamonaviy maktablar barpo etilgani, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirilgani, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Shuningdek, "Muallim va o'quvchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratayapmiz" (Mirziyoyev, 2023), — dedi davlatimiz rahbari yig'ilish avvalida.

Ta'limdagi natijadorlik va samara uning sifatiga bog'liq ekani ayon. Bir karra ta'lim berish ikki karra ta'lim olish ekanini unutmaslik zarur. Ta'lim berishning ham o'ziga xos mashaqqati, rohati, muhim usul va uslublari bor. Bilish boshqa, uni yetkazish va unga amal qilish boshqa. Chunki ilmu amal birlikda bo'lmasa, samara haqida gap bo'lishi mumkin emas. Sifatli ta'lim masalasi, avvalombor, intellektual salohiyatga ega bo'lgan, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng bo'lgan muallimga bog'liqdir. Bu ayni haqiqat.

O'qituvchi ko'p bilimga ega bo'lsa, axborot texnologiyalarini obdon o'rgangan bo'lsa, hatto, xorij sertifikatlariga ega bo'lib ko'p tillarni bilsa, hatto, bo'yi barobar kitob, monografiya, ilmiy maqolalar yozgan bo'lsa ham hali bu ta'limning sifati va samarasi degani emas. Bu masalaning bir tomoni, xolos. Chunki ta'limning sifatli bo'lishi uchun jahon miqyosidagi sohaviy yangiliklar va bilimlarni obdon o'rganish, hamkorlik rishtalarini bog'lash, yetuk mutaxassis, malakali o'qituvchilar tajribasini ommalashtirish badaliga bo'lishi asosiy maqsaddan yiroq emas.

Tasavvur qiling, jamoaga yangi o'quv yili munosabati bilan osh berish niyatida taom masalliqdarini keltirish uchun bir kishini yollasak va asl dehqon yetishtirgan mahsulotlardan keltirishini tayinlasak. U barcha masalliqdar — guruch, piyoz, sabzidan tortib yog'u go'shtigacha keltirsa, oshpaz uni tayyorlashga kirishsa, lekin osh xom-xatala bo'lib qolsa, xo'sh, kim aybdor? Bozorga borib kelganmi, yetishtirgan dehqonmi, yoki sotganmi? Albatta, oshpaz aybdor. Demak, uning osh tayyorlash kompetentligi, uquvi hali yetarli emas. Oshpaz hali tajribasi va malakasini oshirishi kerak. Ta'bir joiz bo'lsa, oshpazni muallimga qiyos qilsak, keltirilgan masalliqdarini o'quv — uslubiy qo'llanma va darsliklarga o'xshatish mumkin.

O'qituvchining kommunikativ kompetentlik darajasi yetarli bo'lmasa, ya'ni nutq madaniyati, til imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalana olmasa, boshqacha aytganda, notiqlik mahorati yetarli bo'lmasa, albatta, sifatli ta'lim talabi yuzaga chiqmaydi (Ibraimov & Quronov, 2023). Ishning ko'zini bilish degan ibora bu borada bejiz emas. Ish faoliyatimiz, tajriba va kuzatuvlarimizdan shu narsa aniqki, o'qituvchilar yetarli bilimga ega, lekin ular, fan mavzuini, olingan bilim, o'zlashtirilgan malaka, hosil qilingan ko'nikmani o'quvchi yoki

talabani o'ngiga singdirish mexanizmini — kommunikativ kompetentlikni, nutq madaniyatini to'la va chuqur egallamagan bo'lishadi. Natijada bu sifatli ta'limning samarasiga zid bo'lgan holat sifatida izohlanadi. Yaponiya, Finlandiyada o'quvchini qiziqtirish, mantiqiy mushohada yuritishga chog'lash ta'lim tizimining jon va qon tomiridir.

Videoselektorda ta'limning va tarbiyaning o'rni haqida, ilmning qiymati, muallimning rutbasi haqida e'tiborga molik mulohazalar bildirildi. Jamiyatga e'tibor masalasi xalqning ertasi, sifatli ta'lim bilan bog'liq degan fikr uqtirildi. Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi o'rta-maxsus va oliy ta'lim uzviy bosqichma-bosqich tizimli ravishda bo'lishi, biri-birini to'ldiradigan, boyitadigan bo'lishi kerakligi ma'lum.

Shu o'rinda aytish kerakki, Prezident oldingi chiqishlarida o'n yil davomida o'qigan o'quvchi nahotki, ikkita xorijiy tilni bilmaydi, vaholanki, repetitorga borsa bir yilda o'rganayapti, demak, bizni ta'lim berishimiz ko'ngildagidek emas ekanligini aytib, ko'pchilik darsliklar eski usulda ekanligi, bugungi o'quvchini dunyoqarashiga mos emasligini, jahon andozalariga moslab tayyorlanmaganligi ham e'tirof etilgandi (Mirziyoyev, 2023).

Shuningdek, tilning o'rni barcha fanlarda, sohalarida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash o'rinli. O'tgan yili Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "Chet tillarni bilish kerak, ammo xalq o'z ona tilini bilishga majbur, majbur majbur" — deya kuyunchaklik bilan qayta-qayta uqtirganlari hamon yodimizda (Jumaniyozov, 2025). Shu o'rinda beixtiyor ma'rifatparvar adib Is'hoqxon Ibratning ushbu o'gitlari yodga keladi: "Bizning yoshlar, albatta, boshqa tillarni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'rtib qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat — bu vataniy ishdir". Aytish mumkinki, bu vataniy ishgina emas, balki vataniy ishqdir.

O'ylab ko'ring, o'qituvchi tabiiy fanlardanmi, yoki ijtimoiy-siyosiy yoxud gumanitar fanlardan dars beradimi, albatta, tilning ifoda imkoniyatlarini, nutq madaniyatini to'la egallashi shart. Aks holda, fanning, mavzuning mohiyati ro'yobga chiqmaydi. Fizik qonuniyatlarni ham, kimyoviy reaksiyalarni ham, geometrik aksioma va teoremlarni ham, matematik sinus — kosinuslarni ham pedagog qaysi tilda tushuntiradi? Albatta, o'z ona tilida — davlat tilida tushuntiradi. Demak, unda chalami? Fan ham, mavzu ham chala bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan mehr o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi, chunki til muqoyasa etib o'rganiladi. Ona tili chalami, o'zga tillar ham chala bo'lishi aniq. Demak, nutq mahoratiga ega, nutq xususiyatlarini bilib nutq texnikasiga amal qila oladigan, tili burro, tallafuz me'yori ham tafakkur darajasi ham aniq va tiniq bo'lgan murabiy larni darsga jalb etilishi va ularning ritorik mahoratini oshirish ta'limning sifati va samarasiga bevosita daxldor masaladir.

Tarixda Rossiya imperatori Pyotr 1 shu xususda maxsus farmon ham chiqargani ma'lum. "Nutqiy nuqsoni bor bo'lgan muallim garchi bilimli bo'lsa ham sinfga qo'yilmasin, chunki bolalar taqlidchi bo'lishadi, unga ergashishadi". Har ikki gapida bir "такт", "значит", "тойс" deb turadigan o'qituvchini tinglagan o'quvchini g'ashi kelishi aniq. Ajab emaski, unga "Таков Значитбек Тойсович" deb laqab qo'yib yuborishsa! Nutqning aniqligi tafakkur va talaffuzning tiniqligidanligini aslo unutmaslik kerak. Qaysi sohada, qaysi kasbda ishlamaylik, qaysi fandani dars bermaylik, avvallombor hammamiz nutq madaniyatini, notiqlik san'atini yaxshi egallagan bo'lishimiz kerak. Shundagina o'quvchi bizga ergashadi, shundagina u bizni fanimizni sevadi. Aks holda, uning bu qulog'idan kirib unisidan chiqib ketadi, bundan esa hech qanaqa naf yo'q!

Ta'limning sifatini ta'minlashda notiqlik san'atining o'rni bo'yicha yaqinda tajriba o'tkazib ko'rdik. O'zining 32 soatlik o'quv-amaliy dasturiga ega bo'lgan "Notiqlik san'ati akademiyasi" ta'lim muassasasiga 4 nafar o'qituvchini chaqirtirdik. Ulardan ikki nafari litsey, ikki nafari kollej o'qituvchilari edi. Ularga besh daqiqalik videorolikni qo'yib berdik va diqqat bilan ko'rib-kuzatganlarini gapirib berishni tayinladik. Birinchi o'qituvchi xuddi antennasi yo'q televizorda bijir-bijir tasvir ko'rgandek taassurot uyg'otib mujmal gapirdi, ikkinchisi oq - qora rangli televizorda ko'rgandek fikr berdi. Uchinchi rangli televizorda ko'rgandek zavqu shavqli taassurot bergan bo'lsa, to'rtinchisi esa xuddi 3 D, 5 D qilib tashladi.

Shuning uchun ham Uilyam Artur Uort "O'rtacha o'qituvchi bayon qiladi, yaxshi o'qituvchi tushuntiradi, mashhur o'qituvchi namoyish qiladi, buyuk o'qituvchi esa ilhomlantiradi." — deb bejiz aytmagan edi (n.d.). Uchinchi va to'rtinchi toifa o'qituvchilarni tayyorlamas ekanmiz, oldimizga qo'yilgan maqsadlarni, xususan Uchinchi Renessansni to'la amalga oshirish mushkul. Biz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagoglarni lingvistik kompeteniya bo'yicha tayyorlashimiz kerak, chunki ta'lim olgan ta'lim bera olganidek, tarbiyalanganigina tarbiyalashi

mumkin. O'qituvchining bilimi, kommunikativ kompetentligi va notiqlik san'ati ta'limning natijadorligi va samarasi masalasi eng muhim mezon ekanligini qayd etib vazirliklarga bir necha bor xatlar ham qildik. Yaqindagina bu fikr quvvatlandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, shaxsan vazirning o'zlari Sharipov Kongratbay Avezimbetovich tomonidan bu masala ma'qullandi.

Barcha ta'lim vazirliklari tizimida professor o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha maxsus ritorik mahorat, notiqlik san'atini oshirish bo'yicha amaliy kurslarning tashkil etilishi maqsadga muvofiq. To'g'ri, qisqa muddat ichida notiq-pedagog bo'lish qiyin, uning uchun yillar kerak bo'ladi. Lekin, o'z ustida ishlash doimiy tarzda bo'lishi shart.

Shuni ta'kidlash joizki, pedagogning o'z ustida ishlashi avvalambor, so'z ustida ishlashdan boshlanadi. Ta'limning kaliti – nutq bilan, tarbiyaning kaliti — xulq bilan ekanini anglash muhim. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo'lgan inson komil, avlod barkamol atalishi o'rinli. Demak, chinakam notiq-o'qituvchi o'zi yoqimli, so'zi yuqumli bo'lishi, u shunchaki yetkazuvchi emas, balki o'tkazuvchi bo'lishi kerak. So'zi bilan yondiruvchi, fikri bilan qondiruvchi nisbati ham ularga xosu mos libos.

Videselektorda yuqori sinflarga ayrim fanlarning xususan, kimyo, biologiya, matematika, fizika, chet tili, ona tili va adabiyot fanlarini chuqurlashtirib o'qitilishi masalasining e'tirof etilishi ahamiyatli bo'ldi. Barcha fanlarni, tabiiy va gumanitar fanlarni bog'lovchi vosita pedagogning kommunikativ kompetentligi hamda nutq madaniyati, notiqlik san'atidir, bu esma pedagogik mahoratning o'zagi va o'zanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ibraimov, X., & Quronov, M. (2023). Umumiy pedagogika [Darslik]. Toshkent, Sakhof nashriyoti. URL: <https://lib.adpi.uz/preview?filename=ibraimovx.pdf> (Murojaat sanasi: 23.10.2025).

Jumaniyozov, R. (2025). Sifat - samara va natijaga kafolat. URL: <https://www.tiame.uz/news?id=8714> (Murojaat sanasi: 23.10.2025).

Mirziyoyev, Sh. (2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5774> (Murojaat sanasi: 23.10.2025).

Mirziyoyev, Sh. (2023). Maktablarda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6622> (Murojaat sanasi: 23.10.2025).

Ward, W. A. (n.d.). The mediocre teacher tells. The good teacher explains. The superior teacher demonstrates. The great teacher inspires. URL: <https://williambertrand.fr/william-arthur-ward-his-best-quotes/> (Date of Application: 23.10.2025).

Muallif haqida:

Jumaniyozov Rahimboy — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professori, f.f.n., O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosi

AN IMPORTANT CRITERION FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Rahimboy Jumaniyozov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis discusses issues related to improving the quality of education, particularly communicative competence, speech culture, moral education, and the art of public speaking, which are important aspects of pedagogical mastery. It also establishes that speech is the key to education, while behavior is the key to upbringing.

Keywords: rhetoric, preacher, speech mastery, language tactics, sermon

About the author:

Jumaniyozov Rahimboy — Professor at the Department of Uzbek Language and Literature, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Ph.D. in Philology, member of the Writers' and Journalists' Unions of Uzbekistan.

ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARIGA DOIR

Bahodir Karimov, 

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Tezida adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, falsafiy va adabiy qarashlarning uyg'unlashuvi, adabiyot oldida turgan yangi vazifalar haqida so'z boradi. Adabiyotshunoslik muammolari ba'zida inson omili bilan ham bog'liqligi haqida tanqidiy fikrlar bildirilgan. Fanga oid nazariy muammolar o'rta tashlanib, yechimi izlanayotgan mavzular xususida amaliy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: muallif, ijod jarayoni, shakl-mazmun, ijod hosilasi, ruhiy-psixologik retsepsiya

O'zbek adabiyotshunosligi o'ziga xos tarixga ega. Bu tarixning yozib qo'yilgani barchaga ma'lum. Adabiyotshunoslik tarixida qomusiy olimlarning e'tiborga molik adabiy-ilmiy merosi yetarlicha topiladi. Xususan, mumtoz sharq adabiyoti negizida maydonga kelgan o'ziga xos ilmlar "ilmi aruz", "ilmi bade'", "ilmi qofiya" – muayyan ichki tizimga egaligi bilan bugunga qadar adabiy-ilmiy talqin uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi (Karim, 2016). Adabiyotshunoslik tarixida bu ilmlarning asoschisi, kitobi, tarixi, tamoyillari, nazariy o'lchovlari va amaliy tatbiqoti bor. Mumtoz sharq adabiyotshunosligi bilan barobar dunyo adabiyotshunosligining o'ziga xos ilg'or nazariyotlari juda ham muhim.

Adabiyotshunos oldida badiiy asar haqiqatini anglash-anglatish, ilmiy-nazariy mezonlar bilan tushunish va tushuntirish orqali baholash vazifasi turadi. Shu yo'sinda, zarurat bo'lsa adabiyot tarixiga, ayni damda zamonaviy adabiyotga baho beriladi, davrimiz adiblari ijodining adabiyot tarixida tutgan o'rni aniqlanadi. Bunda adabiyotshunos olim badiiy asar talqini uchun zarur bo'lgan nazariy tushunchalar bilan qurollanadi. Xususan, badiiy asarga bir butun tizim sifatida qaraladi. Bunda muallif, ijod jarayoni, ijod hosilasi, o'quvchi va uning ruhiy-psixologik retsepsiyasi inobatga olinadi, albatta.

Badiiy asarning haqqoniyati-mohiyati, shakl va mazmun uyg'unligi, g'oyaning tugal badiiy talqinida adabiyotshunos albatta, dunyo ilm-fanida kechayotgan yangilanishlarga tayanadi. Bu jarayon ilm-fan sohasida ergashuvchanlikni o'zlariga kasb qilib olgan sohada taraqqiyotdan ko'ra turg'un tarzda kechadi. O'z tushuncha va talqinlariga qaraganda, qaysi bir boshqa millat ilm-fanida ma'qul ko'ringan yutuqlarni yangilik o'laroq qabul qiladi, ergashadi, iqtibosbozlik qilinadi. Milliy filologik ta'lim, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va shu kabi boshqa ijtimoiy fan sohalari ergashtiruvchi rutbasiga ko'tarilmog'i lozim. Buning uchun esa adabiy-ilmiy asarlarga yondashuvning o'ziga xos estetik tamoyillari va usullarini bilish, zaruratga ko'ra amaliyotdan nazariyaga qarab yurish, yangi gipotezalarni esa olimlar muhokamasi uchun taqdim etish muhim sanaladi. Shunda o'zbek adabiyotshunosligida ham alohida maktablar, yangicha tadqiqot usullari maydonga keladi. O'qish, izlanish, sintez, analiz va, eng muhimi, milliy adabiyotga xos alohida xususiyatlarni ajrata olish lozim. O'zbek milliy adabiyoti zaminida paydo bo'lgan ayrim adabiy hodisalar shu hodisa tabiatiga mos keladigan yangi o'zbekona atamalar bilan nomlanishi lozim.

Dunyo faylasufalaridan biri Lord Bekon (1620) ilm-fandagi tadqiqot usullarini metaforik ravishda uchga ajratadi: tadqiqotchi, ya'ni bu o'rinda masalani filolog-adabiyotshunos tarzida qo'yishi ham mumkin. Shunday bir toifa borki, u o'z ilmiy maqolasi, yozayotgan tadqiqoti uchun qaysi manbani o'qisa, aloqasi bor-yo'qligidan qat'iy nazar barchasini bir oyga jamlaydi. Bu qo'shtirnoq ichida "chumoli metodi" deb nomlanadi. Chunki mitti hasharot o'zining o'nqir-cho'nqir yo'lida uchragan, kuchi yetgan jamiki narsani o'z uyasiga tashiydi. Ikkinchi bir toifa adabiyotshunoslarning qarashlari cheklangan, chegaralangan, qoliqlangan bo'ladi. Buning nomi shartli ravishda "o'rgimchak metodi" deb nomlanadi. O'rgimchak to'r to'qiydi, to'riga tushgan ozuqa-hasharotni o'zi uchun yemish qiladi. Ilmiy tadqiqot ishida bu usul ham o'zini oqlamaydi. Yaqin kechmishda bunday usul keng qo'llanildi. Shuning uchun ham milliy mumtoz adabiyot, millatparvarlik, tuproqparvarlik ruhida yozilgan jadid adabiyoti namunalari xolis bahosini olgani yo'q. Har qanday tadqiqotchi uchun, adabiyotshunos olim uchun eng muhim bir usul bor: "Asalari metodi". Asalarining mehnatkashligi, orastaligi, tinimsiz izlanishi, turfa gullardan zarra-zarrasi bilan asal jamlashi – bu yo'l asal ta'mini biladigan barcha uchun ayon haqiqatdir. Chinakam ilmiy tadqiqotlar uchun "asalarining yo'li", usuli, mehnati – asaldek foydali natijasi juda zarur va muhim.

Adabiyotshunos tamizli bo'lmog'i kerak. "Tamiz" arabcha so'z. Lug'aviy jihatdan ajrata

bilish, sezish, anglash kabi ma'nolarni anglatadi (Madvaliyev, 2008). Filolog-adabiyotshunos shunga mos yaxshidan yomonni, go'zaldan xunukni, pokdan nopokni ajrata bilishi lozim, boshqacharoq ataganda, estetik did tushunchasiga yaqin keladi. Tamiz – estetik did masalasi ham adabiyotshunos uchun o'zi muhokama qilishi lozim bo'lgan mavzuni, obyektini, muammoni tanlash uchun yo'llanma beradi. Tamiz, did, farosat, sezim ortidan muayyan maqsad paydo bo'ladi. Manbalarni jamlab-ajratish tufayli muammoni hal etish yo'l-yo'riqlarini belgilab oladi. Maqsadsiz yo'lga chiqqan yo'lovchi adashadi. Tadqiqotchi yo'lovchiga ham o'xshaydi. Uning rejasi, dasturi, borar yo'li va manzili, albatta, qaysidir ma'noda aniq bo'lishi kerak. Shu e'tibordan, tadqiqotchi intuitiv mo'ljalni olishi va adabiy-nazariy xaritaga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqotchi o'z ilmiy faoliyatida, yozadigan ilmiy maqolalarida yuksak natijaga erishmog'i uchun qaysi manba ustida nima uchun qanday usulda ishlayotganligini bilishi ham muhim, albatta. Ma'ruza tezisida bugungi adabiyotshunoslikning bir joyda deysinib turganiga, aksariyat tadqiqotlarning rukni "ko'rganlarimdan ko'chirganlarim", "dedishunoslik"dan iborat ekaniga urg'u berishga zarurat sezganim yo'q. Chunki bugungi filologik sohaning barcha jabhalarida sondan sifatga, ergashuvchanlikdan ergashtiruvchilar safiga, mustaqil nuqtayi nazarlarning dunyo ilm-faniga ta'sir qiladigan yangiliklari tomon siljishiga chin ma'noda zarurat seziladi (Karim, 2023). Chunonchi, tarixdagi renessanslar ulkan alloma shaxslar va ularning dunyo tan olgan kitoblari bilan mashhur va ardoqli. Uchinchi Renessans ham chinakam kashfiyotchi olim shaxslar va ularning muazzam kitoblari ortidan bunyod bo'ladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Adabiyot nazariyasi (II tom). (1979). Toshkent, Fan, 444 b. URL: <https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Adabiyot%20nazariyasi.%202%20jidlik.%202-jild.pdf> (Murojaat sanasi: 23.09.2025).

Karim B. (2016). Ruhيات alifbosi. Toshkent, G'ofur G'ulom NMIU, 361 b. URL: https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_vyzb4yput2mfkjbcbf10pd53s91zp7zbtmdmbt8ukj2vu3z69o5oszgbx72c4oem3h153ync9fz.pdf (Murojaat sanasi: 23.09.2025).

Karim B. G'afur G'ulomning "Shum bola"si. Toshkent, "Samo nashr" nashriyoti, 2023. – 168 b. URL: <https://tsuull.uz/uz/content/monografiya> (Murojaat sanasi: 23.09.2025).

Madvaliyev A. (2008). O'zbek tilining izohli lug'ati (T harfi). Toshkent, O'zME, B. 655. URL: https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf (Murojaat sanasi: 23.09.2025).

Bekon, F. (1620). Novum Organum Scientiarum. Tom II. URL: <https://www.gutenberg.org/files/45988-h/45988-h.htm#A105> (Date of Application: 23.09.2025).

Muallif haqida:

Karimov Bahodir — f.f.d. (Dsc). Professor. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti kafedra mudiri, bahodirkarim66@gmail.com

ON THE PROBLEMS OF LITERARY STUDIES

Bahodir Karimov,

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract: This thesis examines the history of literature, literary studies, the integration of philosophical and literary perspectives, and new challenges facing literature. It presents critical views on how some problems in literary studies are also related to the human factor. The paper introduces theoretical issues in the field and provides practical analyses of topics for which solutions are being sought.

Keywords: author, creative process, form and content, creative output, psychological reception

About the author:

Karimov Bahodir — Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor. Head of Department at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, bahodirkarim66@gmail.com

G'OYA TUSHUNCHASINING ADABIY-NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI

Nafisa Karimova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Tezisdagi g'oya tushunchasining adabiy-nazariy jihatdan o'rganilishi haqida so'z boradi. Ijodkorlar uchun g'oyaning topilishi, g'oyaviy qobiliyat ustida ishlash, badiiy matnda g'oyaviylikni kuchaytiruvchi omillar, g'oyaviy xususiyat kabi jihatlari muhokama qilingan. Ijtimoiy g'oyani badiiylashtirish va mavzu tanlash masalasi tadqiq etilgan. Ayrim o'rinlarda, jahon va o'zbek adiblarining ijodiy tajribalari, ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy aspektda o'rganilgan. Maqolada zaruriy adabiyotlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ijod laboratoriyasi, ta'lim, badiiy g'oya, mavzu, janr

Ijodkor laboratoriyasining o'rganilishi u haqidagi muhokamalar va mazkur mavzuning atroficha xulosalanishi badiiy ijod haqidagi asosiy yakdil fikrni vujudga keltiradi. Ijod laboratoriyasidagi badiiy unsurlar sirasiga birinchi navbatda g'oya tushunchasini kiritish o'rinlidir. Bundan tashqari, mavzu, dunyoqarash, ta'limiy jarayonlarning ijod jarayoni daxli laboratoriyaning navbatdagi tarkibi, deb qaraladi. Badiiy g'oya va uning maromiga yetkazib ishlanishi ijodkor laboratoriyasining juda muhim elementlaridan biri sanaladi. Badiiy asar muayyan bir bunyodkor g'oya ijrosidir. Adabiyotda g'oyasiz asar mavjud bo'lmaydi. Agar g'oyasiz, havaskorlik vajidan yozilgan bo'lsa, asar sifatida qabul qilinmaydi. Badiiy g'oya bu ijodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi.

G'oya falsafa nuqtayi nazaridan substansiya, ya'ni moddiylikka ega bo'lmagan mohiyat bo'lib, u qoralama shaklida aksidensiyaga aylanadi. Adabiyotshunoslik nazariyasida badiiy asarning mavzu va g'oya mushtarakligi alohida o'rganiladi hamda yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan asosiy fikr, deb qaraladi. Badiiy g'oya – muallifning tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifoda etadi. Bunday g'oya yozuvchining hislarini o'zida aks etgani va shu hislarni o'quvchiga ham yuqtira olgani uchun emotsional ta'sirga ega bo'ladi.

G'oya yozuvchining ijodiy maqsad-muddaosi, kayfiyati, badiiy immuniteti natijasida shakllanadi. Mazkur tushuncha o'z atrofiga mavzu, g'oyaviylik, vazifaviylik, an'ana va zamonaviylik parallelizmini jam etadi (Парандовский, 2022). Kitobxon badiiy asardan ijobiy xulosa chiqarsa, estetik zavq olsa, yozuvchining nima demoqchi bo'lganini oz bo'lsa-da his qilsa, bunday badiiy asarlarning g'oyasi nihoyatda katta kuchga ega hisoblanadi. Ya'ni chinakam ta'sirli asarlarda badiiy g'oya nihoyatda keng rakursda shakllantirilgan bo'ladi.

Har qanday ijodiy g'oya o'zining ijtimoiy vazifasiga ham, ayni paytda ma'nan yuksalishga undovchi xarakterga ham egadir. O'z-o'ziga qat'iy talab qo'ygan ijodkorlar ijod laboratoriyasidagi g'oya xususida xuddi shunday fikrlaydilar. Masalan, yozuvchi dunyoqarashida shakllangan har qanday g'oya asarga ko'chgach, asarning badiiylik-vazifaviylik asosini tashkil etadi, xususiylashtirish darajasi yanada oshadi. Yozuvchi g'oyani bu shaklda ifodalabdi, u shaklda ifodalabdi kabi yo'sinlar g'oyaviy asos haqidagi muhokamalarni umumiyashtiradi (Сент, 1970). Ya'ni muhokamalar har doim yozuvchi va adabiy tanqidchilar munosabatini keltirib chiqaradi. Asar bir emas, bir necha adabiy tanqidchi chig'irig'idan o'tgani uchun muhokamalarda umumiy xulosa chiqarish va qabul qilish mumkin. G'oyaviy asos qanchalik xususiy, qanchalik original bo'lsa, ijodkor dunyoqarashi va badiiy matndagi mahorati o'zgalarnikidan shunchalik ajralib turadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, g'oya substansional, qog'ozga tushirilgani sari qo'ldan chiqib ketadigandek, o'z qiymatini yo'qotadigan bo'lib tuyulaveradi. Yozuvchilar bunday paytlarda o'zlarini yo'qotib qo'ymaslik uchun mualliflik qoidalari va odatlariga ega bo'lishga intiladilar.

Adabiyotshunoslikda g'oya tushunchasi ijodkor laboratoriyasi bilan uyg'un o'rganilishi, tavsiflanishi ham adabiyot, ham ijtimoiy hayot uchun foydali bo'ladi. Chunki bunday yondashuvda bunyodkor g'oyalar qamrovini kengaytirish va amalga oshirishda ijobiylik vazifalarining samarasi ortib boradi.

Yozuvchilar g'oyani aksar holatlarda ochiqdamaydilar. Tahlil va talqin jarayoniga qo'yib berishadi. G'oya badiiy asardagi bosh va ikkinchi darajali qahramonlarga vazifa belgilaydigan elementdir (Паустовский, 1967) Asarda ikkinchi darajali obrazlarni ko'paytirmaslik, bosh qahramon maqsadini dialog va tub burilishli hollar bilan tasvirlash asarning badiiy g'oyasini yanada aniqlashtiradi. Biroq asarda syujet chiziqlarining haddan ortiq ko'pligi va "adabiy

aholi"ning me'yordan ko'p ishtiroki g'oyani xiralashtirishi yoki yo'qqa chiqarishi ham mumkin. Adabiyotshunoslikdagi har qanday janrda badiiy g'oya yozuvchining ijodiy maqsadi ichidan joy oladi. Badiiy g'oya adabiyot nazariyasining shakl va mazmun kategoriyasidagi mazmunning bir qismi bo'lsa-da, ijodiy tajribalarda har bir muallif g'oyani o'zi o'ylab topadi. Umuminsoniy g'oyalarni shaxsiy-ijodiy maqsadi bilan ifodalagani uchun g'oya tushunchasi laboratoriya kategoriyasining ham tarkibiy qismiga aylana oladi. Mavzu tushunchasi to'g'risida ham xuddi shunday xulosalarni berish mumkin. Mavzu shakl elementi sifatida mashhur. Umumiy tomondan olib qaralganda shunday. Mavzularning tanlanishi, jamiyatdagi muammolarning mavzulashtirilishi ma'lum bir yozuvchining aqliy mehnati evaziga amalga oshirishini hisobga olib, mavzuni ham ijodkor laboratoriyasining tarkibiy unsuri, deb xulosalash o'rindidir.

Mavzu tanlash ijodiy ta'sirlanish natijasida ro'y berishi ham mumkin. Yozuvchilar badiiy asarga turli yo'sinda mavzular tanlaydilar. Ichki bir sezim ijodkorni qo'liga qalam olishga undaydi. Shu ismsiz sezim ortidan yoziladigan asarning mavzusi, g'oyasi, obrazlar tizimi maydonga keladi. Taxminan shunday tasavvur qilinadigan ijod jarayoni, mavzu tanlanishi va mavzu ustida ishlanishi – aslida bundan ko'ra, murakkab bir masala hisoblanadi. Chin iste'dod egalari o'zlari yozayotgan asarining mavzusini gohida aniq ko'rsatadi. Xususan, tarixiy mavzuda yozilayotgan asarlarda bu ko'zga yaqqol tashlanadi. Abdulla Qodiriy har ikki romani boshlanishida "roman mavzusi" o'zbeklar tarixiga tegishli ekanidan bahs yuritadi (Qodiriy, 1994).

Badiiy asar mavzusi uni o'qib tugatgandan keyin ma'lum bo'ladi. Gohida asar mavzusi uning sarlavhasi (nomi)da tajassum topgan bo'ladi. "Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Bobur" kabi sarlavhalar – bu asarlarda nima to'g'risida bahs yuritilishini ayon etadi. Shu bilan birga, katta kitoblarning annotatsiyasidan ham mavzuni qaysidir ma'noda aniqlab olish mumkin. Biroq bu unsurlar ijod laboratoriyasi nuqtayi nazaridan mavzu tushunchasining barcha qirralarini ochib bera olmaydi. Mavzuni ijod ahli ko'pincha ijtimoiy hayotdan, tarixiy muhitdan oladi. O'qigan kitoblari, ta'sirlanish natijalari, dunyoqarash pozitsiyalari yoki ijodkorning hamsuhbatlari ham badiiy asar uchun yangi g'oya berishi mumkin.

Adabiyot nazariyasi fanida badiiy g'oya alohida masala sifatida qanchalik ahamiyatli sanalsa, ijtimoiy, ba'zan hikoya yoki esse janrlarida, ba'zan esa badiiy-publitsistik maqolalarda bu yaqqol ko'rinadi. tarixiy g'oyalarni badiiylashtirish ham shunchalik muhimdir. Insoniyatning azaldan yoki yaqindan turmush hayotini yaxshilashga intiluvchi, xalq manfaati uchun xizmat qiluvchi, nafaqat yashash turmush tarzi, balki kishilarning fikrlarini, ma'naviy dunyosini ham yaxshilashga, umid va ishonch berishga qaratilgan ijtimoiy g'oyalar yozuvchilar tomonidan badiiylashtiriladi. Ba'zida global muammolar ham.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Parandovskiy, Ya. (2022). So'z kimyosi. Toshkent: Yangi asr avlodi. 462 b. URL: https://einfolib.uz/source/nashrlar/pdf/I4PW9OHbfATXohW_x1zVkNY-OdocJe0d.pdf (Murojaat sanasi: 14.11.2025)

Adabiyot nazariyasi (II tom). (1979). Toshkent: Fan. 444 b. URL: <https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Adabiyot%20nazariyasi.%20%20jidlik.%20-jild.pdf> (Murojaat sanasi: 14.11.2025)

Adabiy turlar va janrlar (1-tom). (1991). Toshkent: Fan. 382 b. URL: <https://unilibrary.uz/literature/321093> (Murojaat sanasi: 14.11.2025)

Паустовский, К. Г. (1958). Золотая роза. В Собрание сочинений (Т. 2, сс. 487–699). Москва: Государственное издательство художественной литературы. URL: <https://lib.ru/PROZA/PAUSTOWSKIJ/roza.txt> (Дата обращения: 14.11.2025)

Сент-Бёв, Ш. (1970). Литературные портреты. Москва: Художественная литература. 590 с.

URL: https://imwerden.de/pdf/sent-bev_literaturnye_portrety_1970.pdf (Дата обращения: 14.11.2025)

Muallif haqida:

Karimova Nafisa Baxadirovna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), nkarimovanafisa@gmail.com

LITERARY-THEORETICAL STUDY OF THE CONCEPT OF IDEA

Nafisa Karimova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis examines the literary-theoretical study of the concept of idea. It discusses aspects such as the discovery of ideas by creators, developing ideological skills, factors that enhance ideological content in literary texts, and ideological characteristics. The issue of artistically representing social ideas and selecting themes has been investigated. In some instances, the creative experiences and scientific-theoretical views of world and Uzbek writers have been analyzed from a comparative perspective. The article draws upon relevant literature.

Keywords: creative process, education, artistic idea, theme, genre

About the author:

Karimova Nafisa Bakhadirovna — Lecturer at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, PhD, nkarimovanafisa@gmail.com

ANTONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Gulchehra Keldiyorova, 
O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Mazkur tezisda antonimiya va antiteza hodisalarining o'zaro munosabati lingvistik va uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Antonimlar tildagi leksik hodisa sifatida, antiteza esa nutqdagi tasviriy vosita sifatida qaraladi. Ularning o'xshash va farqli tomonlari misollar asosida yoritilgan. Tadqiqotda o'zbek, rus va turkiy tillar materiallari asosida antonimlarning turlari, kontekstual qo'llanilishi hamda badiiy nutqdagi ifodalilikni ta'minlovchi vosita sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: antonimiya, antiteza, kontekstual antonim, uslubiy vosita, badiiy nutq

Til tizimidagi leksik birliklarning o'zaro ma'no munosabatlarini o'rganish tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Shunday ma'no munosabatlaridan biri — antonimiya hodisasi bo'lib, u tildagi so'zlarning bir-biriga zid ma'noda qo'llanishini ifodalaydi. Antonimlar orqali tilning ma'no imkoniyatlari kengayadi, nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi oshadi. Shu bois antonimiya masalasi qadimdan turli yo'nalishlarda o'rganilib kelinmoqda. Yevropa, rus va turkiy tillarda bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, o'zbek tilshunosligida esa S.Mutallibov, S.Usmonov, B.Isabekov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida antonimlarning turlari, semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, antonimiya va unga yaqin hodisalar — antiteza, korrelyatsiya, inkor bilan munosabatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda antonimiya hodisasining o'zbek tilidagi o'rni, uning nutqdagi funksional va uslubiy imkoniyatlari yoritilgan bo'lib, bu masalaning chuqur o'rganilishi til tizimi va badiiy nutqning ifoda vositalarini yanada boyitadi.

Tilshunoslikda antonimiya hodisasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar bor.

Antonimlarning ta'rifi, ularning asosini belgilashda turli qarashlar kuzatiladi:

1) Antonimlar qarama-qarshi tushunchali so'zlardir (Shanskiy, 1964; Usmonov, 1958).

2) Qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonim bo'ladi (Galkina-Fedoruk, 1962; Musaboyev, 1959; Shukurov, 1973).

Antonim so'zlarning xususiyati shuki, ularning biri ikkinchisiga zid qo'yilib, birining mazmuni ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Yevropa tilshunosligida ko'plab maxsus monografik ilmiy ishlar antonimlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan.

L.A.Novikov rus tilidagi antonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini, Y.I.Gelblu nemis tilidagi antonimik munosabat usullarini, V.N.Komissarov ingliz tilidagi antonim so'zlarning semantik xususiyatlarini yoritganlar. Shuningdek, A.A.Vvedenskiy, L.Y.Maksimov, A.A.Kireev, N.Klyueva, M.R.Lvovlarning tadqiqotlarida ham antonimlarning ma'lum bir jihatlari yoritilgan.

Turkiyshunoslikda qozoq tilidagi antonimlarni maxsus tadqiq etgan J.Musin va ozarbayjon tilidagi antonimlarni o'rgangan K.A.Tolibovning ilmiy ishlari mavjud.

O'zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda antonimlarni jiddiy va maxsus o'rganish bo'yicha anchagina ilmiy ishlar qilindi. Darsliklar va qo'llanmalarda turli fikrlar bayon qilingan (Mutallibov, 1955).

Til birliklaridan o'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatish asosida guruhlanishga antonimiya deyiladi (Tursunov va boshq., 1992).

O'zbek tilidagi antonimlarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishlardan biri S.Mutallibovning "Antonim so'zlar" maqolasi hisoblanadi (Mutallibov, 1955). Bu maqolada XI asr tilidagi antonimik uyalar tahlil qilinib, ishda antiteza bilan leksik antonimiya farqlanmay, o't va suv so'zlari antonim sifatida berilgan.

Antonimlar haqida keng ilmiy fikrlar yuritilgan ish S.Usmonovning "Antonimlar" maqolasidir (Usmonov, 1958). Unda antonimlarning tasnifi berilib, to'la va yarim antonimlarga ajratilgan. Masalan, baland-past, kecha-kunduz antonimik juftliklari to'la antonimga, cholkampir, o't-suv kabi so'zlar bog'lanmali yarim antonimlarga kiritilgan. Shuningdek, tuzilishiga ko'ra antonimlar bir o'zakli (o'zakdosh) va turli o'zakli (yoki har xil o'zakli) deb ham ajratilgan. Yurakli-yuraksiz, aqlli-aqlsiz antonimlari bir o'zakli, dono-ahmoq, botir-qo'rqqoq antonimlari turli o'zakli antonimlarga ajratiladi.

Maqolada muallif antonimlarni ma'no turlariga ko'ra o'n qismga ajratgan. O'zbek tilida

shakldosh antonimlar (omoantonimlar) mavjud ekanligini izohlash uchun minmoq, tushmoq fe'llari misol keltiriladi. Ushbu ishda til hodisasi bilan nutq hodisasi, shuningdek, til hodisalarining o'zi ham ajratib yuborilgan. Jumladan, antonimiya va korrelyatsiya, antonimiya va inkor kabi filologik hodisalar qorishtirib yuborilgan o'rinlar uchraydi. Masalan, chol va kampir korrelyativ so'zlari antonimlar ichida berilgan. Ya'ni nutq jarayonida zidlantirilishi mumkin bo'lgan holatlar antonimlar sifatida baholangan. Shu jihatdan antonimiya va antitezaga ham go'yo bir hodisa sifatida qaralgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Jumladan, doktor va kampir so'zlari ham yarim antonim sifatida berilganki, bunda ham antiteza va antonimiya qorishtirilib, nutqiy hodisa bilan til hodisasi farqlanmaydi.

Bu maqola o'zbek tilshunosligida antonimlarga bag'ishlangan dastlabki nazariy eng yirik maqola ekanligi bilan qimmatlidir.

O'zbek tilidagi antonimlarni maxsus nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o'rgangan B.Isabekovning "Hozirgi o'zbek tilida leksik-semantik xususiyatlari" mavzularidagi ishlarini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tadqiqotlarda ham antonimlar va antiteza (Isabekov, 1973), antonimlar va kontekstual antonimlar (Shukurov, 1977) munosabatlari atroflicha yoritilib, antonimlar korrelyatsiya va inkor bilan ham qiyoslangan holda, ular o'rtasidagi o'ziga xosliklar ma'lum darajada to'g'ri ochib berilgan va ilmiy asoslangan. Biroq ular o'rtasidagi umumiy jihatlarga kam e'tibor berilgan. Shuningdek, bizning nazarimizda, antonimlarning "kontekstual antonimlar" kabi alohida turini ko'rsatish, nutqiy hodisa bilan til hodisasini aralashtirish natijasidir. Nutq jarayonida zidlantirilar ekan, bizningcha, bu antiteza hodisasi, tasviriy vosita hisoblanadi.

Antonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar antonimlarning ma'no jihatidan turlari qatorida kontekstual antonimlarni ham ko'rsatib o'tgan ekanlar, ular antitezani nazarda tutgan bo'lishlari kerak.

Antonimlarning kontekstual holati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatiga ko'ra ba'zi tilshunoslar antonimlarni alohida guruhlab, ularning birini til hodisasi, ikkinchisini nutqiy hodisa, deb izohlaydilar.

Aslida (leksik ma'nolari jihatdan) antonim bo'lmasdan faqat kontekstdagina qarama-qarshi ma'noda ishlatilgan so'zlar kontekstual antonimlar deyiladi (Shukurov, 1977). Bu fikr ana shu nutqiy hodisaga nisbatan aytilgan.

Kontekstual antonimlar, ko'pincha, individual biror avtorga xos bo'lishi e'tirof etiladi (Shomaqsudov va boshq., 1983).

Yozuvchi va shoirlar antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o'tkirligiga erishishlari qayd etiladi (Abdurahmonov & Mahmudov, 1981).

Demak, badiiy nutqda antonimlardan yorqin ifodalilikni ta'minlaydigan antitezalarni hosil qiluvchi vositalardan biri sifatida foydalaniladi.

Leksikologlar tomonidan antonimlarning muhim (stilistik) uslubiy vazifasi ularning antiteza hosil qilishda leksik vosita bo'lishidir, deya e'tirof etiladi.

Bunda yondosh shodlik va qayg'u,

Bunda yondosh visol va firoq

Misralardagi shodlik-qayg'u, visol-firoq antonimlari antiteza hosil qilgan.

Antonim so'zlar uslubiy bo'yog'i jihatdan mos bo'lishi zarur:

Sehr aylab oshkora, bandi pinhon ayladi.

(E.Vohidov)

Antitezada esa so'zlar uslubiy bo'yog'i jihatidan mos bo'lishi shart emas:

Oshikor aylab yuzin ko'zimni hayron ayladi.

Yoshurun oldi ko'ngil, ko'zimni hayron aylagach.

Antiteza va antonimiya orasidagi farqlar quyidagilardan iborat:

1. Antonimiya til hodisasi, antiteza nutqiy hodisadir. Antiteza antonimlarga nisbatan keng qamrovga ega. Antonimiya leksik hodisa, antiteza esa so'zlarninggina emas, tushunchalarning ham lug'aviy ma'nolari zidligiga asoslangan sof uslubiy vositalar. L.A.Bulaxovskiy antiteza antonimlarga qaraganda kengroq so'z (tushuncha)lar doirasidan foydalanishini qayd etgan edi (Bulaxovskiy, 1953).

2. Antonimiya so'z turkumlari jihatidan chegaralangan. Ular fe'l, sifat, ravish turkumiga oid so'zlardan va ot turkumiga oid mavhum so'zlardan yuzaga kela oladi. Antitezadan esa so'z turkumlari chegaralanmaydi, bir-biriga zid qo'yilayotgan so'zlar bir turkumdan bo'lishi ham, turli turkumlardan bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, antitezani shakllantiruvchi til birliklari ham

aniq, ham mavhum tushunchalarni ifodalovchi birliklardan, yana turli grammatik shakllardagi soʻzlardan ham iborat boʻlishi mumkin. Antonimlarda bunday xususiyat yoʻq.

3. Antonimlar matn doirasida ham, matndan tashqari ham antonimlik xususiyatini saqlaydi. Antiteza esa matnda qarama-qarshi maʼnoda qoʻllanib, matndan tashqari biri ikkinchisini inkor etmasligi, biri ikkinchisiga zid boʻlmasligi ham mumkin.

4. Antiteza matnda har ikki komponentning boʻlishi zarurligini taqozo etadi, aks holda qarama-qarshilik yuzaga kelmaydi. Holbuki, bu narsa (antonimik juftliklarni istisno qilmaganda) antonimlarda shart emas.

5. Antonimlar qarama-qarshi leksik maʼnoli soʻzlardan iborat boʻlsa, antitezalar esa ikki qarama-qarshi tushunchalarni ifodalovchi turli birliklaridan shakllantiriladi.

6. Soʻzning antonim uchun asos boʻlgan maʼnosi uslubiy boʻyogʻi jihatidan ham mos boʻlishi ham mos boʻlishi, yaʼni antonimik juftlikdan biri uslubiy boʻyoqqa ega boʻlsa, ikkinchisi uslubiy boʻyoqqa ega boʻlmasa, ular bir-biriga antonim hisoblanmaydi. Masalan: ochiq-yashirin, oshkora-pinhona. Antitezada esa bu shart emas. Yaʼni betaraf birlik uslubiy boʻyoqli birlik bilan ham munosabatga kirisha oladi. Hatto, uslubiy boʻyoqli soʻz betaraf soʻz bilan ham yoki shu soʻzning boshqa bir uslubiy boʻyogʻi bilan ham munosabatga kirishishi mumkin. Masalan, 1. Yuz (bet) – bashara; 2. Yuz (bet) – oraz yoki siymo; 3. Oraz yoki siymo – bashara yoki turq.

7. Lugʻaviy (leksik) antonimlar, koʻpincha, soʻzning bosh maʼnolaridan, antitezalar esa soʻzlarning bosh maʼnolaridan tashqari koʻchma maʼnolaridan ham yuzaga kelishi mumkin.

8. Antiteza tasviriy vosita, sheʼriy lafziy sanʼat turi boʻlsa, antonimlar ana shu tasviriy vositani shakllantirish uchun xizmat qiluvchi lisoniy omillardan biridir.

Yuqoridagi antiteza va antonimiya oʻrtasidagi asosiy fikrlar hisoblansa-da, shunga qaramay, bular oʻrtasida maʼlum umumiyliklar ham bordir:

1. Har ikkalasi ham narsalar, hodisalar, belgilar yoki maʼnolar orasidagi zidlikka asoslanadi va ana shu zidlik boʻlmasa, har ikki hodisa ham yoʻqqa chiqadi.

2. Har ikki hodisa ham aslida ikki komponentli tarkibga ega boʻlib, bu komponentlarning matnda (nutqda) ishtirok etishi farqlanishi mumkin: a) antitezada matnda har ikki komponent ishtirok etishi shart; b) antonimlarni tashkil etuvchi komponentning biri matnda (nutqda) ishtirok etmasligi ham mumkin.

3. Har ikki hodisa ham oʻz va oʻzlashgan qatlamlarga oid til birliklaridan hosil boʻlishi, shakllanishi mumkin.

Ana shu jihatlar (umumiy tomonlar) bu ikki hodisani nisbiy yondosh hodisalar sifatida qarash uchun asos boʻlishi mumkin.

Ijodkorlar, nutq egalari antonimlardan antiteza hosil qiluvchi eng asosiy lisoniy vositalardan biri sifatida keng foydalanadilar.

Xulosa qilib aytganda, antonimiya hodisasi tilning semantik tizimida markaziy oʻrin egallaydi. U soʻzlarning maʼno doirasini belgilash, ularni bir-biriga zid qoʻyish orqali nutqning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Oʻzbek tilshunosligida antonimlarni oʻrganish jarayonida antonimiya va unga yaqin hodisalar — antiteza, kontekstual antonimlar, korrelyatsiya, inkor oʻrtasidagi farqlar aniqlab berilgan. Ayniqsa, antonimiya til hodisasi, antiteza esa nutqiy hodisa ekanligi, ularning leksik va uslubiy xususiyatlari bilan farqlanishi muhim ilmiy xulosa sifatida eʼtirof etiladi.

Badiiy nutqda antonimlar antitezalar hosil qilish orqali obrazlilik, ifodalilik va taʼsirchanlikni kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, antonimiya masalasini chuqur oʻrganish nafaqat leksikologik, balki stilistik jihatdan ham dolzarb boʻlib, oʻzbek tili leksik boyligini yanada toʻliq anglash va undan samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Abdurahmonov, X., va Mahmudov, N. (1981). Soʻz estetikasi. Toshkent, Fan. URL: <https://unilibrary.uz/literature/225955> (Murojaat sanasi 17.10.2025).

Isabekov, B. (1973). Hozirgi oʻzbek tilida leksik antonimiya [Nomzodlik dissertatsiyasi, Toshkent].

Mutallibov, S. (1955). Antonim soʻzlar. Sovet maktabi, 28–30.

Shomahmudov, A., Rasulov, I., Qoʻngʻurov, R., & Rustamov, H. (1983). Oʻzbek tili stilistikasi. Toshkent: Oʻqituvchi. URL: <https://unilibrary.uz/literature/14023> (Murojaat sanasi 17.10.2025).

Shukurov, R. (1977). Oʻzbek tilida antonimlar. Toshkent: Fan. URL: <https://litres.az/book/>

rashid-shukurov/uzbek-tilida-antonimlar-69460972/ (Murojaat sanasi 17.10.2025).

Tursunov, U., Muxtorov, J., & Rahmatullayev, Sh. (1992). Hozirgi o'zbek adabiy tili (s. 120). Toshkent: O'zbekiston. URL: <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/> (Murojaat sanasi 17.10.2025).

Usmonov, S. (1958). Antonimlar. O'zbek tili va adabiyoti masalalari, (1), 33–41.

Булаховский, Л. А. (1953). Введение в языкознание (с. 45). Москва. URL: <https://svoi-knigi.ru/collection/filologiya/product/bulahovski-l-vvedenie-v-yazykoznaniye-chast-2-1953?srsltid=AfmBOorCyfmqfwycqsB0HCKHZkfoYoJLKMkMIX74xKkRpPzWAwFx-YeR> (Дата обращения: 17.10.2025).

Галкина-Федорюк, Е. М. (1962). Современный русский язык: Лексикология. Москва: МГУ. URL: <https://books.google.co.uz/books/about/> (Дата обращения: 17.10.2025).

Мусабоев, Г. Г. (1959). Современный казахский язык. Алма-Ата. URL: <https://books.google.co.uz/books/about/> (Дата обращения: 17.10.2025).

Шанский, Н. М. (1964). Лексикология современного русского языка (с. 62–67). Ленинград: Просвещение. URL: <https://books.google.co.uz/books/about/> (Дата обращения: 17.10.2025).

Шукуров, Р. (1973). Лексико-семантическая природа антонимов узбекского языка. Тошкент.

Muallif haqida:

Keldiyorova Gulchehra — O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.n., k.gulchehra0405@gmail.com

STYLISTIC FEATURES OF ANTONYMS

Gulchehra Keldiyorova,
National University of Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes the relationship between the phenomena of antonymy and antithesis from linguistic and stylistic perspectives. Antonyms are examined as lexical phenomena in language, while antithesis is considered as a figurative device in speech. Their similarities and differences are illustrated with examples. Based on materials from Uzbek, Russian, and Turkic languages, the study explores types of antonyms, their contextual usage, and their significance as a means of enhancing expressiveness in literary speech.

Keywords: antonymy, antithesis, contextual antonym, stylistic device, literary speech

About the author:

Keldiyorova Gulchehra — Associate Professor of the Department of Uzbek Linguistics at the National University of Uzbekistan, Ph.D., k.gulchehra0405@gmail.com

IJTIMOIIY TARMOQLARDA MATN VA NUTQNING LINGVOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Nargiza Mirzayeva, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur tezisda ijtimoiy tarmoqlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning janr, til va uslubiy xususiyatlari yoritilgan. Muallif ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan kommunikativ muhitning o'ziga xos jihatlari, xususan, matn qisqalik darajasi, emotsional ifoda, kolokvial birliklar va kod-almashinuvi (code-switching) holatlarini ilmiy asosda izohlaydi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan publitsistik, rasmiy, badiiy va ilmiy-ommabop uslublarning o'zaro farqlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, lingvostilistik tahlil, kommunikativ muhit, ekspressivlik, kod-almashinuvi

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular kommunikatsiya vositasi sifatida turli janrdagi matnlar, multimediya kontentlari va interfaol elementlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi til va uslub an'anaviy ommaviy axborot vositalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyaning yangi shakllarini yuzaga keltirib, an'anaviy matbuot, radio va televideniya tubdan farq qiladi. Ular orqali axborot tarqatishning turli ko'rinishlari shakllangan bo'lib, har birining o'z kommunikativ maqsadi mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p uchraydigan janrlardan biri — status va qisqa xabarlar bo'lib, ular odatda shaxsiy fikr yoki muayyan voqea haqida qisqa ma'lumot beradi. Shuningdek, blog va mikrobloggerlar shaklida yozilgan postlar ham keng tarqalgan bo'lib, ular Facebook, X (sobiq Twitter) yoki Telegram kabi platformalarda foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi. Internet madaniyatida mem va yumoristik kontentlar ham muhim o'rin egallaydi. Ular tasvir, video yoki qisqa matnlar orqali ma'lum bir fikrni kinoyali yoki hazilomuz tarzda ifoda etadi. Shu bilan birga, YouTube, TikTok, Instagram va Twitch kabi platformalarda video va striming janri asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida qaraladi. Ijtimoiy tarmoqlarda brend va tashkilotlar o'z mahsulotlarini targ'ib etish uchun reklama va marketing postlaridan keng foydalanadilar. Bunga qo'shimcha ravishda, taqrizlar, sharhlar, so'rovnomalar, chellengerlar va jonli efirlar kabi interfaol janrlar foydalanuvchilar o'rtasida bevosita muloqotni ta'minlaydi.

Texnologiyalarning rivojlanishi an'anaviy ommaviy axborot vositalariga auditoriya bilan muloqot qilish usullarini takomillashtirish imkonini berdi. Bu modelni amalga oshirishning bir shakli sifatida auditoriyaning qiziqishlariga qarab torroq qatlamlarga mo'ljallangan maxsus telekanallarning paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin: hayvonlar, moda, pazandachilik haqidagi kanallar, san'at, yangiliklar kanallari, faqat multfilmlar yoki faqat kinolar yoki faqat muayyan janrdagi filmlar ko'rsatiladigan kanallar va hokazo (Шевелева, 2010). T.A. Van Deyk tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik va diskurs tahlili kabi zamonaviy yo'nalishlariga bag'ishlangan maqolalar muallifi hamdir. Bu yondashuvni qo'llash samaradorligi Y.O. Menjeritskayaning "Diskurs atamasi va mediadiskurs tipologiyasi" maqolasidagi quyidagi fikrlar bilan tasdiqlanadi: "Mediadiskurs misolida bunday yondashuv ayniqsa dolzarb, chunki u mediadiskursni ajratib ko'rsatish mezonlari haqida so'z yuritish imkonini beradi. Bu mezonlar adresantning kognitiv qarashlariga (ya'ni, matnning mafkuraviy yo'nalishi, undagi g'oyalar va munosabatlarga), matn yo'naltirilgan maqsadli auditoriyaning xususiyatlariga va nihoyat, bevosita matnda mujassam bo'lgan lingvistik hamda ekstralingvistik axborot uzatish strategiyalariga mos keladi" (Менджеричкая, 2006).

Ijtimoiy tarmoqlar tili yozma nutqning an'anaviy ko'rinishidan farq qiluvchi bir qator o'ziga xosliklarga ega. Avvalo, bunday matnlar qisqa va jo'shqin bo'lishi talab etiladi, chunki foydalanuvchi e'tibori qisqa vaqt davomida saqlanadi. Shuningdek, kundalik og'zaki nutq unsurlari, ya'ni kolokvial birliklar, jargon va sleng elementlari keng qo'llanadi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotni erkin, tabiiy va samimiy qiladi. Matnlarda emotsionallik va ekspressivlik kuchli aks etadi. His-tuyg'ularni ifodalash uchun foydalanuvchilar emodzi, punktuatsion belgilar (masalan, ko'p nuqtalar, so'roq yoki undov belgilarining takrori) hamda hissiy so'zlardan keng foydalanadilar. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda hashtaglar (#), teglar (@) va stikerlar kabi grafik elementlar nutqni boyituvchi qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi. Internet tili

uchun qisqartmalar (“brb”, “imho”, “kk” va boshqalar) ham xarakterlidir. Ko‘p hollarda kod-almashtiruvchi — ya’ni bir nechta tilning aralash holda qo‘llanilishi (masalan, o‘zbek, rus va ingliz tillari) — ijtimoiy tarmoqlarda muloqotning tabiiy xususiyatiga aylanib bormoqda.

Bir qator texnik va psixologik sabablar tufayli, ijtimoiy tarmoqning lingvostilistikasi ushbu turdagi OAVni an’anaviylaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega (Костенко, 2013). Leksik darajada biz tarmoq matnlarining uchta xususiyatini ajratib ko‘rsatdik:

1. Mualliflar tomonidan ijtimoiy tarmoq jargonining (tarmoq slengining) qo‘llanilishi. Tarmoq slengi asosan chatlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va forumlarda ishlatilishiga qaramay, u muqarrar ravishda ommaviy axborot vositalariga, ham tarmoq, ham an’anaviy OAVga kirib boradi. Tabiiyki, tarmoq slengidan ko‘proq aynan tarmoq OAV, ya’ni faqat Internetda faoliyat yurituvchi OAV foydalanadi. Nashrlarda tarmoq slengidan foydalanishni o‘z til siyosatiga kiritgan tarmoq OAVlarini shartli ravishda ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin: “slengda so‘zlashuvchilar” va “slengni ifoda vositasi sifatida qo‘llovchilar”. Tarmoq slengidan foydalanish, birinchi navbatda, butun Internet auditoriyasining katta qismini tashkil etuvchi tarmoq OAV tinglovchilarining yosh qatlami bilan aloqa o‘rnatishga qaratilgan.

2. Ularda kalit so‘z va iboralarining mavjudligi (reklama, targ‘ibot va buyurtma matnlar uchun). Bu xususiyat sayt matnlarini SEO-optimallashtirishga, ya’ni maqolani Internetda ilgari surishga bog‘liq. U materiallarning aniq sarlavhalari bilan bir xil maqsadni ko‘zlaydi - ma’lum bir mavzu izlanganda ularning birinchilardan bo‘lib chiqishi. Ba’zan kalit so‘zlar matnga sun‘iy ravishda kiritilishi mumkin, bu esa o‘quvchini ularga e’tibor qaratishga majbur qiladi.

3. Tarmoq OAV matnlarining undovchi, ijtimoiy baholovchi, fuqarolik faolligiga chaqiruvchi ta’sirchan xususiyati. Bu o‘rinda britaniyalik tadqiqotchi Uilyam Datton “beshinchi hokimiyat” deb atagan belgilarning Rossiya onlayn OAVda paydo bo‘layotganini ta’kidlash o‘rinli: Rossiya ijtimoiy medialari haqiqiy siyosiy kuchni shakllantirishning yangi maydoniga aylanmoqda. Dattonning fikricha, “beshinchi hokimiyat” davlat tuzilmalarini, shuningdek, “to‘rtinchi hokimiyat” — an’anaviy ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu atamaga yuksak fuqarolik mas’uliyati, tashabbuskorligi, faolligi va bevosita harakatlarga tayyorligi bilan ajralib turadigan “yangi jurnalistika” nomini berish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda ishlatiladigan uslublar kommunikativ maqsad va auditoriyaga qarab farqlanadi. Eng ko‘p uchraydiganlardan biri publitsistik uslub bo‘lib, u yangilik, ijtimoiy fikr va ommaviy muhokama uchun xizmat qiladi. Ushbu uslubning asosiy belgisi — oddiylik, ta’sirchanlik va tushunarlikdir. Rasmiy uslub esa tashkilot, davlat idoralari yoki korporativ akkauntlarda ko‘proq qo‘llanadi va u aniq, lo‘nda hamda me’yorga asoslanadi. Bundan tashqari, ijodiy bloglar va adabiy postlarda badiiy uslubdan foydalaniladi. Bu uslub obrazli, emotsional va estetik jihatdan boy ifodani ta’minlaydi. Ommabop uslub esa xalq tiliga yaqin, kinoya va hazil elementlariga boy bo‘lgan tildan iborat. Ilmiy-ommabop uslub esa ilmiy g‘oyalarni keng auditoriyaga sodda va tushunarli tarzda yetkazish uchun ishlatiladi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar uslubi ko‘p qatlamli bo‘lib, u kommunikatsiya maqsadi, auditoriya va janr turiga qarab o‘zgarib boradi.

Ijtimoiy tarmoqlar o‘zining janr, til va uslubiy xususiyatlari bilan kommunikatsiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Undagi kontent an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli tarzda dinamik, interfaol va jamoaviy ishtirok asosida shakllanadi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot tarqatish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, marketing va madaniy almashinuv jarayonlarining muhim vositasiga aylangan. Ularning til va uslubi zamonaviy lingvistika uchun yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochib bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Костенко, Е. В. (б.г.). Лингвостилистические особенности текстов сетевых СМИ. Статья по специальности “СМИ (медиа) и массовые коммуникации”. URL: https://vestnik.marsu.ru/science_journals/web/main/main/journal?id=12 (Дата обращения: 12.09.2025).

Шевелева, И. А. (2010). Лингвистические особенности дискурса Интернет-СМИ. В В. В. Красных & А. И. Изотов (Ред.), Язык, сознание, коммуникация: Сборник статей (Вып. 41, с. 112). Москва: МАКС Пресс. ISBN 978-5-317-03257-9. URL: https://www.philol.msu.ru/~slavphil/books/jsk_41_04seveleva.pdf (Дата обращения: 12.09.2025).

Менджерикская, Е. О. (2006). Термин “дискурс” и типология медиадискурса. Вестник Московского университета. Серия 10: Журналистика, (2), 53. URL: <https://istina.msu.ru/publications/article/5258341/> (Дата обращения: 12.09.2025).

Muallif haqida:

Mirzayeva Nargiza Abdukaxarovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent, f.f.f.d. (PhD). nargizamirzaeva465@gmail.com

LINGUISTIC AND STYLISTIC FEATURES OF TEXT AND SPEECH IN SOCIAL NETWORKS

Nargiza Mirzayeva,
Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Abstract: In this thesis analyzes social networks from a linguistic perspective, highlighting their genre, language, and stylistic characteristics. The author provides a scientific explanation of the distinctive aspects of the communicative environment formed on social networks, particularly focusing on the degree of text brevity, emotional expression, colloquial units, and instances of code-switching. Additionally, the article examines the differences among journalistic, official, literary, and popular science styles that have become prevalent on social networks.

Keywords: social networks, linguostylistic analysis, communicative environment, expressiveness, code-switching

About the author:

Mirzayeva Nargiza Abdukakharovna — Head of the Department of Uzbek Language and Literature at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology. nargizamirzaeva465@gmail.com

SUN'IY INTELLEKTNING JURNALISTIKAGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR, XAVFLAR VA TARTIBGA SOLISH ZARURATI

Munira Nazarova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt (SI)ning jurnalistikaga ta'sirini tahlil qiladi hamda yangiliklarni yaratish va tarqatish jarayonida texnologik imkoniyatlarning o'rni va ahamiyatini ochib beradi. Ilmiy maqolalar tahlili asosida jurnalistikada SI integratsiyasining afzalliklari va xavf-xatarlarini aniqlashga harakat qilindi. Natijalarga ko'ra, sun'iy intellekt kontent yaratish tezligini oshirish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlarini taklif qilsa-da, sifatsiz kontent, lingvistik xatolar, dezinformatsiya va jurnalist kasbining qadrsizlanishi kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot SI vositalaridan foydalanishda axloqiy me'yorlar, shaffoflik va inson nazorati zarurligini ta'kidlab, jurnalistning faktlarni tekshirish, kontekstni anglash va ishonchlilikni ta'minlashdagi o'rni hanuz muhimligini ko'rsatadi. SI jurnalistni almashtiruvchi emas, balki uning faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida baholanishi lozim.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, media, ma'lumotlar bazasi, kontent, dezinformatsiya

Texnologik taraqqiyot tufayli sun'iy intellekt (SI)dan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Bu jarayon ayniqsa, axborot va kommunikatsiyaga asoslangan jurnalistika sohasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda jurnalistik amaliyotda SI texnologiyalarining qo'llanilishi turli yo'nalishlarda tadqiq qilinib, bu texnologiyaning imkoniyat va muammolari atroflicha o'rganildi (Caswell, 2023). Ushbu tadqiqotda SI'ning jurnalistikadagi o'rnini baholashga qaratilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Asosiy maqsad — SI'ning jurnalistikaga ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlilga tortish va bu orqali SIning sohaga ta'sirini, yangiliklarni chuqurroq anglashga zamin yaratishdir.

Tahlillar natijasida olingan kuzatuvlar asosida SI'ning jurnalistikaga ta'siri ikki yo'nalishda — imkoniyat va xatarlar shaklida ajratib ko'rsatildi. Bu yondashuv umumiy "yaxshi-yomon" baholar bilan chegaralanmay, har bir holatning mohiyatiga chuqur kirib borishni nazarda tutadi. Tadqiqot shuningdek, jurnalistikaning hozirgi sharoitda qanday o'zgarayotganini tushunish uchun sohaga aloqador mavzularni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu tezis nafaqat kommunikatsiya sohasidagi tadqiqotchilar uchun, balki jurnalistikaning professional taraqqiyotiga ham muhim hissa qo'shishi kutilmoqda. Jurnalistlar nafaqat axborot yetkazuvchi, balki jamiyatda ishonchli ma'lumotlar oqimini ta'minlovchi asosiy faktor sifatida faoliyat yuritadi (Diakopoulos, 2019). Zero, jurnalist dolzarb axborotni aniqlik bilan tekshirib, ijtimoiy muhokamalar uchun asos yaratadigan kontent ishlab chiqarishda markaziy rol o'ynaydi (Kunczik, 2002). Bunday sharoitda, SI vositalaridan samarali foydalanish jurnalistning bu vazifalarni yanada tez va keng ko'lamda amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, jurnalistik amaliyotda sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq uchta asosiy salbiy oqibat aniqlandi:

Eng ko'p qayd etilgan muammolardan biri — sifatsiz kontent (23%) bo'lib, u ayniqsa murakkab va shaxsiy fikrlarni o'z ichiga olgan subyektiv matnlar bilan ishlashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha (Georgiou, 2025), sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan va bir qarashda inson yozgan matnga o'xshash kontekstlar tahlil qilinganida, ko'plab lingvistik xususiyatlarda sezilarli farqlar aniqlandi. Bu xususiyatlar qatoriga ega va kesim moslashuvdagi xatolar, ot, sifat, olmosh, aniqlovchi va ko'makchilar, qo'shma so'zlardan hamda iboralardan foydalanish va boshqalar kiradi.

Bugungi kunda SI yordamida kontent ishlab chiqarish vositalari hamma uchun mavjud bo'lib, maxsus texnik bilimlarni talab qilmaydi. Masalan, OpenAI'ning ChatGPT' SI vositasi hatto mutaxassis bo'lmaganlarga ham sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi. Shunga qaramay, SI yaratayotgan content inson ixtirosining mahsulidir. Xususan, tilga kelsak, "sun'iy intellekt fikr bildirish qobiliyatini taqlid qilishi mumkin, ammo bu fikrlar shaxsiy e'tiqodlar yoki his-tuyg'ularga emas, balki algoritmilar va qayta ishlangan ma'lumotlarga asoslanadi" (Assis, 2023). Shunday qilib, sun'iy intellekt lingvistik usullardan foydalana olsa-da, unda ishtirok etuvchi subyektning konteksti yo'q va u statistik jihatdan bog'liq natijalarni beradi, ammo ichki ma'noga ega emas.

Yana bir muhim xavf omili sifatida dezinformatsiya tilga olingan bo'lib (14%), bu holat

asosan ishonchli manbalarga tayanmaslik va faktlarni tekshirish mexanizmining zaifligi bilan bog'liq deb topildi. Ushbu muammo, ayniqsa, axborot oqimining tezligi ortib borayotgan sharoitda dolzarb ahamiyatga ega.

Haqiqat faktlar va voqelikni aks ettiradi, biroq u qasddan yoki beixtiyor buzib ko'rsatilishi natijasida noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Bunday buzilish algoritmik noto'g'ri ma'lumotlarni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoq algoritmlari, boshqa kontentga zarar yetkazsa ham, foydalanuvchi qiziqishlarini birinchi o'ringa qo'yib, ularning e'tiborini saqlab qolishga harakat qiladi. Mazkur mexanizm axborot pufaklarini shakllantiradi va yolg'on ma'lumotlarning tarqalishiga sabab bo'ladi (Silva & Pôrto Júnior, 2024).

Odamlar axborot manbalarini tanlash huquqiga ega bo'lsa-da, ularni ma'qullash yoki tarqatish orqali o'zi bilmagan holda dezinformatsiyani yoyilishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin. "Pufak fenomeni soxta yangiliklarning tarqalishiga asos bo'lib, jurnalistika tamoyillariga putur yetkazadi" (Kaufman & Santaella, 2020). Dezinformatsiyaga qarshi kurash ishonchli ma'lumotlarni targ'ib qilish va boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan boshlanadi.

Jurnalistlikaning kasb yoki faoliyat sifatida yo'qolish xavfi ham tadqiqotda ko'tarilgan muhim masalalardan biri bo'ldi (14%). Obyekt sifatida tanlab olingan ilmiy tadqiqot materiallarida mualliflar sun'iy intellektning axborotni avtomatik tarzda yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlash qobiliyati tufayli jurnalistlariga bo'lgan ehtiyoj pasayib ketishi mumkinligi haqida xavotirli fikrlar bildirgan (Yeste-Piquer, 2025). Bu holat texnologiya taraqqiyoti bilan bog'liq axloqiy hamda mehnat bozoriga oid ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Sun'iy intellekt jurnalistlarning o'rnini nazoratsiz egallashi haqidagi xavotirlar Braziliyaning 2338/2023-sonli qonun loyihasi kabi tartibga solish choralari zarurligini ko'rsatadi. Bu loyiha sun'iy intellektning hayot siklida inson ishtiroki va nazoratini ta'kidlaydi. Avtomatlashtirilgan jurnalistikaning salohiyati insonning minimal aralashuvi bilan kontent yaratishdan iborat, ammo bu sifat va ishonchlilik masalalarini ko'taradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda sun'iy intellektidan foydalanishning ijobiy jihatlari ham aniqlandi. Kontent yaratish tezligi (32%) sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri ekanligini ko'rsatdi. SI vositalari katta hajmdagi ma'lumotni qisqa vaqt ichida qayta ishlashga qodir bo'lib, bu jurnalistlar uchun vaqtni tejaydi va axborotni tezkor yetkazish imkonini beradi (Masum Molla & Ahsan, 2025).

Shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati (29%) ham muhim ijobiy omil sifatida baholandi. Sun'iy intellekt statistik va struktural ma'lumotlarni tahlil qilish orqali kontent ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi.

E'tiborga molik jihatlaridan yana biri – jurnalistlarning noyob kasbiy sifati (27%) bo'lib, u subyektiv fikrlash, manbalarni izchil tekshirish, kontekstni baholash va ijodiy yondashuv kabi SI tomonidan takrorlab bo'lmaydigan jihatlarni o'z ichiga oladi.

Bu haqida Payya shunday deya ta'kidlaydi: "Jurnalistika — bu haqiqatga tayanadigan qadriyatlar va professional tamoyillar tizimidir. Uning asosiy vazifasi — ishonchli va sifatli axborotni to'plash, tahrir qilish hamda ommaga yetkazishdir. Yangilik e'lon qilishdan oldin faktlarni tekshirish esa hal qiluvchi bosqich hisoblanadi" (Valente, 2024).

Bu nuqtai nazar jurnalistikaning sun'iy intellekt bilan raqobatlasha olmaydigan, lekin uni to'ldiruvchi insoniy tamoyillarga asoslanganligiga e'tibor qaratadi.

Ushbu tadqiqot sun'iy intellektning jurnalistikaga ta'sirini ikki yo'nalishda — imkoniyatlar va xatarlar orqali yoritdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, SI yangiliklarni tezkor yaratish va ma'lumotlarni tahlil qilishda samarali vosita bo'lsa-da, sifatli kontent yetishmasligi, dezinformatsiya xavfi va jurnalist kasbining qadrsizlanish ehtimoli kabi muammolar mavjud. Ayniqsa, lingvistik aniqlik va faktlarni tekshirish masalasida inson jurnalistining roli hal qiluvchi hisoblanadi.

Tadqiqot SI'ni jurnalist o'rnini bosuvchi emas, jurnalist faoliyatini to'ldiruvchi vosita sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda axloqiy me'yorlar, inson nazorati va shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jurnalistlarning ijodiy fikrlashi, kontekstni anglash va manbalarni izchil tekshirish qobiliyati SI tomonidan takrorlab bo'lmaydigan noyob kasbiy fazilat sifatida baholandi.

Xulosa qilib aytganda, jurnalistikada sun'iy intellektidan foydalanish masalasiga kompleks yondashuv zarur:

- huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish,

- muharrirlar va jurnalistlar uchun SI savodxonligini oshirish,
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish
- jurnalistikaning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun muhim omillar sifatida qayd etildi.

Sun'iy intellekt jurnalistikani yo'q qilmaydi — aksincha, u inson jurnalistikasining yangi davrini boshlab berishi mumkin. Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt ta'siri masalasiga yondashuvi barcha muammolar va imkoniyatlarni qamrab olmaydi, bu esa jurnalistikaning sun'iy intellekt salohiyatidan foydalanishini ta'minlash uchun tadqiqotlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Al Masum Molla, M., & Manjurul Ahsan, M. (2025). Artificial intelligence and journalism: A systematic bibliometric and thematic analysis of global research. *Computers in Human Behavior Reports*, 20, 100830. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.chbr.2025.100830>

Assis, F. (2023). Inteligência artificial e jornalismo opinativo: problematizando em diálogo com o ChatGPT. *Estudos em Jornalismo e Mídia*, 20(2), 63–75. DOI: <https://doi.org/10.5007/1984-6924.2023.95413>

Diakopoulos, N. (2019). *Automating the news: How algorithms are rewriting the media*. Harvard University Press. URL: <https://www.jstor.org/stable/j.ctv24w634d> (Date of Application: 16.11.2025).

Georgiou, G. P. (2025). Differentiating between human-written and AI-generated texts using automatically extracted linguistic features. *Information*, 16(11), 979. DOI: <https://doi.org/10.3390/info16110979>

Kaufman, D., & Santaella, L. (2020). O papel dos algoritmos de inteligência artificial nas redes sociais. *Revista FAMECOS*, 27(1), e34074. DOI: <https://doi.org/10.15448/1980-3729.2020.1.34074>

Kunczik, M. (2002). *Conceitos de jornalismo: Norte e Sul: manual de comunicação* (R. Varela Jr., Trans.; 2nd ed.). Ed USP. URL: <https://www.edusp.com.br/livros/conceitos-de-jornalismo/> (Date of Application: 16.11.2025).

Silva, A. A. da, & Pôrto Júnior, F. G. R. (2024). Algoritmos silenciadores: desinformação e espiral do silêncio na era da inteligência artificial. *Organicom*, 21(44), 147–158. DOI: <https://doi.org/10.11606/issn.2238-2593.organicom.2024.221079>

Valente, C. F. D. S. (2024). Inteligência artificial: o impacto no jornalismo e nos jornalistas. Universidade Fernando Pessoa. URL: <https://bdigital.ufp.pt/entities/publication/85d85433-1902-4d38-8b4d-640165734729> (Date of Application: 16.11.2025).

Yeste-Piquer, E., Suau-Martínez, J., Sintés-Olivella, M., & Xicoy-Comas, E. (2025). What if I prefer robot journalists? Trust and objectivity in the AI news ecosystem. *Journal. Media*, 6(2), 51. DOI: <https://doi.org/10.3390/journalmedia6020051>

Muallif haqida:

Nazarova Munira Yusupova — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ikkinchi bosqich tayanch doktoranti, munira_nazarova1601@mail.ru

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON JOURNALISM: OPPORTUNITIES, RISKS, AND THE NEED FOR REGULATION

Munira Nazarova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This study analyzes the impact of artificial intelligence (AI) on journalism and reveals the role and significance of technological capabilities in the process of news creation and dissemination. Based on the analysis of scientific articles, an attempt was made to identify the advantages and risks of AI integration in journalism. The results show that while artificial intelligence offers opportunities to increase the speed of content creation and enhance data analysis capabilities, it also leads to negative consequences such as poor quality content, linguistic errors, misinformation, and the devaluation of the journalism profession. The study emphasizes the necessity of ethical standards, transparency, and human oversight in the use of AI tools, highlighting that the journalist's role in fact-checking, understanding context, and ensuring credibility remains crucial. AI should be evaluated not as a replacement for journalists, but as a

tool that enhances their activities.

Keywords: artificial intelligence, media, database, content, misinformation

About the author:

Nazarova Munira Yusupova — Second-year basic doctoral student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, munira_nazarova1601@mail.ru

IQTISODIYODCHILAR NUTIQNING KONSEPTUAL KOMPETENTLIK XUSUSIYATLARI

Barnoxon Nuraliyeva, 
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisd muallif iqtisodchilarning kasbiy kompetensiya va nutqning rivojlanishi masalalari va ularning yechimlari haqida ma'lum bir ilmiy qarshlar va xulosalar qilgan. Bundan tashqari maqolada xorijlik olimlarning sohaga oid qarashlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, kompetensiya, muloqot, nazariya, kompetensiya

Bugungi kunda iqtisodchilarning kasbiy tilining holati va nutqiy kompetentsiya darajasini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Menejerlar ishining 80% nutq aloqalari bilan bog'liqligi zamonaviy biznes ritorika va kommunikatsiya tadqiqotlarining aksiomasi hisoblanadi.

Professor M. V. Koltunova kasbiy nutqni iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflab, shunday deydi: "Yuksak nutq madaniyati va rivojlangan mamlakatlarda rivojlangan iqtisodiyot bir-biridan ajralmasdir. Aksincha, jamiyatning past nutq madaniyati iqtisodiyotning tegishli rivojlanish darajasini va samaradorligini belgilaydi" (Колтунова, 2000).

Shubhasiz, nutq kompetensiyasi samarali kasbiy muloqotning asosi bo'lib, ishbilarmonlik faolligini oshirishga va mutaxassisning ijobiy imidjini shakllantirishga yordam beradi. Bu mutaxassislar — tilshunoslar, psixologlar va o'qituvchilarning "Iqtisodchilarning professional nutq kompetensiyasi" tushunchasining mohiyatiga qiziqishini tushuntiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, nutq kompetentsiyasi an'anaviy ravishda tilni bilish darajasini va uning nutq faoliyatida muloqot vazifalariga muvofiq amalga oshirilishining yetarliligini aks ettiruvchi shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida tushuniladi. Tadqiqot adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, lingvistik va nutqiy kompetentsiya orfologik, stilistik, pragmatik va ritorik komponentlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodchining og'zaki kompetensiyasining mohiyatini aniqlashda shuni ta'kidlash kerakki, bu tushuncha hozirgi vaqtda juda o'zboshimchalik bilan ajralib turadi va ilmiy asoslangan talqinga ega emas. Ikki paradoks bu haqiqatni tasdiqlaydi:

– "iqtisodchi" atamasi haqida umumlashtirilgan tushuncha;

– iqtisodiy mutaxassislar malakasida og'zaki kompetentsiya parametrlarining yetishmasligi.

"Iqtisodchi" ish tavsifining paradoksal tabiati uning aniq ravshanligi va umumiy qo'llanilishidadir. Biroq bizning tajribamiz shuni ko'rsatadiki, oliy ma'lumotli respondentlarning aksariyati ushbu atamaning qisqa va adekvat ta'rifini berishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Umuman olganda, an'anaviy talqin shundan iboratki, iqtisodchi — ishlab chiqarish sohasida — sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishning turli sohalarida — rejalashtirish, narxlarni belgilash, tovar tadqiqotlari va boshqalar bilan shug'ullanadigan mutaxassis. Iqtisodiyot deganda esa xalq xo'jaligining tarmoq va tarmoqlarini o'rganuvchi fan tushuniladi (Nasibboeva, 2025).

Nufuzli manbalardan ma'lumot olish bizga fanlarning keng doirasini aniqlash imkonini berdi, ularni o'zlashtirish, keyinchalik, "Iqtisodchi" malakasini olgan keng doiradagi mutaxassislarning malakasini oshirishning asosiy shartidir. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tizimli ravishda aks ettiruvchi iqtisodiy nazariyaga ko'ra, iqtisodiy fanlar quyidagilarga bo'linadi:

– umumiy iqtisodiy nazariya (iqtisodiyot, siyosiy iqtisod, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy ta'limotlar tarixi);

– o'ziga xos (tarmoqli: sanoat iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, tadbirkorlik, umumiy ovqatlanish, mehnat iqtisodiyoti va boshqalarni qamrab oluvchi savdo iqtisodiyoti; funksional, iqtisodiy statistika, buxgalteriya hisobi, moliya, iqtisodiy tahlil, nazorat, audit va boshqalar; mamlakatshunoslik, alohida mamlakatlar iqtisodiyoti, mintaqaviy iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti va boshqalar (Граудина & Ширяев, 1999)

Yuqoridagi tasnifga ko'ra, iqtisodchi, buxgalter, auditor, marketolog, moliyachi, tadbirkor, logistik, tovarshunos, ishlab chiqarish texnolog, menejer, reklama beruvchi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha mutaxassis va boshqalarning malakalari turli xil kasbiy faoliyat turlarining keng doirasini ko'rsatishi aniq bo'ladi. Iqtisodiy faoliyatning ko'p tarmoqliligi mohiyatan mutlaqo boshqa kasbiy mas'uliyatli, ko'pincha bir-birini almashtirib bo'lmaydigan mutaxassislarni yaratadi. Masalan, kuchli raqobatbardosh tashkilotlarga kadrlar tanlashda "Iqtisodchi" malakasiga emas, abituriyentning ixtisosligi ish talablariga mos kelishi barchaga ma'lum. Masalan, buxgalter

marketologning majburiyatlarini samarali bajarishga qodir emas va aksincha. Bu haqiqat iqtisodchi malakasiga ega bo'lgan mutaxassis, masalan, buxgalteriya hisobi bo'yicha, moliya sohasida ikkinchi oliy ma'lumotga ega bo'lishni xohlaydigan odatiy vaziyat bilan tasdiqlanadi.

Mutaxassisning mehnat vazifalari doirasidagi nutq faoliyatining tabiati ularning kasbiy kompetensiyasining o'ziga xosligi bilan belgilanishini hisobga olib, biz yana bir borta 'kidlaymizki, "iqtisodchining nutqiy kompetensiyasi" tushunchasi nihoyatda umumlashtirilgan, va, bu, ayniqsa, kasbiy tilni o'rganish kontekstida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan biz E. G. Yakovenkoning quyidagi fikriga qo'shilamiz: "Ko'p tarmoqli iqtisodiy kasb doirasida iqtisodchilar tilining tor ixtisoslashuvi shu qadar yuqori darajaga yetdiki, masalan, kompyuterlashtirilgan iqtisodiy va matematik prognozlash bilan shug'ullanadigan iqtisodchi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar sohasidagi barcha nozikliklarni tushunishi dargumon. Moliyachining professional tili iqtisodchi-statistik uchun deyarli hech narsani anglatmaydi va hokazo. Bularning barchasi kasbiy tilni sezilarli darajada murakkablashtiradi va o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi" (Гридер, 1996)

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "iqtisodchining nutqiy kompetensiyasi" tushunchasini ilmiy asoslangan, — deb tan olishda shubha tug'diradigan yana bir muhim muammo — bu mutaxassislarning malakaviy xususiyatlarida nutq kompetensiyasi parametrlarining yo'qligi. Shunday qilib, tipik mehnat majburiyatlari ro'yxatiga ko'ra, iqtisodchi, umuman olganda, "jim mutaxassis" sifatida namoyon bo'ladi: "... Korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi. Korxonaning xo'jalik, moliyaviy, ishlab chiqarish va tijorat faoliyati loyihalarini (biznes rejalarini) tayyorlash uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlaydi. Korxonaning moddiy, mehnat va iqtisodiy faoliyatining iqtisodiy tahlilini amalga oshiradi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish samaradorligini ta'minlaydi (Капрашова, 2006), buxgalter, moliyachi, tovar mutaxassisining malaka tavsiflari ham xuddi shunday tarzda keltirilgan (Капрашова, 2006).

Ushbu kasbiy xususiyatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, iqtisodchilarning og'zaki kompetensiyasi odatda quyidagi bilimlar bilan chegaralanadi:

- adabiy tilning o'ziga xosligi, bu ularga oliy ma'lumotli mutaxassis sifatidagi maqomini saqlab qolish va berilgan lavozim doirasida standartlashtirilgan muloqotni amalga oshirish imkonini beradi;

- tashkiliy me'yoriy hujjatlarda belgilangan ofis ish jarayoni va hujjat aylanishining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, bu xususiyatlar nihoyatda umumiy bo'lib, ishlab chiqarish sohasida ishlaydigan har qanday mutaxassisning og'zaki kompetensiyasiga osongina qo'llanilishi mumkinligi aniq. "Iqtisodchilarning nutqiy kompetensiyasi" tushunchasini aniqlashtirish uchun turli xil iqtisodiy sohalaridagi mutaxassislarning ish tavsiflarini tahlil qilish va ular uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan nutq faoliyatining tomonlarini aniqlash kerak.

Mavjud standartlarga ko'ra, "iqtisodchi" malakasi "past muloqot" va hatto og'zaki bo'lmagan xususiyatlar ro'yxatidan iborat. Shunga qaramay, iqtisodiy faoliyat haqidagi zamonaviy tushuncha ijobiy o'zgarishlarga uchraganligini ta'kidlashimiz kerak: "Iqtisodiyot fani ishlab chiqarishdagi odamlar munosabatlarini, "narsalar haqidagi" munosabatlarni o'rgangan bo'lsa, endi shaxsiy, sub'ektiv omillarning iqtisodiy munosabatlarga ta'siriga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyot va psixologiya bir xil ob'ektni o'rganuvchi bilimning ikkita tarmog'i ekanligiga ishoniladi" (Гурьева, 2006).

Iqtisodiyotning antropotsentrizmi iqtisodiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, biznes psixologiyasi kabi fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Reklamachilar, mutaxassislar, marketologlar, menejerlar, savdo agentlari va distribyutorlar ishining kasbiy o'ziga xos xususiyatlari butunlay mutaxassislarning iqtisodiy va psixologik vakolatlarining sinkretizmiga asoslanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy jarayonlarning inson omiliga bog'liqligini asoslash, bizningcha, ushbu soha mutaxassislarning mehnat vazifalari mohiyatini aniqlashga yondashuvni biroz o'zgartirdi. "Menejerlar, mutaxassislar va boshqa xodimlarning lavozimlari to'g'risidagi malaka qo'llanmasi" (Safarov, 2006) ni o'rganishimizni taqozo etadi. Bizni bugungi kunda rasmiy iqtisodiy kasblar ikki toifaga bo'lingan degan xulosaga olib keldi (Гурьева, 2006):

- faol kommunikativ, ular uchun og'zaki muloqot kasbiy ahamiyatga ega va og'zaki kompetensiya darajasi mutaxassisning ishining muvaffaqiyatini belgilaydi (so'zma-so'z asosiy iqtisodiy ko'rsatkich – foyda ta'sir qiladi);

– passiv kommunikativ, uning og‘zaki faoliyati standartlashtirilgan ish yuritish bilan bog‘liq.

Birinchi toifadagi mutaxassislarni shartli ravishda “iqtisodchi-kommunikator”, — deb atash mumkin. Ularga menejerlar, marketologlar, ishbilarmonlar (dilerlar, brokerlar va boshqalar), auditorlar, reklama beruvchilar va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassislar kiradi. Ushbu kasb vakillari uchun og‘zaki muloqot muhimligini ta’kidlab, nufuzli tadqiqotchilarning fikrlarini taqdim etamiz.

Shunday qilib, xususan, A.P.Panfilova ta’kidlashicha, inglizlarning 63%, amerikaliklarning 73%, yapon rahbarlarining 85% (top-menejerlar) o‘z tashkilotlari samaradorligiga erishishning asosiy sharti sifatida muloqotni ta’kidlaydilar va rahbarlarning o‘zlari vaqtlarining 50 dan 90% gacha vaqtini bunga sarflaydilar (Qulmatov, 2007).

Passiv-kommunikativ kasblar vakillarini “iqtisodchi-rekordchilar”, — deb atash mumkin – bular orasida buxgalterlar, moliyaviy tahlilchilar, sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari, oziq-ovqat mahsulotlari, statistik tahlillar, tovar ekspertlari va logistika bo‘yicha mutaxassislar mavjud. Ushbu mutaxassislarning ish ta’riflarida og‘zaki kompetentsiya uchun aniq (tartibga soluvchi) talablar mavjudligi ta’kidlanmagan.

Demak, iqtisodchi-kommunikatorlarning og‘zaki kompetensiyasi iqtisodchi-rekordchilarnikidan ko‘ra mazmunliroq tushuncha ekanligi mantiqan to‘g‘ri va bu mutaxassislarning nutq talablari tahlili bilan tasdiqlanadi. Masalan, malaka xususiyatlariga ko‘ra, menejer xodimlarni yollash va joylashtirish, ularning malakasini oshirish uchun motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, biznes sheriklari va mijozlari bilan munosabatlarni tashkil etish, innovatsion faoliyatni, reklama strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va bozorni o‘rganish uchun javobgardir (Капрамова, 2006).

Menejerlarning ijtimoiy rollari xilma-xildir: sotuvchi, xaridor, mijoz, menejer, bo‘ysunuvchi. Ushbu rollarning har biri o‘ziga xos og‘zaki xatti-harakatlar turini talab qiladi. Shunday qilib, ushbu mutaxassis uchun asosiy kompetentsiya talabi — bu muloqot qobiliyatlari — sheriklarga ta’sir qilish va o‘zaro tushunishga erishish uchun og‘zaki va yozma til, stilistik va boshqa ekspressiv vositalardan samarali foydalanish qobiliyati.

Bizning fikrimizcha, ushbu soha mutaxassisining nutq faoliyatiga qo‘yiladigan kasbiy talablar quyidagilardan iborat:

Professional ritorika sohasida:

- kasbiy til terminologiyasini bilish;
- professional nutq muammolarini hal qilish mahorati: taqdimotlarni (mahsulot, xizmat yoki kompaniya) tayyorlash va taqdim etish, reklama matnlarini yaratish va tahlil qilish, tijorat samaradorligiga erishish uchun o‘zini samarali taqdim etish qobiliyati.

Pragmatika sohasida:

- ziddiyatli va tanqidiy vaziyatlarda to‘g‘ri nutq xatti-harakatlarini namayyon etish;
- ishbilarmonlik muloqotida pragmatik tilshunoslikdan, xususan, kasbiy nutq odob-axloq qoidalarining iltifotlari va formulalaridan samarali foydalanish;

Muvaffaqiyatli muzokaralar olib borish va telefon suhbatlarini o‘tkazish, ishbilarmonlik bilan bog‘liq murakkab vaziyatlarni yengish qobiliyatini ko‘rsata olish;

- ishbilarmonlik yozishmalari etikasi va odob-axloq qoidalarini bilish.

Orfologiya sohasida:

- nutq va kasbiy matnlarni adabiy til me’yorlariga rioya qilish nuqtai nazaridan tahlil qilish mahorati, nutq va adabiyotni tahrirlash qobiliyati.

Stilistika sohasida:

- kasbiy ahamiyatga ega uslublarning (rasmiy, biznes, ilmiy) xususiyatlarini bilish;
- muayyan korxona ish yuritish uchun tegishli janrlarning matn me’yorlarini bilish;
- stilistik o‘zgartirish mahoratiga ega bo‘lish.

Bizning fikrimizcha, iqtisodchilarning nutqiy kompetensiya tushunchasini talqinini kasbiy tilning mohiyati va o‘ziga xosligini lingvistik tahlil qilmasdan turib, to‘liq,- deb bo‘lmaydi. Professional tilni maxsus belgilar tizimi sifatida adekvat tavsiflash masalasi hozirda juda dolzarb. Ma’lumki, kasbiy til ilmiy uslub doirasida vujudga keladigan, ixtisoslashgan bo‘lmagan munosabatlar – kundalik, oilaviy va hokazolardan farqli ravishda kasbiy muloqot sohasiga xizmat qiluvchi adabiy tilning alohida xilma-xilligidir.

Ingliz tili tilshunosligida ushbu tushunchani belgilash uchun maxsus maqsadlar uchun tillar (LSP — maxsus maqsadlar uchun til) va nemis tilidagi tilshunoslikda — Fachsprachen

(predmet tili) tushunchasi mavjud. Rus tilshunosligida adabiy tilning bu xilma-xilligi ko'pincha "funktional til", "ixtisoslashgan til" yoki "professional til", — deb ataladi (chunki u professional mutaxassislar o'rtasidagi muloqot vositasidir).

"Kasbiy til" tushunchasining mohiyati va uning paydo bo'lish sabablari psixologlarning tadqiqotlarida eng chuqur ochib berilgan. Xususan, A. A. Leontievning fikricha, o'zgarma "dunyo tasvirlari" tizimi — turli odamlar tomonidan dunyoni ko'rishda umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi mavhum modellar mavjud. Shu nuqtai nazardan, "dunyoning professional qiyofasi" tushunchasi paydo bo'ladi, uning shakllanishi mutaxassislikni o'qitish vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash joizki, dunyo tasvirining "o'zgarma" asosan kasbiy tilning tezaurus darajasi: maxsus lug'at, professionalizm, terminologiyadan foydalanish tufayli erishiladi. Bundan tashqari, kasbiy til tematik makromaydonni tashkil etuvchi asosiy tushunchalar tizimidir. Demak, iqtisodchilar uchun bu top menejment (strategik marketing, korxona missiyasi, uzoq muddatli maqsadlar, korporativ strategiya); xodimlar (rahbarlar, aktsiyadorlar, mehnat resurslari); moliya (byudjet, kredit, investitsiyalar); ishlab chiqarish (ishlab chiqarish omillari, texnologiya, mahsulot, xizmatlar); marketing (reklama, bozor, tashqi savdo operatsiyalari); Sotish (mahsulot, narx, tarif); logistika (uskunalar, transport vositalari, xom ashyo); iqtisodiy omillar (inflatsiya, valyuta kursi, bandlik darajasi) (Nasibboeva, 2025).

Iqtisodchi malakasining ko'p tarmoqli xususiyatini hisobga olgan holda, iqtisodiy mutaxassisliklar tillarida o'z aksini topgan o'zgarma dunyoqarash tizimlari bir-biriga nisbatan izolyatsiyasi va o'zini o'zi ta'minlashi bilan tavsiflanadi, deb ta'kidlash mumkin. Shunday qilib, biz "iqtisodchi" malakasiga ega bo'lgan barcha mutaxassislar uchun universal iqtisodiy til mavjud emas, — deb hisoblaymiz. Biroq iqtisodiy tilning birligi haqida iqtisodiy sohadagi barcha mutaxassislarning kasbiy lug'at tezaurilarining yig'indisi sifatida gapirish mumkin.

Iqtisodchilarning kasbiy tilining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy nazariyaning predmeti odamlarning iqtisodiy xatti-harakatlari hisoblanadi. Iqtisodiy odamning eng keng tarqalgan nazariyasi "homo ekonomikus" quyidagilarga asoslanadi: shaxs o'zini ma'lum cheklovlar (pul daromadlari) doirasida foydani maksimal darajada oshiradigan tarzda tutadi. Ratsional xulq — cheklangan resurslar sharoitida minimal xarajatlar bilan maksimal natijalarga erishish.

Iqtisodchilarning og'zaki xatti-harakatlarining samaradorligi tashkilotning foydasiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun bu mutaxassislarning tilini pragmatik-utilitar, — deb ta'riflash mumkin (pragmatizmni an'anaviy tushinishda amaliyot va tajribaga asoslangan, amaliy maqsadlarni ko'zlaydigan xatti-harakatlar).

Shunday qilib, kasbiy tilni shakllantirishning yangi tendentsiyalari paydo bo'ladi: ekspressivlik va metaforik subtekst. Xususan, bu tendentsiyalar zamonaviy terminologiyaning paradoksal shakllanishida namoyon bo'ladi: metafora asosidagi ekspressiv atamalarining ko'pligi. Bu, ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bilan ishlaydigan brokerning professional faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi: "obligatsiyalarni yuvish" (qimmatli qog'ozlarni dividendlar va ular bo'yicha foizlarni to'lashdan oldin sotish va bunday to'lovlardan keyin ularni sotib olish); "ayiq" (birja spekulyatori qimmatli qog'ozlar narxining pasayishiga pul tikadi); "greenmail" (investitsiya strategiyasi bo'lib, unda investor yoki investorlar guruhi kompaniyaning muhim aktsiyalarini sotib oladi va keyin ularni bozor narxidan sezilarli darajada yuqori narxda o'sha kompaniyaga qaytaradi).

Kommunikativ iqtisodiy faoliyatning boshqa sohalaridan misollar ham qiziq emas. Jumladan, iqtisodiy va yuridik atamalarining izohli lug'atida pul tushunchasini va uning turlarini ochuvchi 10 ta metaforik atama sanab o'tilgan: "pulni eshitish" (kvazi-pul); "tashqi pul"; "ichki pul"; "issiq pul"; "arzon pul"; "uzoq pul"; "aziz pul"; "qisqa pul"; "mayda pul"; "og'ir pul". Lug'atda deyarli she'riy xarakterga ega bo'lgan misollar mavjud: "yaxshi niyat" (kompaniyaning nomoddiy kapitali: brend obro'si, obro'si); "qora ritsar" (kompaniyaga nomaqbul taklif qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs); "kulrang ritsar" (yakuniy niyatlari hech kimga noma'lum bo'lgan kompaniyani boshqarish uchun kurashdagi raqib); "o'lim-vodiysi-egri" (yangi kompaniyaga qo'yilgan venchur kapitalining qisqarish tezligini aks ettiruvchi grafikdagi egri chiziq).

Majoziy atamalardan tashqari, iqtisodchilarning zamonaviy professional tili o'zining ekspressivligi, qo'llanilishi tufayli yana bir atipik xususiyatga ega: jargon kelib chiqishi atamalaridan foydalanish. Xususan, "birja portfeli" lug'ati shunday atamalar bilan to'ldiriladi: "quid pro quo" (birja ishidagi chalkashlik, tartibsizlik, natijada birjada savdo bitimlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi); "hammasi yoki hech narsa" (buyurtma mijozning brokerga

barcha qimmatli qog'ozlarni sotish/sotib olish yoki umuman sotmaslik/sotib olmaslik haqidagi iltimosi); "shu jumladan, barcha" — "barcha huquqlarni o'z ichiga olgan holda" (shu jumladan, yangi egasi ushbu aktsiyalarga egalik qilishdan barcha qo'shimcha imtiyozlarni sotib olgan aktsiyalarning narxini belgilash); "sizniki, men sotaman" (birja savdolarida qo'llaniladigan ibora egasining ma'lum bir valyutani taklif qilingan kurs bo'yicha sotishga roziligini bildiradi) (Колтунова, 2000).

Iqtisodchilar tilining rivojlanishidagi yana bir zamonaviy tendentsiya professional frazeologiyaning ko'pligi bo'lib, uning uslubining o'ziga xos ommalashishiga yordam beradi — ma'lumki, frazeologik birliklar barqaror, keng qo'llanilishi, iboralar tufayli tilda mustahkamlangan. Shunday qilib, hatto iqtisodiy kasblarning murakkabligi bo'yicha "bilmaganlar" ham shunday iboralarni yaxshi bilishadi: "iste'mol savati", "narx qaychi", "birja stub", "teskari vites", "o'lik markaz" va "temir qonuni" (Леонтьев, 1999).

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarimizga tayangan holda ta'kidlamoqchimizki, bizning fikrimizcha, iqtisodchilarning zamonaviy professional tilini shakllantirish tendentsiyalaridan biri uning ommaviylashuvi va ekspressivligi — ixtisoslashgan tillar uchun atipik xususiyatlar bilan bog'liqligi aniq bo'lmoqda. Ushbu o'zgarishlarning mumkin bo'lgan bilvosita sabablari kasbning g'ayrioddiy mashhurligini va shuning uchun uning ommaviyligini o'z ichiga oladi; uning vakillarining sezilarli darajada yoshroq kontingenti (slang, jargon va formulalardagi ekspressiv lakonizm hodisalari).

Marketing kommunikatsiyalariga ixtisoslashgan iqtisodchilar (marketologlar, reklama beruvchilar, menejerlar, savdo menejerlari va boshqalar) tilida yanada qiziqarli tendentsiyalar kuzatiladi. An'anaga ko'ra, marketing kommunikatsiyalari kompleksi reklama, jamoatchilik bilan aloqalar, to'g'ridan-to'g'ri marketing va mahsulotni ilgari surishning integratsiyalashgan shakllarini (ko'rgazmalar, yarmarkalar, taqdimotlar va boshqalar) o'z ichiga oladi. Ushbu reklama va axborot janrlari qat'iy tartibga solinmaydi. Bundan tashqari, ushbu janrlar doirasidagi nutq strategiyasining sifati klişelarga (rasmiy biznes uslubidagi kabi) rioya qilish bilan emas, balki ularning yo'qligi, ya'ni ijodkorlik va o'ziga xoslik darajasi bilan belgilanadi. Ushbu janrlar o'zlarining ma'lumot berish funksiyasidan tashqari, taklif qiluvchi funktsiyaga ham ega - ular xarid qilish odatlari va talabga ta'sir qiladi, pirovardida iste'molchilarning qiymat tushunchalarini moslashtiradi. Bir tomondan, bu mafkuraviy ta'sirga eng moyil bo'lgan gipnoz qilinadigan auditoriyaning mentalitetiga salbiy ta'sir qiladi. Yuqori malakali menejer, masalan, Coca-Cola yoki Frutella iste'mol qilish zaruratini osongina singdira oladi (Панфилова, 2001).

Boshqa tomondan, reklama va marketing kommunikatsiyalari janrlari o'ziga xos tabiatiga ko'ra, yosh, lekin allaqachon muvaffaqiyatli bo'lgan mutaxassislarning ishtiyoqi, jozibasi va energiyasiga asoslangan o'ziga xos ijobiy dunyoqarashni rivojlantiradi. Ushbu faoliyatda asosiy rol professional tilga tegishli bo'lib, u endi stilistik jihatdan neytral bo'lolmaydi, aksincha, iloji boricha ko'proq ifoda va hissiyotlarni o'z ichiga olishi kerak. Neyrolingvistik dasturlash muammolarini o'rganayotgan psixolingvistlarning fikriga ko'ra, bizning dunyoni idrok etishimiz qisman bizning tasvirimiz, ya'ni o'z tajribamizni til yordamida taqdim etish bilan belgilanadi (Гриджер, 1996).

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, biz nima deyishimiz va uni qanday aytishimiz kasbiy mahoratimizni shakllantiradi. Bundan mantiqan kelib chiqadiki, dunyoqarashimizni o'zgartirish uchun tilimizni o'zgartirish kerak. Psixologlarning ilmiy izlanishlari asosida o'ziga xos professional tilni yaratadigan marketologlar ishi o'rtasida ma'lum bir o'xshashlikni kuzatish mumkin: "mustahkam moliyaviy poydevor"; "noyob ixtirolar va eng yangi texnologiyalar"; "hatto eng talabchan mijozni ham qondira oladigan mahsulotlarning keng assortimenti"; "Doimiy takomillashib borayotgan loyiha"... Ushbu iboralar ro'yxati universaldir — uni har qanday mahsulot bilan ishlashni tavsiflashda muvaffaqiyatli qo'llash mumkin (Панфилова, 2004).

Reklamaning o'ziga xos funktsiyasi axloqiy nuqtai nazardan noaniqdir: mahsulot to'g'risida ma'lumot tashuvchisi sifatida u o'ziga xos bilvosita maqsadga ega — iste'molchini ushbu mahsulotni sotib olishga undash. Reklamaga "ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi pullik aloqa shakli" sifatida ta'rif berilishi bejiz emas. Qanday bo'lmasin, reklama potentsial iste'molchilar ongini manipulyatsiya qilish shakli bo'lib, ko'pincha sun'iy mafkurani yaratish orqali erishiladi. Masalan, sun'iy ravishda targ'ib qilinayotgan imidj va obro'-e'tibor mafkuralari iste'molchilarni qimmatroq tovarlar (mobil telefonlar, avtomobillar) sotib olishga majbur qiladi.

Shunday qilib, ravshanki, kasbiy faoliyatning nafaqat pragmatik, balki kasbning etikasi va psixologiyasi bilan ham tavsiflangan o'ziga xos xususiyati, iqtisodiy tilning xususiyatlarini

va, demak, mutaxassislarning ogʻzaki kompetentsiyasini shakllantiradi. Shubhasiz, ushbu tushunchalar mazmunining adekvat tavsifi faqat sof lingvistik (normativ, stilistik) jihatlarni tahlil qilishga asoslanishi mumkin emas va professional muloqotda ogʻzaki xatti-harakatlarning barcha masalalarini aks ettirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Nasibboeva, M. (2025). Ingliz va oʻzbek tillarida moliyaviy-iqtisodiy atamalarining lingvistik tadqiqi: nazariy yondashuvlar. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika, Maxsus son (3), 285–291. <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp285-291>

Safarov B.T. Iqtisod yoʻnalishidagi mutaxassislarning malakalarini oshirishda kasbiy til va nutq muammolari.//GulDU ilmiy axborotnomasi. №2, 2008.

Qulmatov Ch. Iqtisodiy terminlarni oʻrganish masalalari.//FarDU xabarlar.№3, 2007.

Карташова, Л. В. (2006). Организационное поведение. Учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям. Москва, ИВФРА-М. 218 с. URL: https://www.vir.nw.ru/wp-content/uploads/2018/09/Organizatsionnoe-povedenie-Kartashova_pedagogika.pdf (Дата обращения: 27.10.2025).

Гриднер, Д. (1996). NLP. Структура магии, СПб, Белый кролик. 496 с. URL: <https://www.lib.ru/NLP/magianlp1.txt> (Дата обращения: 27.10.2025).

Гурьева З. И. (2003). Речевая коммуникация в сфере бизнеса: лингвопрагматический аспект. Кубанский гос. Университет, 251 с. URL: <https://www.dissercat.com/content/recheyaya-kommunikatsiya-v-sfere-biznesa-k-sozdaniyu-integrativnoi-teorii-na-materiale-tekst> (Дата обращения: 27.10.2025).

Колтунова, М. В. (2000). Язык и деловое общение: Учебное пособие для экономических вузов. Москва, Экономика. 362 с. URL: <https://studfile.net/preview/2112901/> (Дата обращения: 27.10.2025).

Леонтьев, А.А. (2001). Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии [Электронный ресурс]: избранные психологические труды. Москва, Воронеж: МОДЭК, 444, с. URL:http://tlib.gbs.spb.ru/dl/6/Леонтьев_Алексей_Алексеевич_Язык_и_речевая_деятельность_в_общей_и_педагогической_психологии.pdf (Дата обращения: 27.10.2025).

Панфилова А. П. (2004). Деловая коммуникация в профессиональной деятельности: [Учебное пособие] СПб., Знание, ИВЭСЭП/ 495 с. URL: <https://www.klex.ru/1awr> (Дата обращения: 27.10.2025).

Muallif haqida:

Nuraliyeva Barnoxon Quadrat qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti oʻqituvchisi, tadqiqotchi. b.musirmanova@mail.ru

CONCEPTUAL COMPETENCE CHARACTERISTICS OF ECONOMISTS' SPEECH

Barnoxon Nuraliyeva,
Tashkent State University of Economics

Abstract: In this thesis, the author presents specific scientific observations and conclusions regarding the issues of professional competence and speech development of economists, as well as their solutions. Additionally, the article analyzes the perspectives of foreign scholars in this field.

Keywords: economy, speech, language, competence, communication

About the author:

Nuraliyeva Barnoxon Quadrat qizi — teacher at Tashkent State University of Economics, researcher. b.musirmanova@mail.ru

FONETIK HODISALAR TA'LIMINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Furqat Nurmanov, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar univertiteti

Annotatsiya: Til sathi fonetik tizimi uni o'rganishning dastlabki va asosiy bosqichi sanaladi. Og'zaki va yozma nutq o'ziga xos me'yorlari bilan farq qiladi. So'z talaffuzi har doim ham yozma nutqda o'zgarishsiz ifodalanmaydi. Ushbu tezida nutq jarayonida yuz beradigan fonetik hodisalar, ularning turlari, tarixan hamda zamonaviy shakllari haqidagi tadqiqotchilarning ilmiy fikrlari keltirilib, ularga munosabat bildirilgan. Fonetik hodisalar barcha tillarda mavjudligi hamda uning tabiiy hodisa ekanligi tilshunoslikka oid eksperimental tadqiqotlarda keltiriladi. Fonetik hodisalar nutq jarayonida so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siri asosida yuz berishi, bu jarayon nutqda qulaylikka intilish natijasidir.

Kalit so'zlar: fonetika, og'zaki nutq, yozma nutq, kombinator, pozitsion o'zgarishlar

Til tizimida uning fonetika bo'limi alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur bo'limda nutq tovushlarining paydo bo'lishi, fizik xususiyati va ularning idrok qilinishi o'rganiladi.

Ma'lumki, tabiatda tovushlar uch xil: fizik, biologik va nutq tovushi. Bulardan nutq tovushi kishilik jamiyati bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan va shuning uchun ham u ijtimoiy tabiatga ega. Qadimgi Hind, Yunon faylasuflarining til fonetikasiga alohida e'tiborli bo'lganining ham sababi shu.

Tilshunoslikning barcha bo'limlari o'zaro bo'g'lik, jumladan fonetikaning morfologiya va sintaksis, leksika va stilistika bilan uzviy bog'liqligini nutq jarayonida aniq ko'rish mumkin. Chunki tilning barcha birliklari (so'z, so'z shakli, so'z birikmalari va frazalar) tovushlar qobig'idan tshkil topgan.

Inson tafakkurida biror bir hodisa yoki narsa tasavvur etilganda uni nutqqa chiqarish uchun turli fonema, morfemalarni umumlashtirib so'z shakl – leksemaga aylantiriladi, bu leksemalar asosida ma'lum sintaktik birlik (gap) shakllantiriladi.

Nutq jarayonida boshqa jarayonlardagi kabi qulaylikka intilish tabiiy holat. Talaffuz jarayoniga e'tibor berilsa, ayrim holatlarda ba'zi so'zlardagi tovushlarning tushib qolishi yoki aksincha orttirilishi, yo o'rin almashinishi, oldingi tovush ta'sirida keyingi tovushning o'z shaklini o'zgartirishi kabi turli fonetik jarayonlarni kuzatish mumkin. Bu faqat og'zaki nutqda emas, yozma nutqda uchraydi. Bu so'zlovchining nutq jarayonida qulaylikka intilish natijasida kelib chiqadigan hodisalardir.

Turkiy tillar tarixida ham, hozirgi davr o'zbek adabiy tili og'zaki va yozma shakllarida, xalq shevalarida uchrovchi bu fonetik hodisalar turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan (Qoshg'ariy, 1960; Abdullayev, 1961; Hojiahmedov va Madayev, 2022; Nurmonov, 2002; Jamolxonov, 2009; Jamolxonov, 2005).

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi va bu ta'sir tovush o'zgarishiga olib keladi. Masalan, yurt so'ziga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi –da, chiqish kelishigi qo'shimchasi –dan qo'shilganda, so'z oxiridagi t tovushi qo'shimchada d tovushiga ta'sir qilib, uni t tovushiga aylantiradi: yurt+da-yurtta, yurt+dan-yurttan kabi (ad. orf. yurtta, yurtdan). Shu hodisani bir sanoq soniga –ta qo'shimchasi qo'shilganda ham kuzatish mumkin.

Leksema tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta'sir qilmagan holda ham o'zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning leksema tarkibidagi o'rni (qanday tartibda joylashganligi); leksema boshi yoki oxirida, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, kitob, maktab, sarob, janob, sharob, niqob leksemalari oxida kelgan b jarangli undosh p tarzida talaffuz qilinadi; relyativ, negativ, normativ, deklarativ, direktiv kabi ruscha-internatsional leksema oxirida kelgan v jarangli undosh f tarzida; voleybol, olimpiada kabi ruscha-internatsional leksemalar urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi a tarzida talaffuz qilinadi: voleybol, olimpiada. Bunday hodisalarning sodir bo'lishida nutqda ixchamlikka intilish, bo'g'inda urg'uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o'tgan so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo'lishi mumkin.

Demak nutq tovushlarining o'zgarishi ikki turga bo'linadi:

1. Kombinator o'zgarishlar. 2. Pozitsion o'zgarishlar.

So'z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan tovush o'zgarishi (fonetik o'zgarish) kombinator o'zgarish deyiladi. Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar pozitsion o'zgarishlar deyiladi.

So'z tarkibida fonetik o'zgarishlar asosan tovushlarning o'zaro bir –biriga ta'siri jarayonida yuz beradi. So'zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar va jarangsiz undoshlar ma'lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o'xshashlik yoki noo'xshashlik tomon o'zgaradi, natijada kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari vujudga keladi. So'z tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarga singormonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush qo'shilishi, tovush o'zgarishi kabilar kiradi (Tursunov, 1992).

H.Jamolxonovga ko'ra, fonetik hodisalar fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon bo'lishi bo'lib, bunday ottenkalarining yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator-pozitsion) va b. omillarning ishtiroki etadi. Olimning ta'kidlashicha, ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat (Jamolxonov, 2009):

I. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan o'zgarishlar: assimilyatsiya, akkomadatsiya, dissimilyatsiya, nazalizatsiya.

II. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar: reduksiya.

III. Tukiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish hodisasi: proteza, epenteza, epiteza,

IV. Fonetik hodisalarning boshqa turlari: prokopa, anakopa, sinkopa, apokopa, eliziya, sandhi hodisasi, aferezis, gaplologiya, metateza, geminatsiya, senerizis, spiratizatsiya.

Keltirilganlardan ayrimlarida undosh tovushlar o'zaro turli sabablar (kuchli-kuchsiz pozitsiya, joylashish o'rni)ga ko'ra moslashsa, ayrimlarida turli kategoriyali tovushlar o'zaro ta'sir etib moslashadi. Demak, nutq tizimida so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'sirida o'zgarishning yuz berishi fonemaning kombinator ottenkasini hosil qiladi.

Pozitsion omil ta'sirida yuz beradigan o'zgarishlar bo'g'inning urg'uli yoki urg'usizligiga, undosh tovushlarning so'z oxirida jarangsizlashuvi asosida yuz beradi.

O'zbek tilida, umuman turkiy tillardagi nutq tovushlarining o'zgarishlari ustida olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan M.Mirtojiyev o'zining "O'zbek tili fonetikasi" kitobida ma'lumot bergan. Olim nutq tovushlari taraqqiyotidagi miqdoriy o'zgarishning ikki ko'rinishini keltiradi: konvergensiya, divergensiya.

Kombinator omillar ta'sirida yuz beradigan o'zgarishlar (assimilyatsiya) aslida singarmonizm hodisasidir. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan singarmonizm hodisasining sun'iy chiqarilishi nafaqat to'g'ri talaffuzga, balki yozma nutqda ham xatoliklarni ko'payishiga olib keldi. Hozirgi jonli o'zbek tilida fonetik vaziyat murakkabligi, nutqda ham til orqa, ham til o'rta va ham til oldi unlilari birdek qo'llanilayotgani, bu ko'p hollarda sheva xususiyatlari, ba'zi o'rinlarda adabiy til yoki maktab ta'limining ta'siri bilan belgilanayotgani, biroq buning fonida o'zbek tilining transkripsiya lug'ati yo'qligi va adabiy talaffuz aniq qoidalashtirilmagani o'zbekcha fonetika hamda fonologiyasida ba'zi masalalar qayta ko'rib chiqilishi, bu borada yangi izlanishlar olib borilishini talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda fonetik hodisalarning turlari tasnifida qo'llangan xalqaro terminlarga izoh har doim ham berilmaydi, ya'ni kombinator o'zgarish tavsifi berilsa-da "kombinator" so'zi izohlanmaydi.

"Kombinator" so'zi lotincha "combinare" (birlashtirmoq, bog'lamoq) fe'lidan hosil bo'lgan. "Com" – "birga" yoki "yig'ilish", "bini" — "ikkilik" yoki "juftlik" tushunchasiga ishora qiladi. Pozitsion o'zgarish birikmasidagi "pozitsion" so'zi lotincha "positio" (joylashish, o'rin) so'zidan quyidagi qismlardan iborat: "ponere" — "qo'ymoq", "joylashtirmoq" ma'nosini bildiradi: "-tio" – jarayon yoki holatni ifodalovchi qo'shimcha. "Pozitsion" so'zi "joylashish" yoki "o'rni bilan bog'liq" degan ma'noni anglatadi.

Og'zaki nutq jarayonida ko'pgina tovushlar turli xil o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu o'zgarishlarning bir qismi yozma adabiy tilga ham o'tadi. Tilda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tejamkorlik va qo'shaloq qo'llash, bir xillikka intilish va har xillikka intilish, ba'zi birliklarnig o'rnini almashtirish kabi tamoyillar mavjud. Tejamkorlik yoki ekonomiya prinsipi ta'sirida faqat so'z va qo'shimchalar emas, tovushlar ham tushib qolishi mumkin. Tovush orttirilishi unga teskari jarayon bo'lib, o'zining aniq sabablariga ega.

Tovush o'zgarishlari haqida fikr yuritganda xalqning og'zaki nutqini, shevalarini, hattoki

bir shevaning muayyan vakillariga xos talaffuzni hisobga olish lozim. Soʻzlarning yozuvdagi ifodasiga, adabiy talaffuzga eʼtibor qiladigan boʻlsak, tovush oʻzgarishlarini toʻliq oʻrganib boʻlmaydi.

Fonetik hodisalar faqat shevalarda emas, ogʻzaki soʻzlashuv nutqida uchraydigan doimiy hodisalaridir. Oʻzbek tili fonetikasi tadqiqotchilar ichida bu hodisalarni adabiy nutq meʼyorlari uchun xos emas, asosan, oʻzbek shevalariga tegishli deb hisoblovchilar ham bor. Ammo oʻzbek shevalari nafaqat adabiy tilni boyituvchi manba, balki uning rivojlanishida ichki yetakchi imkoniyatlarning asosiy bazasi hisoblanadi.

Umuman, fonetik hodisalar nutq jarayonida soʻz tarkibidagi tovushlarning oʻzaro taʼsiri asosida yuz berishi, bu jarayon nutqda qulaylikka intilish natijasidir. Fonetik hodisalarning yuzaga kelishi soʻz oʻzlashtirish jarayoni bilan ham bogʻliq. Ayniqsa, oʻzbek adabiy tiliga arab, fors-tojik, rus tili va boshqa Ovroqpa tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar talaffuzida anglash mumkin. Shuning uchun nutqdagi fonetik hodisalar va ularning turlari doimo tilshunoslikka oid tadqiqotlarning asosiy mavzusi boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

Abdullayev, F. (1961). Oʻzbek tilining xorazm shevalari. Toshkent, Fan. 172 b. URL: <https://unilibrary.uz/literature/584471> (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Hojiahmedov, A., Madayev, O. (2022). Istiqloq davri oʻzbek navoiyshunosligi: 30 jildlik/5-jild. Toshkent, Tamaddun. 352 b. URL: <https://unilibrary.uz/literature/654631> (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, Talqin. 260 b. URL: [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%20\(H.Jamolxonov\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Hozirgi%20o'zbek%20adabiy%20tili%20(H.Jamolxonov).pdf) (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Jamolxonov, H. (2009). Oʻzbek tilining nazariy fonetikasi. Toshkent, Fan. 224 b. URL: <https://bit.ly/3XRXmQa> (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Nurmonov, A. (2002). Oʻzbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, Oʻzbekiston. 232 b. URL: <https://bit.ly/49C1paw> (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Qoshgʻariy, M. (1960). Devoni lugʻati turk. Gʻ. Abdurahmonov va S. Muttalibovlar ishtiroki va tahriri ostida. Toshkent, Fan. 550 b. URL: [https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Devoni%20lug'otut%20turk%20\(indeks-lug'at\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/lugatlar/Devoni%20lug'otut%20turk%20(indeks-lug'at).pdf) (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Tursunov, U., Muxtorov, A., Rahmatullayev, Sh. (1992). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, Oʻzbekiston. 400 b. URL: <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/03> (Murojaat sanasi: 12.11.2025).

Muallif haqida:

Nurmanov Furqat Ismoilovich — Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n. nurmanovfurqat@gmail.com

CURRENT STATE AND PROSPECTS OF TEACHING PHONETIC PHENOMENA

Furqat Nurmanov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: The phonetic system of language is considered the initial and fundamental stage of its study. Oral and written speech differ in their specific norms. Word pronunciation is not always reflected unchanged in written speech. This thesis presents researchers' scientific views on phonetic phenomena occurring in the speech process, their types, historical and modern forms, and expresses attitudes towards them. The existence of phonetic phenomena in all languages and their nature as a natural occurrence is cited in experimental linguistic research. Phonetic phenomena occur in speech due to the interaction of sounds within words, and this process results from the tendency towards convenience in speech

Keywords: phonetics, oral speech, written speech, combinatorial, positional changes

About the author:

Nurmanov Furkat Ismailovich — Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences. nurmanovfurqat@gmail.com

GAZETA NOMLARINING TOPONIMLAR BILAN ATALISHI

Zlixa Orazimbetova,^{id}
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur tezisda gazeta nomlarining toponim (geografik joy nomlari) asosida nomlanish hodisasi lingvistik va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Gazeta nomlarining toponimlar bilan bog'lanishi — bu nafaqat nomlash uslubidagi til hodisasi, balki milliy-madaniy identifikatsiya, regional o'zlikni ifodalash va auditoriyani aniqlashga xizmat qiluvchi kommunikativ vosita sifatida qaraladi. Maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hududlarida chiqqan gazeta nomlari misolida toponimik asosli nomlashning shakllari, motivatsiyasi, funksiyasi va semantik jihatlarini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu nomlarning axborot vositasi sifatida ijtimoiy ongga ko'rsatadigan ta'siri ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: toponim, onomastika, regionallik, milliy-madaniy identitet, nomlanish motitsatsiyasi

Hozirgi kunda toponimlarni sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmatik, antropotsentrik va lingvomadaniy jihatlardan o'rganishga e'tibor kuchaymoqda (Enazarov, 2006; Hakimov, 2016). Toponimikaning hajmi va sifati jihatidan ancha boyigan va kamol topgan barcha birliklari, jumladan, aholining tarixi, geografiyasi, tabiati, milliy tarkibi va boshqa turdagi aholi yashash joylari – mahallalar, qishloqlar, shaharlar va aholi punktlari to'g'risida boy lingvistik ma'lumotlar beruvchi toponimik birliklari yangi davr talablari asosida o'rganish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek, toponimlarni tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan o'rganish til taraqqiyoti va uning onomastik tizimi, shakl va mazmunini o'rganish imkonini berishi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Toponimlar – tilshunoslikda muhim ilmiy manba bo'lib, ular orqali nafaqat tilning o'zi, balki xalq tarixi, madaniyati, geografik tasavvuri ham chuqur o'rganiladi (Sa'dullayev, 1996; Nafasov, 2018). Shu sababli toponimika tilshunoslikning boshqa sohalari bilan uzviy bog'liq va ko'p jihatdan ularni boyitadi.

Toponim — bu muayyan geografik ob'ekt, hudud, joy, shahar, qishloq, daryo, tog', cho'l va boshqa tabiiy yoki ijtimoiy makonlarning nomi (Do'simov & Egamova, 1977). Bu atama yunoncha “topos” — “joy” va “onoma” — “ism, nom” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, “joy nomlari” ma'nosini bildiradi. Toponimlar insonning atrof muhitni anglashi, unga nom berish va u bilan muloqot qilish jarayonida paydo bo'ladi.

Bizni o'rab turgan har qanday geografik ob'ektni nomi bor, ular ob'ektlarni bir-biridan farq qilish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan, tildagi ko'pgina so'zlar nomlarga (atoqli otga) aylangan. So'z bilan buyumlarni (kitob, stol, stul, televizor), mavjudodlarni (odam, qush, hayvon, osimlik), tasavvuriy tushunchalarni (quvonch, g'azab, go'zallik, hordiq), sifat va xususiyatlarni (yaxshi, katta, yomon, chuqur, mehnatkash) va boshqalarni ifodalashi mumkin. Bu so'zlarning har biri aniq bir predmetga tegishli emas, balki butun bir o'xshash predmetlarni belgilaydi.

Boshqacha aytganda, ular turdosh otlar, ya'ni, apellyativlar (lotincha, appellativum - uatoqli otni aksi) hisoblanadi. Ammo, tilda shunday so'zlar ham borki, ular faqat bitta predmet yoki ob'ektga tegishli va so'z uni boshqalardan farq qilishi uchun xizmat qiladi. Bunday so'z yoki so'zlar birikmasi atoqli ot deb ataladi. Atoqli ot — biron geografik ob'ektni boshqa ob'ektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasidir (Nafasov, 2018). Har bir geografik ob'ektning o'z nomi bor, u joyni biron xususiyatini yoki ob'ekt bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni o'zida mujassam etgan oddiy so'z bilan joyning ittifoqi hisoblanadi. Binobarin, geografik nomlar “o'lik” so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy xazinadir. Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Kurai zaminda har xil davr va tilga mansub millionlab geografik nom larning uyg'unligini ko'rish mumkin. Ularni har kuni radiodan eshitamiz, gazetada o'qiymiz, teleekranlarda va kompyuter monitorlarida ko'ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni geografik nomlar orqali anglab olish mumkin.

Respublikamizdagi ko'plagan markaziy, viloyatlar, tuman gazeta va jurnallarining nomlari biroz qiziqishimizni o'yg'otadi. Aksariyat gazetalarning nomlari toponimlar bilan berilganligini

ko'rishimiz mumkin. Ammo, tilimizning go'zalligi nashrlarimiz nomlarida namoyon bo'lsa, ba'zilarida toponimlar to'g'ridan-to'g'ri ishlatilgan. Ayniqsa, bu borada jadidlarimizning shijoatlari namunai ibrat bo'la oladi. Jadidlar harakatining etakchilari XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosatining eng qonli davrida ilk milliy gazetalarga o'zlarining maqsad, maslak va muddaolaridan kelib chiqqan holda e'tibor qiling, qanday go'zal nomlar qo'yishgan. Masalan: "Xurshid", "Turon", "Ulug' Turkiston", "Sadoi Turkiston" va hokazo (Almanov, 2024).

Taassufki, Sho'ro zamonida ham nashrlarimizga nom qo'yish borasida to'siqlar va bosimlar bo'lgan. "Pravda" gazetasiga taqlid qilib, barcha gazetalarimizga "Haqiqatlar" yorlig'ini yopishtirib qo'yganlar (Ernazarov va boshq., 2019). Natijada bir o'lkada, bir Vatanda qo'ziqorin kabi o'nlab, hatto yuzga yaqin "haqiqatlar" paydo bo'lgan va ularning aksariyati bugungi kunda ham yashab kelmoqda. Hattoki Afg'oniston davlatida o'tgan asrning 80-yillarida hukmron Xalq demokratik partiyasining nashri moskvalik maslahatchilar tavsiyasi bilan "Haqiqat-e inqilobi Savr" ("Savr inqilobi haqiqati") deb nomlangan edi. Mazkur partiyaning jurnali esa, "Partiya turmushi"ga o'xshab "Zindagiye hizb" nomi bilan chiqar edi.

2018 yil holatidagi gazeta va jurnallarimiz ro'yxatiga e'tibor bersak, viloyat va tumanlar miqyosida o'nlab "haqiqatlar"ni ko'ramiz. Masalan: "Namangan haqiqati", "Rishton haqiqati", "Chust haqiqati", "Qo'rg'ontepa haqiqati", "Nukus haqiqati", "Qung'iroq haqiqati", "Samarqand haqiqati" va hokazo. Ta'kidlash joizki bu <haqiqat>larning hammasi toponimlar bilan birlashgan.

Shuningdek, shu tamoyilda "sadolar" va "ovozlar" qo'shimchasi bilan respublika, viloyat va tumanlarda talaygina nashrlar faoliyat yuritmoqda. Birinchi "sadolar" ("Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona") paydo bo'ldi. Chunki u davrlarda sado (ovoz) beradigan radioning o'zi yo'q edi. Shu boisdan jadid bobolarimiz "xalqning nidosi, sadosi (ovozi) o'lka uzra yangrasin", — deb gazetalarga "sado" qo'shimchasi bilan nom qo'yishgan. Keyinchalik "O'zbekiston ovozi", "Qoraqalpog'iston ovozi" nomlari paydo bo'ldi. Zamonlar o'zgardi, ammo "haqiqatlar" va "ovozlar" o'zgarmadi. Ayniqsa ularga toponimlar biriktirildi.

Shuningdek, paxta yakkahukmronligi va "oq oltinni oltin qo'llar yaratadi" degan maqtov so'zlar asosiy g'oya bo'lganligi rost. Bugungi global ekologik fojialar ham aynan o'sha siyosatning merosi, og'ir oqibatidir. Qarangki, shu siyosatning asorati tumanlar toponimikasi va tuman gazetalarining nomlanishiga ham ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Samarqand viloyati Paxtachi tumanining "Paxtachi" gazetasi, yoki Jizzax viloyati Paxtakor tuman hokimligi nashri hisoblanmish "Paxtakor hayoti" gazetasi bunga misol bo'la oladi.

Keyinchalik, aniqirog'i 1989-1990 yilllarda mahalliy gazetalar nomini "haqiqat" o'rnini "tong" va "sado" so'zlariga olmasdi (Hakimov, 2016). Masalan: "Marhamat tongi", "Qoraqalpog'iston tongi", "Beshariq tongi", "Toshloq tongi", "Xiva tongi", "Qorovulbozor tongi", "Parkent tongi", "Surxon tongi", "Qibray sadosi", "Xonobod sadosi", "Namangan sadosi" va yana bir necha nashrlarni aytishimiz mumkin.

Yangi O'zbekiston davrida zamonga mos ravishda yangi nashrlar vujudga keldi. Ular orasida, eng avvalo, "Yangi O'zbekiston" gazetasini alohida tilga olishimiz mumkin. Keyin "Yangi Sirdaryo", "Yangi Farg'ona" gazetalari yuzaga keldi.

Gazetalar nomlari orasida taajjubga soladiganlari ham bor. Masalan, 2020 yili ro'yxatga olingan "O'zbekko'mir" aktsiyadorlik jamiyati nashri bo'lgan "O'zbekko'mir" gazetasi paydo bo'ldi.

O'zbek tilidagi gazeta nomlarida toponimlar (joy nomlari) keng qo'llaniladi va ular gazeta kontentining hududiy mansubligini belgilash, o'quvchida manzillilik hissini uyg'otish, mahalliylikni ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bu nomlardagi toponimlar asosan shahar, viloyat, tuman, qishloq yoki hududiy xususiyatlarni aks ettiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi xududida ham toponimlar bilan bog'liq gazeta nomlari juda ko'p uchraydi. Masalan: "Xo'jayli haqiqati", "Qung'iroq haqiqati", "Qoraqalpog'iston tongi", "Qoraqalpog'iston ovozi", "Nukus haqiqati" (ammo hozirgi nomi "Paytaxt" bo'lib o'zgartirilgan), "Shimbay ovozi", "Qonli ko'l xabarlar", "Kegayli turmushi", "Taxtakopir tongi", "Aqmangit tongi" va hokazolar.

Toponimli gazetalar nomlariga misollar:

Shahar va viloyat nomlari bilan:

"Toshkent haqiqati" – Toshkent shahriga tegishli mahalliy nashr.

"Farg'ona haqiqati" – Farg'ona viloyati uchun chiqadigan gazeta.

"Navoiy ovozi" – Navoiy viloyatida nashr qilinadi.

"Qashqadaryo" – Qashqadaryo viloyati nomiga bog'liq gazeta.

“Buxoro zamonasi” – Buxoro viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritadi.

“Qoraqalpog‘iston tongi” – Qoraqalpog‘istonda gazetasi.

Tuman va kichik hududlar bilan:

“Paxtachi haqiqati” – Paxtachi tumani gazetasi.

“Sherobod” – Surxondaryo viloyatidagi Sherobod tumani nomi bilan.

“Beshariq tongi” – Beshariq tumanidagi gazeta.

“Yangiyo‘l ovozi” – Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahriga oid nashr.

“Xo‘jayli haqiqati” – Xo‘jayli tumanidagi gazeta.

“Qung‘irot haqiqati” – Qung‘irot tumanidagi gazeta.

“Shimbay ovozi” – Shimbay tumanidagi gazeta.

“Qonli ko‘l xabarlar” – Qonli ko‘l tumanidagi gazeta.

“Kegeyli turmushi” – Kegeyli tumanidagi gazeta.

“Taxtako‘pir tongi” – Taxtako‘pir tumanidagi gazeta.

“Aqmangit tongi” – Nukus tumani gazetasi.

O‘lka va geografik xususiyatlar bilan:

“Qoraqalpog‘iston ovozi” — Qoraqalpog‘iston Respublikasida nashr etilgan (ammo, hozirda mavjud emas).

“Surxon sadosi” — Surxondaryoning adabiy va ijtimoiy hayotini yorituvchi gazeta.

“Zarafshon” — Zarafshon vodiysiga ishora qiluvchi, Navoiydagi gazeta.

Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz kerak ki ushbu gazetalarning aksariyati hozirgi kunda to‘xtatilgan, ayrimlari esa juda kam adadta nashr etilib kelinmoqda. Ammo, bizning maqsadimiz ularning faoliyatini ko‘rsatib berish emas, faqatgina toponimlar bilan bog‘liq nom bilan atalishini e’tirob o‘tish xalos.

Gazeta nomlarining toponimlar asosida atalishi – bu til hodisasi bo‘lib, u jurnalistik onomastikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Toponimik nomlash, bir tomondan, axborot vositasining geografik joyga mansubligini bildirsa, ikkinchi tomondan, u o‘sha hudud aholisi bilan ma’naviy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, toponimlar yordamida gazeta nomiga regionallik, milliy-madaniy identitet, tarixiy xotira va auditoriyaga yo‘naltirilgan kommunikativ anglash ko‘rinishlari singdiriladi. Bu esa, ommaviy axborot vositalarining nomlash strategiyasida til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi.

Shunday qilib, toponim asosidagi gazeta nomlari faqat nomlash vositasi emas, balki til, madaniyat, tarix va ijtimoiy ongni o‘zida mujassam etgan ko‘p qirrali semantik birlikdir. Kelgusida bu jarayonni hududlar kesimida chuqurroq o‘rganish, tarixiy gazeta nomlarini tahlil qilish hamda yangi nomlash tendensiyalarini kuzatish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Almanov, Q. (2024). Jizzax vohasi yer otlarining shakllanishida etnonim, antrotoponim, patronim va kasb-hunar bilan bog‘liq nomlar. Решение социальных проблем в управлении и экономике, № 3(12), 99–109. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/sspme/article/view/61065> (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Ernazarov, T.J., Yesemuratov, A.Y. Jumanazarov, J.T., Qodirova Y.T., Jumanazarova G.T. O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi [o‘quv lug‘ati]. Toshkent, Nodirabegim. 2019. URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/t_0.pdf (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Enazarov, T. (2006). O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo‘llari (Fil.fan.dok. dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.

Do‘simov, Z., Egamova, X. (1977). Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. URL: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ZaMuniEAAAAJ&citation_for_view=ZaMuniEAAAAJ:W7OEmFMylHYC (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Hakimov, Q. (2016). Toponimika: “Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, Mumtoz so‘z. 368 b. URL: <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/01/Toponimika.pdf> (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Nafasov, T. (2018). O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. URL: [https://ziyouz.com/books/lugatlar/O‘zbek%20tili%20toponimlarining%20o‘quv%20izohli%20lug‘ati%20\(T.Nafasov,%20V.Nafasova\).pdf](https://ziyouz.com/books/lugatlar/O'zbek%20tili%20toponimlarining%20o'quv%20izohli%20lug'ati%20(T.Nafasov,%20V.Nafasova).pdf) (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Sa'dullayev, A. (1996). Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent, O'qituvchi.
URL: <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tarix/sagdullayev-qadimgi-o-zbekiston-ilk-yozma-manbalarda-asari> (Murojaat sanasi: 03.10.2025).

Muallif haqida:

Orazimbetova Zlixa — Qoraqalpoq davlat universiteti professori, f.f.d. (DCs), zlixa4@mail.ru

TOPONYMIC NAMING OF NEWSPAPERS

Zlikha Orazimbetova,
Karakalpak State University

Abstract: This thesis analyzes the phenomenon of naming newspapers based on toponyms (geographical place names) from linguistic and cultural perspectives. The association of newspaper names with toponyms is considered not only as a linguistic phenomenon in naming style but also as a communicative tool that serves national-cultural identification, expression of regional identity, and audience targeting. The article examines the forms, motivations, functions, and semantic aspects of toponymic naming using examples of newspaper names published in the regions of Uzbekistan and Karakalpakstan. Additionally, the impact of these names on public consciousness as a means of information is also discussed.

Keywords: toponym, onomastics, regionalism, national-cultural identity, naming motivation

About the author:

Orazimbetova Zlikha — Professor at Karakalpak State University, Doctor of Philological Sciences (DSc), zlixa4@mail.ru

SAMIMIY MULOQOT VA XALQONA OHANG UYG'UNLIGI

Latofat Tashmuxamedova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda notiqlik san'ati mavzusiga bag'ishlangan ma'lumotlar berilgan bo'lib, asosiy e'tibor kishilarning o'zaro samimiy muloqotiga, o'zbek tilining xalqona, o'ziga xos ohangiga, o'ziga xos qochirimlarni o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: notiqlik san'ati, til va uslub, shaxslararo munosabatlar, muloqotda samimiylik

Ijtimoiy yo'naltirilgan muloqotni shaxslantirishning keng tarqalgan ta'sirchan usullaridan biri og'zaki nutq vaziyatidagi fikrlashga mos ifoda tarzini yaratishdir (Toshaliyev va boshq., 2000). Oddiy gaplashuv nutq qurilishiga taqlid qilish (imitizatsiyalash usuli), yozma kitobiy matn tarkiblashda so'zlashuvga xos lisoniy unsurlar va ifoda usullaridan foydalanish muloqotga jonlilik, tabiiylik, samimiylik baxsh etadi.

Erkin, baqamti muloqot vaziyatiga muvofiq fikrlash va nutq irod qilish usuli yozma nutqqa xos qat'iy maromli ifoda usulidan chekinishga, tayyorgarliksiz beixtiyor fikr ifodalash usuliga taqlid qilishga asoslanadi (Зарепкая, 2002). Aytaylik, "U bugun nihoyatda bejirim va chiroyli atlas ko'ylaklar tikib, mijozlarni mamnun etmoqda" jumlasini "U atlas kuylaklar tikmoqda bugun, nihoyatda bajirim. Go'zal. Mijozlari mamnun" tarzida mantiqiy va ta'sirchan qismlarga bo'laklab ifodalash og'zaki nutqqa xos, his-tuyg'uga boy ekspressiv ifodalar tizmasini hosil qiladi. Yozma-kitobiy nutqqa oddiy so'zlashuvga xos jonlilik, tabiiylik, ruhini, muloqotga shaxslantirilgan ifoda yo'sinini beradi. "Boltaboy aka bir savat shaftoli uzib chiqdi. Muzdekkina. Biram shirin. Ko'zingiz quvnaydi. Bog'misan-bog'! Bu bog'ni bunyod etguncha..." ifodasi muallifning voqeaga munosabatini tuyg'uli shaklda ifodalashga, fikrning ayrim qismlarini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalashga xizmat qilgan. Ifodalangan his-tuyg'uning adresatga ham yuqishi va muloqotda samimiy bir hamjihatlik kayfiyati yaratilishi shubhasiz.

Gapning qat'iy grammatik modelini mazmuniy-mantiqiy qismlarga bu tarzda bo'laklash (maydalash, parchalash) umumadabiy marom mezonlariga mos kelavermaydi: so'z tartibining shaxsiy-ijodiy (sub'ektiv) asosda o'zgartirilishi, gap bo'laklarini nuqta yoki verguldan keyinga ajratib ko'chirish ekspressiv sintaksisga, uzuq-yuluq tarkiblanishga (рубленный синтаксис) xos usullar sanaladi va bular og'zaki nutqqa xoslik maqomiga ega bo'ladi. Bu usulda tartiblangan matnda tuyg'uli fikr va shakl birligi va uyg'unligi yuzaga keladi.

Alisher Navoiy bayonda ma'no (mazmun) va ifoda shakli uyg'unligini "dilkashlik" deb ataydi. Muloqot tamoyiliga xos ma'no va surat dilkashligi nutqiy aloqa dilkashligi (intimizatsiya pryomi)ni yuzaga keltiradi (Ивин, 2002).

Nutqni samimiylashtirish, dilkashlashtirish usuli ham aslida og'zaki nutq uslubiga taqlidan yaratilgan yozma nutqqa-matniy muloqotga xosdir. Ifodani so'zlashuv nutqi yo'sinida uslubiy lashtirish (stilizatsiya) san'atidir (Shomaqsudova, 2013).

Bu usul ifoda oqimida uzuq-yuluqlikni, to'liqsiz tuzilmalardan, so'z tartibini o'zgartirish va takrorlashdan unumli foydalanishni talab qiladi. His-tuyg'uli ta'sirchan sintaksisning asosiy xususiyatlaridan biri ham matnni mazmuniy-mantiqiy jihatdan bo'laklash ixcham va lo'nda ifodalarni qo'llash, muhim o'rinlarni ajratib ta'kidlash, alohida ohang va intonatsiya orqali talaffuz qilish (gapni aktuallashtirish, segmentlashtirish)dan iboratdir. Gapni kichik va ixcham ifodalarga ajratish va alohida aloqa birligi maqomini berish (nuqtadan keyinga ko'chirib mustaqil gap sifatida qo'llash) grammatik talab asosida emas, balki mazmuniy-mantiqiy va hissiy talab asosida amalga oshiriladi (Israil & Tashmuxamedova, 2019). Misollar:

Ortiqboy otasiga tortgan. Ellikni qoralab qo'ygan bo'lsa-da, badanida behojat et yo'q. Nihoyatda chayir. Turgan-bitgani pay. O'zi vazmin, lekin serharakat. Qarchig'aydek chaqqon va tiyran. Tinib-tinchimaydi. Ha, u tom ma'noda bunyodkor! Keling, uning ba'zi ishlari bilan yaqindan tanishaylik ("Toshkent oqshomi").

Ayol bolalarini yetaklab Termizdan Toshkentga uchdi, Toshkentdan Termizga... Keyin "Termiz — Qumqurg'on — Termiz" qatnay boshladi, ariza ko'tarib (Koshkiydi, yo'l yuurish bepul bo'lsa). Yo'l azoblari, asablar tarang. Matbuot aralashdi (Xususan, bizning «Inson va qonun»). Xo'sh, bu ish nima bilan tugadi, dersiz? Hamma gap shunda-da. Hali-beri tugashi qiyinga o'xshaydi ("Inson va qonun").

Bu bahonalar ham mutlaqo asossiz bo'lib, ularni keltirib chiqargan omillar quyidagicha:

avvalo, hamma ishlarga bosh-qosh ayrim rahbarlari tomonidan mevali daraxtlarga panja orasidan qaralib, shahardan begonalashtirildi — urbanizatsiyaga og‘ib ketish orqasida keskin o‘zgarishlarni keltirib chiqargan shaharsozlik nuqtai nazaridan! Tashnalikka mahrum etildi — o‘zlari loyihalagan sug‘orish sistemalarining nobopligidan! Qolaversa, butun diqqat-e’tibor “manzarali” ko‘kalamzorlashtirishga qaratildi — shart-sharoitni hisobga olmay, ishni osonroq “do‘ndirish” ilinji bilan! (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”).

Misollarga e’tibor berilsa so‘z va ifodalarning o‘ziga xos tarzda tartiblanishi, avvalo, axborotni tafsil (detal)lashtirgan, uni yanada aniqroq, ko‘zga tashlanadigan qilgan, axboriylik yukini oshirgan va kuchaytirgan, ikkinchidan, muloqotga so‘zlashuvga xos erkinlik, shaxslantirilgan ohang va intonatsiya baxsh etgan, uchinchidan, bayonda samimiylashtirilgan ruhiy-hissiy yo‘nalish yaratgan (Skott, 1991). Natijada, aqliy va hissiy fikrlash tarzi uyg‘unligiga mos kompozitsion tuzilma, ta’sirchan bayon usuli yuzaga kelgan.

Lavha yoki reportaj janridagi materiallar ekspozitsiyasida qo‘llanadigan atov gapli matniy tuzilmalarda ham yuqoridagi usulga o‘xshash xususiyat kuzatiladi. Atov (nominativ) gapni gap boshiga (gapning oxiriga emas) ko‘chirilgan bo‘laklangan ifodaga qiyoslash mumkin. Bir misol:

O‘rkach-o‘rkach qum barxanlari to‘ntarilgan doshqozinga o‘xshaydi. Qahraton. Muzlagan daryo tuyani ko‘targudek. Ko‘klam. Kuchli shamol yomg‘irdan so‘ng bir necha kungina gullab, keyin jizg‘anak bo‘lib qolgan o‘t-o‘lanlarni qum aralash tentiratadi. Saraton. Qumga tuxum quysang kampir shaftolining po‘stini artguncha oqi-oq, sarig‘i-sariq bo‘lib pishadi. Karaxt ilon kulcha bo‘lib qoladi, tilini osiltirib. Garmsel. Nafasni qaytargudek olov purkaydi. Kuz. Yumronqoziq qovjiragan saksovlarning tagidan in qaziydi. Toshbaqa majolsiz imillaydi...

Bu cho‘lining kechagi fasllari. Bugun esa... (O‘zbekiston adabiyoti va san’ati).

Xabar, reportaj, lavhalarda odatda, atov gap matn boshlamasi sifatida alohida, goho qo‘shaloq (ketma-ket) holda ishlatiladi va voqea yuz bergan joyni qayd etish, ta’kidlash vazifasini bajaradi. Keltirilgan misoldagi kabi qo‘llanishlarda esa joy, narsa, voqea yoki shaxs tasvirini tavsiflashga, ayon bir manzara yoki qiyofa yaratishga xizmat qiladi. Bunda voqelikning muayyan unsuri, fikr bayoni uchun muhim bo‘lgan tushuncha ta’kidlangan holda ataladi, harakatsiz holatda qayd etiladi. O‘quvchi (tinglovchi) e’tibori harakatsiz, barqaror manzaraga, keyin esa uning muhim bir tafsilotiga qaratiladi.

Bayonda ma’lum tushuncha yoki narsaga oid sifatlarni, izohlarni ifoda etuvchi ajratilgan yoki uyushgan ifodalar tizimini asosiy gap qurilishidan keyinga chiqarish usuli ham mavjud. Tilshunoslikda bu muayyan qism (bo‘lak)ni gap tarkibidan chiqarib, nuqtadan keyinga ko‘chirish hodisasi — ilovalari (parsellyativ) tuzilmalar istilohi bilan ataluvchi maxsus stilistik priyom sifatida talqin etiladi. Misollar:

Bu muallif menga ... tanish, juda ham tanish odamni esa sola boshladi, o‘zining fikr yuritishi bilan ham, masalaga baho berishi va uni tahlil qilishi bilan ham. Uning qalamida qandaydir tanish iboralar, tanish nuqtalar... ko‘pdan yo‘qotib topolmay yurganim ranglar...

Endi bilsam, u ilmga berilib ketgan ekan, o‘sha o‘zining tanlaganiga, o‘zining yoshligidayoq iqtidoriga.

Olima bularning hammasini (odobni ham, iqtidorlikni ham, muhabbatni ham) uning ilk ildiziga bog‘laydi, ota-ona odobiga, muomalasiga, oila tartibiga, uning teran muhitiga (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”).

Atov gapli matnda narsa-hodisaning, fikrning, holatning tafsilotsiz umumiy xususiyati (nomi) ajratib faollashtirilsa, nuqtadan keyinga chiqarilgan uyushiq ifodalar (ilovalar) tizimida xususiy sifatlari, tafsilotlari ta’kidlanadi, kuchaytiriladi. Lekin har ikki holda ham so‘zlashuvga xos his-tuyg‘uli bayon usuli yaratiladi. Hajonli bayon, hissiyotli matn qurilishi muloqotni shaxslantirishga, adresat e’tiborini boshqarib borishga, uni axborotga alohida munosabatda bo‘lishga va ta’sirlanishga tayyorlaydi. Oqibatda, muallifning samimiyligiga, axborotning chinligiga ishonchi ortadi. Bunday ifoda usulining radio va telemuloqotda ohang, intonatsiya va nolisoniy ishoralar, hatti-harakatlar vositasida samimiylilik, dilkashlik tasavvuri yana-da kuchliroq bo‘ladi. Quyidagi uzmani suxandonlik talablariga muvofiq og‘zaki bayon qilish orqali bunga ishonch hosil qilish mumkin.

O‘zbek dehqoni. Bugun ko‘ngli butun uning. Rizqi farovon. Bog‘lari bexazon. Umlari bezavol. Niyatlari xolis. Mustaqil. Oriyatli. Bir so‘zlik. O‘g‘il-qizlarining tengi yo‘q: mehnatda ham, muhabbatda ham. Ha, ularning ahdi ham, shahdi ham zalvorli, parvozlari yuksak. Bu yuksaklik boisi esa mustaqillik! Bunga siz ham, biz ham guvohmiz. Hammasini ko‘rib, bilib turibmiz.

Biz qalamga olgan voqea buning yorqin dalili. Shunday emasmi?! (“O‘zbekiston ovozi”)

Bayonda notqlik nutqiga xos ko‘tarinki ruh ham, hayajonli samimiylik ham bor. Bu xususiyat og‘zaki-so‘zlashuv ifoda usuliga taqlidan yaratilgan. Bu muallifning o‘quvchi bilan samimiy aloqa bog‘lashi va unga samarali ta’sir etishi uchun zarur nutqiy vaziyat va kayfiyat ha

Muloqotni bu usulda shaxslantirishdan qancha keng foydalanilsa, og‘zaki va yozma nutq maromlarini bir-biriga yaqinlashtirish imkoni shuncha ortadi. Bu ommaviy muloqotning ta’sirchanligiga ham, samaradorligiga ham bevosita daxldor muammodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Israil, M. I., & Tashmuxeamedova, L. I. (2019). Notqlik san’ati: O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Noshir. URL: https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_0061b19c98343b0.pdf (Murojaat sanasi: 13.09.2025).

Shomaqsudova, S. X. (2013). Notqlik san’ati sirlari. O‘zbekiston matbuoti, (4), 48–49.

Toshaliyev, I., Abdusattorov, R., & Maxmudova, S. (2000). Ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi: Jurnalistika ta’limi uchun ma’ruzalar matni. Toshkent Universitet. URL: <https://unilibrary.uz/literature/40282> (Murojaat sanasi: 13.09.2025).

Зарецкая, Е.Н. (2002). Риторика: теория и практика речевой коммуникации. Москва, Дело. URL: <https://studfile.net/preview/1101605/> (Дата обращения: 13.09.2025).

Ивин, А. А. (2002). Риторика: Искусство убеждать. Москва, ФАИР-ПРЕСС. URL: https://urss.ru/images/add_ru/209378-1.pdf?srsId=AfmBOooFLfQ_R6oaMEOUHIA8PvAobjq-75YAJtymgCdmgmVbIEXzA1IO (Дата обращения: 13.09.2025).

Скотт, Д. Г. (1991). Способы разрешения конфликтов. Киев, Внешторгиздат. URL: https://school2em.ucoz.ru/Psycholog/Mediazia/sposoby_razresheniya_konfliktov.pdf (Дата обращения: 13.09.2025).

Muallif haqida:

Tashmuxeamedova Latofat Ismatovna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professorı, f.f.n. latofat979@mail.ru

THE HARMONY OF SINCERE DIALOGUE AND FOLK TONE

Latofat Tashmukhamedova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis provides information on the topic of public speaking, with the main focus on sincere communication between people, the folk and distinctive tone of the Uzbek language, and the study of unique idiomatic expressions.

Keywords: public speaking, language and style, interpersonal relationships, sincerity in communication

About the author:

Tashmukhamedova Latofat Ismatovna — Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Ph.D. in Philology, latofat979@mail.ru

FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI

Oisha Zakirova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda XXI asr axborot muhitida fuqarolik jurnalistikasi jamiyat fikrini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli kommunikatsiyada axborotning markazlashmagan tarqalishi, jamoatchilik ishtirokining kengayishi va media inklyuzivlik tamoyillari yoritiladi. Ayniqsa gender nuqtayi nazardan fuqarolik jurnalistikasining ahamiyati — ayollar ovozi eshittirish, teng huquqlilikni targ'ib qilish va stereotiplarga qarshi kurashish orqali namoyon bo'lishi ilmiy dalillar asosida ko'rsatiladi. Freyzerning ijtimoiy adolat konsepsiyasi va Rozenning fuqarolik jurnalistikasi haqidagi qarashlari nazariy asos sifatida qo'llanadi. O'zbekiston sharoitida "inson qadri uchun" tamoyili doirasida gender sezgir jurnalistika dasturlarini joriy etish, media etika, onlayn zo'ravonlikka qarshi mexanizmlar va milliy media indeksini yaratish kabi takliflar ilgari suriladi. Xulosada, gender muvozanatini ta'minlash fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi va demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishi uchun zarur omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jurnalistikasi, gender tenglik, raqamli media, media inklyuzivlik, onlayn zo'ravonlik

XXI asr axborot muhitida an'anaviy jurnalistika bilan bir qatorda fuqarolik jurnalistikasi jamiyat fikrini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanmoqda. Uning ustunligi — axborotning markazlashmagan tarzda tarqatilishi, ko'p ovozlilik va jamoatchilik ishtirokining kengayishidir (Gillmor, 2004).

Fuqarolik jurnalistikasi gender nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega. U ayollar ovozi eshittirish, ijtimoiy tengsizlikni fosh etish va jamiyatlardagi teng huquqlilikni targ'ib etish imkonini yaratadi. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan fuqarolik muxbirlari orasida ayollar soni hana yetarli emas, ular ko'p hollarda onlayn agressiya va diskriminatsiyaga duch kelmoqdalar (Jane, 2014).

Global OAV monitoring loyihasi (GMMP, 2015) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo yangiliklarida ayollar faqat 24 foizni tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2010-yildan beri o'zgarmagan. Internet muhitida ham ayollar ovozi ulushi 26 foizdan oshmagan. Bu holat media sohasida gender muvozanatini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. BBC, Bloomberg va Wall Street Journal kabi xalqaro media tashkilotlar gender tengligini ta'minlash bo'yicha ichki siyosat va mentorlik dasturlarini yo'lga qo'ygan bo'lsalar-da, dunyo miqyosida stereotipik yondoshuvlar saqlanib qolmoqda.

YUNESKO va Xalqaro jurnalistlar markazi (ICFJ)ning "The Chilling: A Global Study of Online Violence Against Women Journalists" (2020) tadqiqoti natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha ayol-jurnalistlarning 73 foizi onlayn zo'ravonlikka uchragan. Ular orasida 25 foiz jismoniy, 18 foiz esa jinsiy zo'ravonlik tahdidlariga duch kelgan. Internetdagi nafrat, trollizm va manipulyativ kontent ayollarning faol ishtirokini cheklamoqda (Posetti & Shabbir, 2022).

O'zbekiston sharoitida fuqarolik jurnalistikasi davlatning "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan axborot islohotlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanmoqda. Biroq milliy media makonida gender muvozanati hana yetarlicha ta'minlanmagan. Ayol bloggerlar soni kam, onlayn muhitda gender stereotiplar keng tarqalgan. Bu holat media savodxonlik, axloqiy jurnalistika va gender sezgir kontent yaratish ko'nikmalarini kuchaytirishni taqozo etadi (Holmuxammedova, 2020). O'zbekiston televideniyesida ayollar obrazining yoritilishi, Media va Gender masalalari, Toshkent. Shu bois, O'zbekistonda fuqarolik jurnalistlari uchun maxsus gender sezgir jurnalistika dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bunday dasturlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

- gender nazariyasi va media munosabatlarini o'rgatish;
- gender sezgir kontent yaratish va stereotiplardan qochish usullarini o'rgatish;
- media etika va shaxsiy hayot daxlsizligiga oid bilimlarni mustahkamlash;
- xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish.

Bu kabi tayyorgarlik tizimi fuqarolik jurnalistlariga axborot sifatini oshirish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va jinslar o'rtasida tenglikni ta'minlashda muhim qadam bo'ladi.

Fuqarolik jurnalistikasi nazariy jihatdan jamoaviy mas'uliyat, erkin fikr va ochiq jamiyat tamoyillariga tayanadi. Bu g'oyaning ilk nazariy asoslarini amerikalik media tadqiqotchi J.Rozen "fuqarolik jurnalistikasi demokratik faollikning yangi shakli" sifatida ta'riflagan (2008). Uning ta'kidlashicha, raqamli media vositalari orqali har bir shaxs axborot jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi va bu jarayonda teng imkoniyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender nuqtayi nazardan esa, fuqarolik jurnalistikasi media inklyuzivlik nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Freyzerning ijtimoiy adolat nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi haqiqiy tenglik axborot va fikr bildirish imkoniyatining teng taqsimlanishi orqali amalga oshadi. Bu nazariya fuqarolik jurnalistikasida ayollar va kam ijtimoiy guruhlarining ovozini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, Kerol Baksterning "Gendered media ecology" nazariyasi fuqarolik jurnalistikasini raqamli muhitdagi gender munosabatlar tizimi sifatida ko'radi. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlarda ayollar faolligi ko'pincha "institutsonal filtrlar" orqali cheklanadi — ya'ni, platformalar algoritmlari va auditoriya fikri gender roliga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida bu nazariy yondashuvlar davlat siyosatining "Inson qadri uchun" tamoyili bilan uyg'unlashadi. Davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 8-mart kunidagi nutqida ta'kidlanganidek, "Ayollarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish — faqat tenglik masalasi emas, balki mamlakat taraqqiyoti uchun muhim shartdir". Bu fikr fuqarolik jurnalistikasida ayollar ishtirokini kuchaytirish zarurligini nazariy jihatdan ham, amaliy siyosat nuqtayi nazaridan ham mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik jurnalistikasi raqamli jamiyatning ajralmas qismi sifatida axborot maydonida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamoatchilik fikrini erkin ifoda etish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda muhim o'rin tutadi. Uning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri — gender muvozanatini ta'minlash, ya'ni axborot jarayonlarida erkak va ayollar ovozineng teng va haqqoniy aks etishini ta'minlashdir.

O'zbekistonda fuqarolik jurnalistikasi davlatning "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan axborot islohotlari bilan uzviy bog'langan. Biroq milliy media makonida ayollar ishtiroki hanuz kam, media platformalarda gender sezgir kontent yetarlicha rivojlanmagan. Bu holat media savodxonlik, axloqiy jurnalistika va teng imkoniyatlar tamoyillarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Gender sezgir jurnalistika bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish — fuqarolik jurnalistlari va bloggerlar uchun maxsus trening, seminar va onlayn kurslar tashkil etish;
- Media siyosatda gender indikatorlarini joriy etish — OAV va raqamli platformalar kontentida ayollar ishtiroki ulushini baholaydigan mezonlar ishlab chiqish;
- Ayol bloggerlar va jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash fondlarini tashkil etish — moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish orqali ularning axborot jarayonlarida faolligini oshirish;
- Onlayn zo'ravonlik va diskriminatsiyaga qarshi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish — kiberqonunchilikni takomillashtirish, platformalarda shaffof hisobot tizimini joriy etish;
- Gender muvozanati bo'yicha milliy media indeksi yaratish — bu ko'rsatkich media sohasidagi tenglik darajasini baholash va xalqaro reytinglarda mamlakat pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jurnalistikasida gender muvozanatini ta'minlash nafaqat axborot sohasini, balki jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Ushbu yo'nalishdagi tizimli yondashuvlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining barqaror taraqqiyotiga, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga va "inson qadri" tamoyilini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Holmuxammedova, F. (2020). O'zbekiston televideniyesida ayollar obrazining yoritilishi, Media va Gender masalalari, Toshkent.

Mirziyoyev, Sh. (2022). Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 07.03.2022. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5049> (Murojaat sanasi: 23.09.2025).

Fraser, N. (1990). Rethinking the Public Sphere: A Contribution to the Critique of Actually Existing Democracy. Social Text, 25/26, 56–80. URL: https://carbonfarm.us/amap/fraser_public.pdf (Date of Application: 23.09.2025).

Gillmor, D. (2004). We the Media: Grassroots Journalism by the People, for the

People. O'Reilly Media. URL: https://books.google.co.uz/books/about/We_the_Media.html?id=3GphEGopal0C&redir_esc=y (Date of Application: 23.09.2025).

Jane, E. A. (2014). 'Back to the kitchen, cunt': speaking the unspeakable about online misogyny. *Continuum*, 28(4), 558–570. <https://doi.org/10.1080/10304312.2014.924479>

Posetti & Shabbir. (2022). *The Chilling: A global study of online violence against women journalists*, International Centre for Journalists. URL: https://www.icfj.org/sites/default/files/2022-11/ICFJ_UNESCO_The%20Chilling_2022_1.pdf (Date of Application: 23.09.2025).

Rosen, J. (2008). A most useful definition of citizen journalism. PressThink Blog. URL: http://archive.pressthink.org/2008/07/14/a_most_useful_d.html (Date of Application: 23.09.2025).

Muallif haqida:

Zakirova Oisha Vohid qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, PR va menejment fakulteti dekani, f.f.f.d (PhD), dotsent, oisha993wc@gmail.com

GENDER ASPECTS OF CITIZEN JOURNALISM: ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL PRACTICES

Oisha Zakirova,

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes citizen journalism in the 21st century information environment as an important social institution that shapes public opinion. The study highlights the principles of decentralized information dissemination in digital communication, the expansion of public participation, and media inclusivity. The importance of citizen journalism from a gender perspective is demonstrated through scientific evidence — by amplifying women's voices, promoting equality, and combating stereotypes. Fraser's concept of social justice and Rosen's views on citizen journalism serve as the theoretical foundation. In the Uzbek context, within the framework of the "human dignity" principle, proposals are put forward such as implementing gender-sensitive journalism programs, media ethics, mechanisms against online violence, and creating a national media index. In conclusion, it is emphasized that ensuring gender balance is a necessary factor for the sustainable development of civil society and the strengthening of democratic values.

Keywords: citizen journalism, gender equality, digital media, media inclusivity, online violence

About the author:

Zakirova Oisha Vohid qizi — Dean of the Faculty of PR and Management at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEDIADA JANRLAR INTEGRATSIYALASHUVINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Saodat Shamaksudova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mediadagi janrlar integratsiyasining mohiyati, shakllari, omillari va uning kommunikativ samaradorlikka ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, OAV janrlarida kordinal o'zgarishlar sodir bo'layotganligi, janrlar orasidagi chegaralarning buzilishi, ba'zi janrlarning yo'qolishi va yangilarining yuzaga kelishi haqidagi qarashlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: xabar, informatsion korrespondentsiya, axboriy reportaj, konvergensiya, mediamatn

Zamonaviy kommunikatsiya makonida axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida jurnalistika tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Bu jarayon ommaviy axborot vositalarining konvergent tus olishini, ya'ni matn, ovoz, tasvir va raqamli formatlarning birlashuvini taqozo etmoqda (To'xtaboyeva, 2021). Natijada mediamatnlarda janrlar integratsiyalashuvi — turli janr shakllarining o'zaro qo'shilishi, uyg'unlashuvi va yangi, gibrid janrlarning yuzaga kelishi hodisasi vujudga keldi.

Har qanday jurnalistik asar o'zining kompozitsion tuzilishi, yaxlit ko'rinishi, amal qilishi lozim bo'lgan qator printsplari, oldiga qo'ygan maqsadi, ish olib borish usullari va vazifalariga ega. Bu har bir jurnalistdan belgilangan tamoyillarga amal qilishni, voqelikka nisbatan bevosita yoki bilvosita yondashuvni, uni yetkazishda muayyan uslub va mahoratni talab qiladi. Jurnalist o'zi tayyorlayotgan asarning tartibi qanday bo'lishi, nimadan boshlashi, qanday ma'lumotni birinchi o'ringa olib chiqishi, voqea, hodisa, jarayonni qay tartibga keltirishning o'zi esa matnga nisbatan muayyan shaklni talab etadi.

Shakl haqida gap ketganda, albatta, janrlar haqida to'xtalib o'tish kerak. Avvalo janrning o'zi nima? Tadqiqotchilar unga "hayotiy materialning kompozitsion tuzilishini o'ziga ifoda etadigan va voqelik haqida aniq tasavvur beradigan axborot uzatishning o'ziga xos shaklidir", deb ta'rif berishadi. Ya'ni, oddiy qilib aytganda janr bu — asar shaklidir. Uning lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, "janr" fransuzcha so'zdan olingan bo'lib "tur", "xil" degan ma'nolarni anglatadi (Toshpo'latova, 2019).

Adabiy tilning funktsional uslublari til vositalarini ijtimoiy faoliyat sohalarida ma'lum an'ana va qonuniyatlar bo'yicha qo'llash tizimidir. Bu funktsional tizimlar ixtisoslashgan til vositalari va ularning imkoniyatlari majmuini ham, har bir uslubga xos matniy qurilish xususiyatlarini ham qaror toptiradi.

Ta'kidlamoq zarurki, jurnalistikada janrlar nazariyasi to'laqonli ishlab chiqilmagan. Buni turli tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan janrlar tasnifidan ham ko'rish mumkin.

Har qanday janrga mansub asarning boshlanishi va yakuni bo'ladi. Ana shu boshlanishi va yakuni bir-biriga bog'liq bo'lishi kerak. Agar bog'liq bo'lmasa, yaxlit mazmun chiqmaydi, voqea-hodisa haqida tasavvur uyg'otmaydi. Demak, har qanday yoziladigan asar aniq ma'no-mazmunga ega bo'lishi kerak. Mazmun esa muayyan shaklni talab etadi. Ko'p hollarda hayotiy materialning o'zi eng oddiy, tajribada sinalgan shaklga ega bo'ladi (Toshpo'latova, 2019).

L.M. Maydanov va S.O. Kalganovlar tomonidan janrlarni tasniflashda matnning yaratilishida texnik priyomning qaysi biri ishlatilganligiga ko'ra besh xil guruhga ajratish taklif kilingan:

- "Faktlarni izohlash usuli" maqsadini birlashtiruvchi janrlar (xabar, informatsion korrespondentsiya, axboriy reportaj);
- "Faktlarni tahlil qilish" maqsadida birlashgan janrlar (maqola, tahliliy korrespondentsiya, tahliliy reportaj, sharxlar, surushtiruvlar);
- "Matn haqida matn yaratish" maqsadini birlashtiruvchi janrlar (taqrizlar, "matnni so'zlab berish", jurnalning radioversiyasi va boshqalar);
- "Dialog shakladgi matn yaratish" maqsadida birlashgan janrlar (intervyuning turli xillari, tok-shou, "onlayn efir" va "press-konferentsiya");
- "Nutq ob'ektiining obrazini yaratish" maqsadida birlashgan janrlar (ocherk, eskiz, felbeton, esse).

Biroq bu tasnif mediamatnlarning turli janr shakllarini qamrab ololmaydi. Zamonaviy

mediadiskursning o'ziga xos janr shakllari va ularning konvergensiyasi diffuziya jarayonida - yangi integratsiyalashgan janrlarning yuzaga kelishi – infoteynment (ingl. infotainment dan information – informatsiya va entertainment – ko'ngil ochish), edyuteynment (education – o'qitish, entertainment – ko'ngil ochish), historytainment (tarix + ko'ngil ochish) va boshqalarda ko'rinadi.

Integratsiya jarayonlari nafaqat jurnalistika chegarasida, balki jurnalistika, reklama va PR to'qnashganda yuzaga keladi.

Shunday nashrlar borki, ular jurnalistikaga “taqlid qilish” orqali ish ko'radi. Masalan, O'zbekistonda “Sado” jurnali nashr etiladi. Ushbu nashr reklama jurnali bo'lsa ham, materiallari jurnalistik diskurs asosida tayyorlanadi. Tadqiqotchilar jurnalistik va PR matnlarni birlashtirishning ijtimoiy oqibatlari ya'ni ommaviy auditoriyaning barchasiga - ham tuzilishiga, ham aloqa jarayoniga, ham o'zini tutishiga va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadigan oqibatlari haqida fikr bildirmoqdalar. Shu tariqa ommaviy kommunikatsiyadagi janrlar geterogenligi bir tomondan matn chegaralirining tabiiy egiluvchan va xarakatchanligidan dalolat bersa, lekin boshqa tomondan janr erkinligini chegaralovchi kasbiy-etik va me'yoriy muammolarni faollashtiradi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar OAV janrlarida kordinal o'zgarishlar sodir bo'layotganligi, janrlar orasidagi chegaralarning buzilishi, ba'zi janrlarning yo'qolishi va yangilarining yuzaga kelishi haqida qayg'urmoqdalar. Rus olimlaridan G.V.Lazutina va S.S.Raspapova ta'kidlashganidek: “bugungi kun jurnalistikasi janrlar qorishuvi (o'zaro birlashuvi) bilan ajralib turmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, jurnalistik materiallarning janr farqlari axborot oqimlarida kamroq seziladi va nafaqat tomoshabinlar, balki professional muhit tomonidan ham yomon qabul qilinadi.” Bu jarayonlar mahalliy radioeshittirishlarda ham kuzatilmoqda. OAVning konvergensiyasi, eshittirishni personifikatsiyalash e'firda interaktivlikning faollashuvi jarayonlari an'anaviy radio janrlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib, ularga yangi “tovush” berib, yangi o'ziga xos shakllarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Ommaviy muloqot janrlarining bir-biriga ta'siri, o'zaro aralashuvi hollari esa mazmun o'zgarishlariga nutq shaklining qonuniy muvofiqlashuvi hodisasi, shuningdek jurnalistning mahorati nuqtai nazaridan yondashish kerak bo'ladi.

Janr integratsiyasi — bu turli janrlarning bir mediamatn doirasida birlashuvi, bir-birini to'ldiruvchi va yangi kommunikativ sifatga ega shaklga aylanish jarayonidir. U quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Matnli integratsiya – axborot va tahliliy janrlarning uyg'unlashuvi (masalan, “yangilik-tahlil” yoki “xabar-sharh” formatlari).

Audiovizual integratsiya – matn, foto, video va audio vositalarning bir mediamatnda sintezi (masalan, interaktiv reportaj, vlog, podkast).

Multimodal integratsiya – lingvistik, paralingvistik va grafik belgilar (emoji, gipermatn, vizual dizayn)ning uyg'un qo'llanishi.

Bu integratsiya natijasida jurnalistik janrlar faqat shaklan emas, balki mazmunan ham yangilanadi.

Janrlar integratsiyasi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

texnologik omil: raqamli platformalarning (internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar) rivoji;

kommunikativ omil: auditoriyaning interaktiv ishtiroki va tezkor axborot talabining ortishi;

Estetik omil: vizual madaniyatning kuchayishi va yangi ifoda vositalariga ehtiyoj;

Ijtimoiy omil: global media bozorida raqobatning kuchayishi va auditoriya e'tiborini jalb etish zarurati.

Mediada janrlar integratsiyalashuvi mediamatnning lingvostilistik xususiyatlarini ham o'zgartiradi. Masalan, matnlar dialogik va interaktiv tus oladi;

emotsional va ekspressiv birliklar (emojilar, og'zaki nutq unsurlari) keng qo'llaniladi; grafik, audio va video elementlar semantik yaxlitlik hosil qiladi; so'z tanlovi ko'proq multimodal kommunikatsiyaga yo'naltiriladi. Natijada jurnalistik tilning yangi, konvergent uslubi shakllanmoqda.

Zamonaviy OAVda quyidagi integratsiya ko'rinishlari kuzatiladi: BBC News, Kun.uz, Daryo.uz singari saytlar maqola ichida video, infografika, tvit yoki foydalanuvchi kommentariyalarini birlashtiradi; YouTube va Telegram platformalarida video-intervyular reportaj, sharh va blog elementlarini birlashtiradi;

Podkastlarda suhbat, esse va tahlil unsurlari sintezlanadi.

Bu misollar integratsiya nafaqat janrning ko'rinishini, balki auditoriya bilan muloqot strategiyasini ham o'zgartirayotganini ko'rsatadi.

Mediada janrlar integratsiyalashuvi — bu zamonaviy jurnalistikada konvergensiya jarayonining tabiiy natijasidir. U nafaqat texnologik yangilik, balki lingvistik, uslubiy va semiotik yangilanishni ham bildiradi. Janrlar integratsiyasi mediamatnning ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchi (yoki tomoshabin)ni faol kommunikativ jarayon ishtirokchisiga aylantiradi. Shu bois bu hodisa jurnalistika nazariyasi va amaliyotining muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

To'xtaboyeva, M. (2021). Zamonaviy jurnalistika va konvergent jarayonlar. Toshkent: O'zMU nashriyoti.

Toshpo'latova, N. Q. (2019). Tahliliy jurnalistika: O'quv qo'llanma. Toshkent, Bayoz. URL: <https://unilibrary.uz/literature/603133> (Murojaat sanasi: 25.09.2025).

Shamaksudova, S. X. (2023). Media tili va uslubi. Toshkent, Universitet. URL: https://t.me/Uzjoku_online_library/4811 (Murojaat sanasi: 25.09.2025).

Shoimqulov, B. (2020). Mediamatn lingvistikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

Jenkins, H. (2006). Convergence culture: Where old and new media collide. New York: New York University Press. URL: <https://www.jstor.org/stable/j.ctt9qffwr> (Murojaat sanasi: 25.09.2025).

Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2014). The elements of journalism. New York: Three Rivers Press. URL: https://books.google.co.uz/books/about/The_Elements_of_Journalism.html?id=oLzYD18Z-OcC&redir_esc=y (Murojaat sanasi: 25.09.2025).

Muallif haqida:

Shamaksudova Saodat Xidayatovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD).
saodat.xidoyatovna@gmail.com

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF GENRE INTEGRATION IN MEDIA

Saodat Shamaksudova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This article provides a scientific analysis of the essence, forms, and factors of genre integration in media and its impact on communicative effectiveness. Additionally, it examines perspectives on the radical changes occurring in media genres, the blurring of boundaries between genres, the disappearance of some genres, and the emergence of new ones

Keywords: message, information correspondence, news report, convergence, media text

About the author:

Shamaksudova Saodat Khidayatovna — Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Philology (PhD). saodat.xidoyatovna@gmail.com